

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**IQTISODIYOT FAQULTETI
«MENEJMENT» KAFEDRASI**

**«BOJXONA ISHI» FANIDAN
MA'RUZALAR MATNI TUPLAMI**



QARSHI – 2008 y.

Tuzuvchi: dots. Tursunov. I. E.

Taqrizchilar: Qarshi shahar Statistika
bo'limi boshlig'i dots. Saxatov S.T.

“Menejment” kafedrası
dotsenti Xushmanov I.

**To'plam Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti uslubiy kengashida
muxokoma qilingan va 5340200-menejment (ishlab chiqarish) bakalavr
ta'lim yunalishi talabalari uchun tavsiya qilingan (2008 yil 26.08. № 01-
sonli bayonnoma)**

A N N O T A T S I Y A

Tuplam O'zbekiston Respublikasi Oliy va Urta Maxsus Ta'lim Vazirligining tasdiklangan o'quv rejasiga binoan yozilgan va oliy o'quv yurtlarining «Iqtisodiyot va Menejment» bakalavriat yunalishlarida ta'lim olayotgan talabalariga bilim olish uchun tavsiya etiladi.

A N N O T A T S I Y A

В соответствии с государственными стандартами Высшего образования дисциплина «Основы таможенного дела» является одним из важнейших предметов по направлениям «Экономика » и «Менеджмент».

Данный сборник разработка по учебному плану, одобренного специального Министерством высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан.

A N N O T I O N

The subject "Basis of customs" is the main subject on trend "Economic" and "Management".

This program produce through Ministry of high and Secondary Republic of O'zbekistan's approved teaching plan and recommended for university, and faculties.

MA‘RUZA MAVZULARI

№	Ma‘ruza mavzulari	Coat
1.	Fanning predmeti va uning vazifalari.	2
2.	Bojxona munosabatlarining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi	2
3.	O‘zbekiston respublikasida bojxona ishini tashkil etish.	4
4.	O‘zbekiston respublikasida bojxona siyosati va uni belgilovchi asosiy omillar.	4
5.	Bojxona nazoratini tashkil etish	2
6.	Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan o‘tkazish	4
7.	Bojxona rejimlari	4
8.	Tovarlar va transport vositalarning ayrim turlarini bojxona chegarasidan olib o‘tish rejimlari	4
9.	Bojxona tulovlari ularning moxiyati va xuquqiy asoslari	4
10.	Tashqi iqtisodiy faoliyat. tovar nomenklaturasi va uning qoidalari	4
11.	Bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik	2
J A M I:		36

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikni qulga kiritib, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar islox qilina boshlashi, bozor iqtisodiyotiga o'tish davomida respublikaning milliy manfaatlarini ximoya qilishga da'vat etilgan mustaqil davlat bojxona siyosati ishlab chiqila boshlandi va uni amalga oshirishga kirishildi. Ushbu siyosat xalqaro amaliyotda tuplangan bojxona ishi tajribasiga tayanadi va iqtisodiyot va jamiyatning o'tish davridagi uziga xos vazifalarini xal etishi kerak.

Bojxona ishi O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati tizimida ustuvor urinlardan birida turadi. Bir tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi tashqi bozorga mustaqil chiqish xuquqiga ega bulgan korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlar doirasini jiddiy ravishda kengaytirdi. Davlat bojxona siyosati vositalari - tarifli va notarif boshqarish vositalari orqali ularning tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti va importi buyicha faoliyatiga ta'sir kursatadi.

Ikkinchi tomondan, ichki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, milliy bozorni shakllantirish, Respublikabyudjetining daromad qismini tuldirish vositasi sifatida bojxona ishining axamiyati ortdi. Bu, uz navbatida, bojxona ishining xuquqiy asosini yaratuvchi qonun xujjatlari va normativ xujjatlar tizimini ishlab chiqishni takozo etdi. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, «Davlat bojxona xizmati tugrisida» va «Boj tarifi tugrisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari bojxona xaqidagi qonun xujjatlari tizimi asosini tashkil etadi. Aytib utilgan qonun xujjatlari va ularni rivojlantirish uchun chiqarilgan normativ xujjatlar O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ximoya qilinishining ishonchli mexanizmini yaratadi, iqtisodiy va siyosiy ustuvorliklarni xisobga olgan xolda yagona bojxona siyosati utkazilishini ta'minlaydi.

Bojxona siyosatini amalga oshirishning ma'muriy, iqtisodiy va xuquqiy vositalari jami sifatida bojxona ishi yangiligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. U nafakat bojxona organlari xizmatlarini, balki maxsus bilimlarga extiyoj sezuvchi bojxona vositachilarini, tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarini xam kasbiy jixatdan kiziktiradi.

Ushbu ma'ruza matnida bojxona ishi asoslarini - uning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixidan boshlab bojxona siyosatini amalga oshirishning iqtisodiy, ma'muriy va xuquqiy mexanizmlarigacha qarab chiqishga xarakat qilinadi.

Ma'ruza-1. FANNING PREDMETI VA UNING VAZIFALARI

Reja:

- 1.1. Bojxona ishi, uning mohiyatiga asosiy tarkibi.
- 1.2. Fanning asosiy tushunchalari.
- 1.3. Bojxona ishi tushunchalarining mohiyati.
- 1.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda bojxona ishining tutgan urni.

Adabiyotlar 3,7,8,9,10,19

Tayanch iboralar: boj, bojxona ishi, bojxona organlari, bojxona organlari tizimi, bojxona xizmati, bojxona xududi, bojxona chegarasi, bojxona rejimi, bojxona nazorati, bojxona rasmiylashtiruv.

Bojxona ishi, uning mohiyatiga asosiy tarkibi. «Bojxona ishi» atamasi mazmunini aniqlash printsiptial axamiyatga egadir. Bojxona siyosatining xususiyati av mazmunini, bojxona xuquqi, uning institutlari va yuridik normalarini tushunish kup jixatdan ushbu atamani belgilashning puxtaligi va tulikligiga bojxona ishi tarkibini aniqlashga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida (2-modda) bojxona ishiga quyidagicha ta'rif beriladi: «Bojxona ishi O'zbekiston Respublikasini bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj tulovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan xamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir».

Mazkur ta'rif umuman olganda bojxona ishi iqtisodi tushunchasini va uning tarikibiy elementlarini aniq tavsiflab beradi. Biroq, garchi bojxona ishi murakkab, kompleksli tusda, uni tashkil etuvchi elementlar bir xil emasligi aniq bulsa xam qonun chiqaruvchi ushbu ta'rifda bojxona siyosatiga kiruvchi vositalarning ruyxatini ataylab bermagan. Bojxona ishi kup rejali va juda xilma-xil vazifalarni xal etishga yunaltirilganligi shartlanganligidan kelib chiquvchi uning uziga xosligi va nodirligi mana shundan iboratdir.

Bojxona ishi iqtisodining bojxona kodeksida kursatilganlardan tashqari tarikibiy qismlari ruyxatiga boj tariflari vositasida tartibga solish, valyuta nazorati, bojxona ta'minoti, bojxona statistikasi va Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini yuritish, kotrabandaga va bojxona ishi soxasidagi boshqa jinoyatlarga karshi kurash, bojxona xaqidagi qonun xujjatlari buzilganligi xaqidagi ishlarni kurib chiqish kiritilishi kerak.

Bunday yondashilgan takdirda bojxona ishi iqtisodi mazmuni kengrok tushuniladi, boz ustiga uning tarkibiga kiritilgan, yuqorida aytib utilgan kushimcha elementlar Bojxona kodeksida nazarda tutilgan xamda unda yetarlicha keng va batafsil tartibga solingan.

SHunday qilib, bojxona ishi tuzilmasi bojxona siyosatini amalga oshirishning quyidagi vositalari bilan ifodalanishi mumkin:

- ◆ tovarlar va i transport vositalarini bojxona chegarasi orqali
- ◆ olib o'tish tartibi va shartlari;
- ◆ bojxona rejimlari;
- ◆ boj tariflari vositasida tartibga solish;

- ◆ bojxona rasmiylashtirish;
- ◆ bojxona ta'minoti;
- ◆ bojxona nazorati;
- ◆ bojxona statistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi;
- ◆ bojxona ekspertizasi;
- ◆ kontrabandaga va bojxona ishi soxasidagi boshqa jinoyatlarga karshi kurash;

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik tugrisidagi ishlarni yuritish va kurib chiqish.

Bojxona ishining mazkur tuzilmasi xam, albatta, batafsil emas, uni yanada tabaqalashtirish mumkin. Umuman olganda esa bojxona siyosati vositalarining keltirilgan ruyxati O'zbekiston Respublikasi bojxona ishining xozirgi tuzilmasini aynan aks ettiradi.

Bojxona ishining yuqorida sanab utilgan tarkibiy qismlarining axamiyati, roli va maqomi bir xil emas. Biroq, ular xususiyati va maqsadlariga, bojxona ishi tizimidagi urniga kura turlicha bulsa xam jam bulgan xolda uzviy birlikni tashkil etadi, chunki O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona vazifalariga xizmat kiladi.

1.2. Fanning asosiy tushunchalari. Bojxona ishi iqtisodiga, uning mazmuni va tuzulmasiga umumiy ta'rif berish munosabati bilan ushbu soxada eng kup qullaniladigan ayrim atamalar va kategoriyalarga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Bular qquyidagi tushunchalar: bojxona; bojxona organlari; bojxona organlari tizimi; bojxona xizmati; bojxona xududi; bojxona chegarasi.

Bojxona tushunchasi turk xalqlarining «tamga» suzidan kelib chiqqan bulib, xonning moli, mol-mulkiga kuyiladigan belgi, tamga, muxrni anglatga. Keyinrok xonning yorliqlari yigim olingandan keyin berila boshlagan va u «tamga» deb atalgan. U undiriladigan boj edi. «Tamga» suzidan boj olingan tovarga «tamga bosish» («tamjit») fe'li kelib chiqqan. Muxr bosgan odam bojxonachi, muxrdor; muxr bosilgan joy esa bojxona (tamojnya) deb atala boshlagan.

Bojxona xozirgi tushunchada davlatning bojxona siyosatining amalga oshirilishi va bojxona xuquqi amalga qullanilishi uchun mas'ul bulgan xukumat xizmatini anglatadi.

Bojxona organlari - bevosita bojxona ishini amalga oshiradigan ijro etuvchi xokimiyatning xuquqini muxofaza organlaridir.

Bojxona organlari tizimi deganda fakat bojxona ishining moddiy komponentini - davlatning bojxona siyosatini amalga oshiruvchi ijroiya va farmoyish beruvchi organlari tushunmoq kerak. Shuni ta'kidlash zarurki, qat'iy subordinatsiya mavjudligi, ma'muriy buysunishning ierarxik munosabatlari boshqaruv istalgan tizimining muxim belgisi xisoblanadi. Shu nuqtai nazardan garchi uz faoliyati davomida ayrim bojxona masalalarni xal etish bilan shugullanuvchi, biroq markaziy yoki maxalliy bojxona organlari buysunuvida bulmagan bir qancha davlat va tijorat tuzilmalarini, muassasalar va tashkilotlarni bojxona organlari tizimiga kiritish mumkin emas.

Bojxona xizmati atamasi suzning keng va tor ma'nosida qullanilishi mumkin. Keng ma'noda bojxona organlari jami: bojxona vazifalari amalga oshirilishida bevosita qatnashuvchi buginlar va tuzilmalar, shuningdek bojxona organlarga xizmatga qabul qilish va davlat xizmatini utash tartibi va xuquqiy shartlari tushuniladi. Ikkinchi xolatda bojxona xizmati deganda faqat davlat xizmati turi: bojxona organlarida, boshqa buginlarda

(bojxona laboratoriyalari, markazlari, bojxona ixtisosidagi o'quv muassasalari va boshqa muassasalarda) davlat xizmatini utash tartibi va shartlari tushuniladi.

Bojxona kodeksiga (3-modda) muvofiq, O'zbekiston Respublikasining quruqlikdagi xududi, xududiy va ichki suvlari xamda ular ustidagi xavo bushligi bojxona xududini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi xududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning xududlari, agar qonun xujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bulsa, O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona xududi sarxadlari, shuningdek erkin bojxona zonalari va erkin omborlarning tegralari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi xisobalanadi.

1.3. Bojxona ishi tushunchalarining mohiyati. Kup qullaniladigan boshqa ba'zi tushunchalar va atamalarga tushuntirish beramiz.

Bojxona tizimi davlatning bojxona siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat tuzilmalari va boshqa tuzilmalarnigina emas, balki ular faoliyatining amaliy shakllarini xam nazarda tutuvchi eng umumiy va jamlovchi tushunchadir.

Bojxona boshqaruvi tizimi ancha tor ma'noga ega: u bojxona ishida davlat boshqaruv mexanizmi faoliyat kursatishi bilan bevosita bog'liq faoliyat turlarinigina qamrab oladi.

Bojxona ishiga raxbarlik qilish bojxona siyosati xayotga joriy etilishi yunalishining uni muvofiqlashtirish va uning ustidan nazorat qilishning shakllaridan biri xisoblaniladi va O'zbekiston Respublikasi davlat xokimiyati oliy organlari - Oliy Majlis, Prezident, Vazirlar Maxkamasi vakolatiga kiradi.

Bojxona ishini boshqarish (yoki bojxona boshqaruvi) tushunchasini bojxona siyosati va bojxona ishini xayotga joriy qilishga qaratilgan boshqaruv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sifatida belgilash zarur. Bojxona ishini boshqarish turli darajalarda - butun O'zbekiston Respublikasida, mintaqaviy darajada, bojxona postlari faoliyati xududida amalga oshiriladi.

Bir qancha bojxona atamalari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida (7-modda) aniq ta'riflangan.

Bojxona chegarasidan olib o'tish - tovarlar yoki transport vositalarini xar qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta junatmalarini xar qanday usulda, quvur transportidan xamda elektr uzatish liniyalaridan foydalanish yuli bilan bojxona xududiga olib kirish yoki olib chiqish xarakatlarini amalga oshirish. Shunday xarakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

* tovarlar yoki transport vositalari bojxona xududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar xududidan olib kirilganda - bojxona chegarasidan amalda o'tish;

tovarlar yoki transport vositalari bojxona xududidan olib kirilganda, shu jumladan bojxona zonalari va erkin omborlar xududiga olib chiqilganda - bojxona deklaratsiyasini taxli etish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan uzga xarakatni bajarish.

Bojxona nazorati - qonun xujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui. Bojxona ishining ushbu muxim qismi bamisoli «elvizak» tusiga ega bulib, amalda bojxona

faoliyatining barcha boskichlarida, jumladan tovarlar va transport vositalarida bojxona chegarasi orqali olib o'tish jarayonida namoyon bo'ladi.

Bojxona ta'minlovi - bojxona organlari plombalar, muxrlar bosish, raqamli, xarfli va boshqa markalar, qiyoslash belgilari kuyish, shtamplar bosish yuli bilan amalga oshiradigan tovarlar va transport vositalarini, binolar va boshqa joylarni qiyoslash (identifikatsiyalash) vositasi;

Bojxona rasmiylashtiruvi - tovarlar transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui.

Bojxona rejimi - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui.

Bojxona tulovini undirish bojxona siyosatining fiskal yunalishini belgilovchi vosita xisoblanadi. Bojxona kodeksining 103-moddasiga muvofiq tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasi orqali olib utilganda va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa xollarda bojxona tulovlari (boj, KKS va boshqa yigimlar) tulanadi.

Bojxona ishining muxim elementi va davlatning bojxona siyosatini xayotga joriy etishning elementi valyuta nazoratini amalga oshirish xisoblanadi.

Valyuta nazoratini amalga oshirish, shuningdek uni yanada rivojlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari tomonidan bojxona majburiyatlari bajarilishi maqsadida:

* amaldagi valyuta xaqidagi qonunlarda, shu jumladan ishlar, xizmatlarni eksport qilishdan valyuta tushumi ustidan, intellektual faoliyat natijalari uun valyuta tushumi ustidan, shuningdek valyuta boyliklari o'tishiga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

bojxona organlarining bojxona nazoratini amalga oshirishda valyuta nazoratining boshqa organlari bilan uzaro xamkorligini mustaxkamlash amalga oshiriladi.

Bojxona ishining tuzilmasi shundayki, uning ayrim qismlari, elementlari nisbatan ancha barqaror tusga egadir, garchi siyosiy ko'yunkturaga bog'liq bulsa xam uning tebranishlariga qaram emas. Ularga, masalan, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona statistikasi, institutlari va boshklar kiradi. Bojxona ishining boshqa qismi, birinchi navbatda, boj tulovlari, boj tariflari vositasida tartibga solish, bojlar stavkalari, bojxona rejimlari, tovarlar, transport vositalari, jismoniy shaxslarning bojxona chegarasi orqali o'tishi tartibi va qoidalari, bojxona nazorati shakllari va usullari goyatda xarakatchandir. Bojxona ishining ushbu soxalarini tartibga solish turli-tuman omillarni - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geografik, tabiiy, jinoiy va boshqa bir kator omillarni xisobga olish bilan bog'liqdir.

Yuqorida aytilganlarning barchasi bojxona ishining yaxlitligidan va shu bilan birga uning tarkibiy qismlarining xolisanillo tabaqalanishuvidan dalolat beradi. Uning tarkibiy qismlarining xar biri uziga xos vazifalarga xamda ayrim xususiyatlarga egadir. Ushbu uziga xoslik bu qismlar xar birining maqomini xuquqiy, kodeks-qonunchilik jixatidan tartibga solish uchun muxim axamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi umumiy qabul qilingan xalqaro normalar va amaliyot bilan birxillashish, xalqaro bojxona xamkorligida faol qatnashish negizida bojxona tartibotlarini uygunlashtirish tamoyiliga ega.


1.4. Davlat tomonidan tashqi iqtisodiy aloqalarni faol tartibga solish uzining iqtisodiy salohiyatini mustaxkamlayotgan davlat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi xisoblanadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati kup jixatdan uning tulov balansi xolatiga bog'liq bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat vaqt va makon jixatlarini – joriy va uzoq muddatli siyosatni uz ichiga oladi.

Joriy tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni tezkor tarzda tartibga solishdan iborat, uzoq muddatli siyosat esa yirik miqyosdagi vazifalarni xal etadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jixati jaxon va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir kursatishning asosiy yunalishlari buyicha davlatning xarakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati, bojxona siyosati kiradi.



Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Bojxona ishi iqtisodi fanining mazmuni?
2. Bojxona kodeksida «Bojxona ishi»ga tarif?
3. Bojxona siyosatini amalga oshirish vositalari?
4. Bojxona ishining asosiy tushunchalari?
5. Boj va bojxona suzlarining moxiyati?
6. Bojxona organlari tarkibi?
7. Bojxona boshqaruv tizimi ma'nosi?
8. Bojxona nazoratining mazmuni?
9. Bojxona rejimining mazmuni?
10. Bojxona ta'minlovi va rasmiylashtiruvi tushunchalarining moxiyati?

MA'RUZA 2.BOJXONA MUNOSABATLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

Reja:

- 2.1.Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarini paydo bo'lishi.**
- 2.2.Bojxona ishining urta asrlardagi rivojlanish davri.**
- 2.3.Markaziy Osiyoda bojxona ishi.**
- 2.4.O'zbekistonda bojxona ishining tashkil bo'lish boskichlari.**

Adabiyotlar: 1,4,5,7,11,15.

Tayanch iboralar: Boj funktsiyasi, kontrabanda, publikan, merkantilizm, buyuk ipak yuli, boj ulponlari, davlat bojxona kumitasi.

2.1. Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarini paydo bo'lishi. Xalqlar va davlatlar urtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning uziga xos shakli sifatida bojxona kup asrlar muqaddam paydo bo'ldi. Tashqi savdo aloqalari xaqidagi eng ilk ma'lumotlar bizga qadimgi Misrning oltinchi sulolasi (bizning eramizgacha bulgan III ming yillik boshi) yodgoliklari orqali yetib kelgan. Bu davrda misrliklar Finikiya shaxarlari va Kizil dengiz xavzasidagi yerlar axolisi bilan savdo qilishgan. Keyinrok Nil vodiysi savdogarlarining savdo aloqalari Ikki daryo oraligining quldorchilik davlatlariga xam yoyilgan.

Savdo karvonlarining xarakati xavfsiz emas edi. Misrdagi Yangi podshoxlik davri (eramizgacha XVI-XII asrlar)ning tarixiy yodgorliklari ot-ulovlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari xaqida xikoya kiladi. Kup mablag sarflanadigan kurikchilarni saklash kimmatga tushar va xamisha xam uzini oklamas edi. Shu sababli karvonni kuriklash sarf-xarajatlarini qoplash uchun maxsus yigimlar undirila boshlandi.

Feodallar tomonidan ularning mulki orqali utuvchi savdogarlardan undiriladigan soliklar xam bojning Qadimgi kurinishi edi. Keyinchalik ularni shaxarlar xam undirib ola boshladi, davlat paydo bulgandan keyin esa boj xazinani tuldirishning qulay vositasiga aylandi.

Ijtimoiy xayot murakkablashishi, shaxarlar rivojlanishi, davlat va siyosiy ustkurma paydo bo'lishi, savdo xajmi va intensivligi kengayishi davomida yigimlarning yangidan-yangi turlari, shu jumladan savdodan va yuk keltirishdan olinadigan yigimlar joriy etila boshlandi.

Eramizgacha III-II ming oraligida Ashshurning (Osuriya poytaxti) foydasiga uning Kichiq Osiyodagi mustamlakalaridan boj undirilgan.

Eramizgacha II ming yillik boshida deyarli butun Qadimgi dunyoning markaziga aylangan Vavilonda barcha tovarlar shaxarga olib kirilishida kuzdan kechirilar va ulardan boj undirilar edi.

Boj uzining asosiy funktsiyasi, fiskal funktsiyasini, ya'ni xazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliklar va yigimlar bilan birgalikda davlatning mustaxkamlanishiga kumaklashdi.

Davlat rivojlanishi barobarida bojlar xam rivojlandi, bojxona xizmatini tashkil etish shakllari va usullari takomillashdi.

Bojxona tarixining rossiyalik tadjikotchisi V.A.Tsimmerman eramizdan oldingi VI asrdan boshlab Afina axolisi donni Misrdan, Sitsiliyadan, keyinrok esa Shimoliy Koradengizbuyidan olganligini kayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shaxar-poselenielar Qadimgi Gretsiyaning tashqi savdosi uchun shunchalik muxim ediki, ulardan

tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmas edi. «Koradengizbuyi shaxarlari mato, qirol-yarog, vino, usimlik moyi evaziga greklar dondan tashqari balik, teri, qullar yetkazib berar edi».

Gretsiyaning uzida chetdan keltiriladigan tovarlardan olinadigan boj ular baxosining undan birini tashkil etardi. Biroq, vaqt o'tishi bilan afinaliklar mu'tadil bojlar savdoning rivojlanishiga kumaklashadi va kup daromad keltirish mumkin degan qarorga kelishdi. Shu sababli eramizdan oldingi IV asrda, Demosfen davrida boj tovar baxosining yigirma, ellik, xatto yuzdan bir qismigacha qisqardi. Ayrim buyumlar - qirol-yarog, xarbiy anjomlar - umuman boj tulashdan ozod etilgan. Afinaning barcha ittifoqchilari boj imtiyozlariga ega edi, ular uz tovarlari uchun baxosining yuzdan bir qismi, qaram shaxarlar yigirmadan bir qismi miqdorida boj tulashar edi.

Boj dengiz portlarida va shaxar bozorlarida yigilar edi. Quruqlikdagi bojxonalar xam mavjud edi. Bojxonalardagi operatsiyalar qushnilar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud bulgan takdirda chegaralar yopilganda tuxtatilar edi. Boj odatda oltin va kumush bilan tulnardi. Boj yigish ayrim shaxslar yoki guruxlarga kutara sotilar, ular obruli fukarolardan bulgan kafillarga ega bo'lishardi.

Misrda eramizdan oldingi IV asrda xukumat Aleksandriyaga ozik-ovkat keltirilishini va misrlik ustalarning buyumlari olib chiqib ketilishini kattik nazorat kilar edi. Chetdan keltiriladigan tovarlardan yigim Misrning shimolida - Aleksandriya va Pelusiyada, janubda-Elefantinada undirilardi, Germopolisda ichki bojxona mavjud bulgan.

Karfagenda eramizdan oldingi III asrda bojlar davlat daromadining shunchalik muxim manbai ediki, karfagenlik lashkarboshi Gannibal axoli jon boshidan ulpon olishni joriy etmasdan, quruqlikdagi va dengizdagi bojxonalarni va boj tizimini kayta tashkil etib barcha xarajatlarni qoplashi, Rim bilan muvaffakiyatli urush olib borishi mumkin edi. Biroq, bojlarga mukkadani ketish savdogarlarni bojxona qoidalarini chetlab o'tishga, kontrabanda xarakatlariga majbur etdi, bu xol natijada Karfagen iqtisodiyotini kuchsizlantirdi.

Kontrabanda - istalgan shaxar uchun xavfli xodisadir. V.A.Tsimmermanning fikricha, «Gretsiyaning turtib chiqib turgan burun va yarim orollar shaklidagi kirgoklarida shugullanish oson bulgan kontrabanda shunchalik uyushib va kupayib ketdiki, Attika chegaralarida fakat bojxona kurikchilari, kontrabandachilar va karokchilar yashar edi... Gretsiyaning bu xolati ... uning qulashining asosiy sabablaridan biri bo'ldi».

Qadimgi Rimda xam bojxona taxminan Gretsiyadagidek sxemada rivojlandi. Eramizdan olidingi VI asrda Rimga asos solinganda davlat daromadi axoli jon boshidan olinadigan uncha kup bulmagan solikdan iborat edi. Yuz yildan keyin podsho Ank Martsiy Ostiyada port ta'sis etdi va chetdan olib kiriladigan barcha tovarlar uchun boj tayinladi. Keyinrok ushbu boj (u portorium deb atalgan) xamda Rim, Ispaniya, Sitsiliya, Galliya va boshqa mamlakatlar urtasida muomalada bulgan tovarlar uchun soliklar davlat xazinasini daromadining asosiy manbaiga aylandi.

Rimda daryo, bozor, kuprik yigimlari bilan birgalikda chegara bojlari xam mavjud edi. Dastlab tovar qiymatining kirkdan biri, sungra undan biri miqdorida boj undirildi. Savdo va xazina manfaatlari kushib olib borilar edi. Bojxona uziga tuk odamlar va publikanlar deb ataluvchi suvoriylar tabaqasidan tuzilgan birlashmalar yigar edi.

Publikanlar belgilangan badal xazinaga topshirilgandan keyin xududdan utib borayotgan odamlarga nisbatan xaddan ortiq uzboshimchalik bilan munosabatda bo'lishar,

qirol-yarog, davlat mulki va yulda zarur bo'ladigan narsalardan tashqari qolgan barcha mol-mulkka boj solishar edi.

Tsitseron uz nutqlarida Vitiniya dengiz muzofotining sobiq rimlik noibini bojxona tusidagi suiiste'molliklari uchun, ya'ni Rim viloyatidan oltin va kumush olib chiqib ketilishga izn berganlikda, foydani bojxonachilar bilan bulib olishda, mol-mulkning uzboshimchalik bilan olib kuyilishida va utib borayotgan savdogarlarni xibsga olishda ayblagan edi. U nutqlaridan birida Rimning Sitsiliyadagi noibi Verras publikanlarni aldaganligini va Sirakuzadan kuplab oltin, kumush, fil suyagi, gilam, kimmatbaxo tuk kizil buyok, vaza, don va asalni gayriqonuniy tarzda olib chiqib ketganligini isbotlab beradi.

Miloddan oldingi I asrda imperator Neron I va miloddan oldingi III asrda Aleksandr Sever jangchilar va savdogarlarga xar xil imtiyozlar belgilab, tovarlarning ayrim turlariga bojlarni bekor qilib va pasaytirib, bojlar tugrisidagi qonunlarni umumning e'tibori uchun e'lon qilish majburiyatini yuklab publikanlarning faoliyatini Rim ma'murlari nazorati ostida tutib turishga urinishdi, biroq bu chora-tadbirlar vaziyatni tubdan uzgartira olmadi.

Rimdagi bojxona qoidalari ichki davlat masalasigina bulib kolmasdan, balki xalqaro xuquq mavzusi xam edi. Masalan, miloddan oldingi 509 va 348 yillarda Karfagen bilan tuzilgan sulx tugrisidagi traktatlarda karfagenlik va rimlik savdogarlarning moliyaviy xuquqlari xaqidagi qoidalar nazarda tutilgandi.

Old va Urta Osiyo xamda Shimoliy Afrika mamlakatlarida, shuningdek Vizantiya davlatida xunarmandchilik va savdo ayirboshlovi VII-VIII asrlardayok yuqori darajaga yetdi.

Boj yigimlari xazinani mustaxkamlashning muxim vositasi bulib qolgan xolda ba'zan savdoni tartibga solish va tovarlarni sotish uchun ishlab chiqarishni ragbatlantirishning qulay vositasiga aylandi.

Yangi asr boshida bojlarning mu'tadilligi Rim imperiyasida Xitoyning ipak mollari paydo bo'lishi imkonini berdi. Armanistondagi davlat xokimiyati III-IV asrlarda boj yordamida savdoga raxnamolik kilgani yaxshi ma'lum.

Yevropada shaxarlar xunarmandchilik va savdo markazlari sifatida X-XI asrlardan boshlab iqtisodiy, tashqi savdo va boj mustaqilligiga erisha boshladi.

Yevropaning feodal davlatlarida boj yiguvchilar yuqori mavkega ega edi. Franklarda 499 yilda ular kirol amaldorlariga tenglashtirilgan bulib, yepiskoplarva graflar bilan bir urinda turar edi. Buyuk Karlning kapituliga muvofiq bojxonachilar mansabdor shaxs - grafga buysunardilar. Graf ayni vaqtda katta bojxona amaldori xisoblangan.

2.2. Urta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi xalqaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan mustaxkam aloqadorlikda davom etdi. Xristianlikning xukmronlik qilishi Yevropada bojxona ishiga katta ta'sir kursatdi.

Masalan, Strasburgda 982 yilgi maqom bilan yepiskopga shaxarning turt yuqori amaldorini: mer, graf, bojxonachi va xazinachini tayinlash xuquqi berilgan edi.

Biroq keyinrok, 1249 yildayok Frayburg shaxrida bojxona amaldorlarini saylash va, agar lar uz vazifalariga vijdonan munosabatda bulmasalar, ularni lavozimdan bushatish xuquqi fukarolarning uziga berildi.

Agar ilk feodalizm davrida bojxonachilar imtiyozli oliy tabaqaga mansub bulgan bulsalar, keyinrok ushbu lavozim savdogarlar va xunarmandlar manfaatiga xizmat kiluvchi ijtimoiy lavozimga aylana bordi.

Strasburglik bojxonachilar vazifasiga, masalan, eng asosiy soliklarni undirish kirar edi, ayni vaqtda yarmarka yigimlarini kal'a boshligi sifatida grafning uzi undirar edi. Strasburg kupriklari graf va bojxonachilarning birgalikdagi mablaglari xisobiga saklangan. Garblik tarixchilar yigimlar xayriya maqsadlarida - yullarni yaxshilash va savdo karvonlarini kuriklash uchun belgilanar edi deb ta'kidlashadi.

Buyuk Karl agar ularga xech bir xizmat kursatilmasa, utib ketayotganlardan boj undirilishini ta'kiklagan edi.

1157 yilda savdogarlar imperator Fridrix I ga Bambergdan Maynning kuyilish joyigacha ulardan kuplab qonunga xilo soliklar undirilishidan, bu talon-taroj bilan teng ekanligidan shikoyat qilishadi. XIV asrda Reynda 64 ta bojxona zastavasi, Elbada - 35, Dunayda fakat Kuy) Avstriya Aning uzida 77 ta bojxona zastavasi Bor edi. Xatto daryoni kechib o'tish mumkin bulgan joylarda xam feodalla2 kuprik kurishar va bu kupriklardan utilgani uchun xak undirishar edi. Ba'zan savdogarlarning kemalaridan kuprik ostidan utilganligiga xak olish uchun daryoni arkon bilan tusishgan. Feodal yer mulklarida otlarning oyoklari va gildiraklari payxon kilgan yuldagi maysalar va yusinlar, daraxtlarni uzib olingan mevalar uchun boj undirilar edi.

Parijda XII asrda shaxarga olib kirishda barcha xorijiy tovarlardangina emas, balki boshqa frantsuz shaxarlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buyumlaridan, shuningdek movut va muynadan xam boj undirilar edi. Parmada 1211 yilgi maqomga kura shaxarga olib kiriladigan barcha jun maxsulotlar va movut magistrat tomonidan olib kuyilar va yondirib yuborilardi. Parlebergning 1239 yilgi poyabzal tsexi maqomida uzga shaxarlik xech kim etik sotishi yoki uni sotishga kuya olmasligi kursatilgan.

Konstantsada 1414 yilda shaxarga olib kirilgan movut yarmarka tugagandan keyin esa toy qilib urab olib chiqib ketilish belgilab kuyilgan. Yarmarkada movut olib kirilganda boj uning xammasi yoki bir qismi sotilishidan kat'i nazar, barcha tovardan undirilar edi. Gamburgda 158 yilgi maqom shaxardan tashqarida tayyorlangan tovar buyumlar yilning barcha faslida ulgurji sotilishi, chakanalab esa bir yilda fakat uch kun sotilishi mumkinligini nazarda tutgan.

Shaxarlar va knyazliklar urtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish tamoyili Yevropada XII-XIII asrlarda yetila boshladi. Boj siyosatida davlatning tashqi chegaralarida umumiy boj tizimini ishlab chiqishga intilish mustaxkamlandi. 1215 yilgi Angliya erkinliklar buyuk xartiyasida Angliyaga olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarga «juda ogir adolatsiz bojar tulanishi» tugrisida eslatma mavjud.

1275 yilda Angliya parlamenti kirol Eduard I ga import qilinadigan vinoga va eksport qilinadigan ingliz juniga boj belgilash xuquqini berdi.

Biroq, Yevropa davlatlarida bojxona markazlashuvi yana kup asrlar davom etda: Angliya bilan Shotlandiya urtasidagi bojxonalar 1707 yilda, Angliya bilan Irlandiya urtasidagi zastavalar esa fakat 1823 yilda yuk qilindi. Frantsiyada bojxona birligi 1790 yilda vujudga keldi, Avstriya esa uz bojxona siyosatini 1775-1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona jixatdan birlashishi esa 1842 yildan 1888 yilgacha davom etdi. Ichki davlat murakkabliklariga qaramay, savdogarlarning tashqi savdo aloqalari XV-XVIII asrlarda feodal Yevropa davlatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi.

Ilk merkantilizm yoki monetarizm davrida, XV-XVI asrlarda Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya, Frantsiyada ma'murlar jamiyat boyligining asosini pul tashkil etadi deb xisoblashar edi. Shu sababli davlatlar xazinaga pul jamlanishini kattik

ragbatlantiruvchi qoidalarini urnatib, tashqi savdoga faol aralashadilar. «Muomalada oltin va kumushning juda kam miqdorda bo'lishi ularning chetga olib chiqib ketilishiga olib keldi». Mamlakatning uz savdogarlariga kemalardan foydalanganlik uchun pul tulashning oldini olish uchun chet el kemalarida savdo qilish takiklanar edi: savdogarlar uz tovarlarini chet elda sotganlari takdirda tushumning bir qismini asl metallar va pul kurinishida uyga keltirish majburiyatini zimmalariga olishardi.

Xorijiy sadoglar omborlardan, bandargoxlardan, paromlardan foydalanganlik uchun pul bilan boj va yigimlar tulashga majbur edilar, Angliyada esa ajnabiylarga uzlari bilan olib kelgan butun pulni sarflash majburiyatini yuklovchi qonunlar qabul qilingan edi. Tovarlarini fakat kat'iy belgilab kuyilgan punktlardan olib o'tish nazarda tutilgan. XV asrda Angliyaning bojxona amaldorlari Genrix IV maqomi buyicha pullar, tangalar ajnabiylar tomonidan olib chiqib ketilmasligini nazorat qilishga majbur bulganlar.

Ilk merkantilizm davri bojlari fakat moliyaviy tusga ega bulib, tovarlarni olib kirishda xam, olib chiqishda xam undirilar edi.

XVI asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming, olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj 185 ming funt sterlingni tashkil etar edi. XIII-XV asrlarda xududidan savdogarlarning karvonlari Yevropaga utadigan Misrda boj tovar qiymatining salkam 15 foizini tashkil etdi, XV asrda esa ular 35 foizga yetdi va undan oshdi. Imtiyozli tarif fakat savdogarlar Pizadan yetkazib beradigan temir va yogochga (qiymatining 10 foizi) belilangan. Keyinrok Xindistonga Afrikani aylanib utadigan dengiz yuli ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Xurmuz va Adan dengiz portlari bosib olinishi tovarlarni Misr orqali olib o'tishga katta zarba berdi, bu umuman olganda mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir kursatdi, biroq bunda bojlarning xaddan ortiq ekanligi xam muayyan urin tutgandi.

Frantsiyada 1664 yilda boj yigimlarining fiskal axamiyati xali kuchli bulgan vaqtda boj tarifi tovarlarni keltirish buyicha 700 modda va olib chiqib ketish buyicha 900 moddadan iborat bulgan. Bu esa boj yigimi mayda-chuydasiga ishlab chiqilganligidan dalolat beradi.

Keyingi merkantilizm davrida, taxminan XVII asrdan boshlab mamlakat mustamlakalarni ezish evaziga: mustamlaka xom ashyosidan foydalanish, uning metropoliyada kayta ishlanib maxsulotga aylantirilishi, tovar buyumlarni chiqarish, olib chiqishning olib kirishdan ustunlik qilishi, savdo flotining kengayishi, ushbu operatsiyalardan xazinaga oldingiga qaraganda kuprok mablag tushishi xisobiga boyishi mumkin degan fikr ustunlik kila boshladi. Yangi yerlarning buysundirilishiga olib kelgan yangi keografik kashfiyotlar va mustamlakalarning fakat metropoliya bilan savdo qilish majburiyati boj siyosati faollashuviga kumaklashdi. Boj tariflari Yevropa davlatlariga va ularning mustamlakalariga boshqa mamlakatlarning tovarlarini olib kirishni takiklay boshladi, chunki bu narsa vatan sanoatining rivojlanishiga tuskinlik kilar edi. Shuningdek boshqa mamlakatlarning rakobatlashuvi sanoat tarmoklari rivojlanishi uchun foydalanishi mumkin bulgan xom ashyoning olib chiqib ketilishi takiklana boshlandi. Uz mamlakatidan tayyor buyumlarni olib chiqib ketuvchisavdogarlarga imtiyozli boj tariflari belgilangan.

Tovarni chetga olib chiqkanlik uchun (buning misoli keyinrok keltiriladi) mukofotlar joriy etish, tajribali ishchilarning mamlakatdan kuchib ketishi takiklanishi tugrisidagi qonunlar qabul qilinadi. Ba'zan, istisno tarikasida tayyor tovarlarni boshqa mamlakatlardan olib kirishga ruxsat berilardi, biroq bu metropoliyada pul kupayishiga olib

kelishi mumkinligi shart qilib kuyilardi, masalan, ushbu tovarlarni foydasi bilan uchinchi mamlakatlarga kayta sotish mumkin edi.

Agar ilk merkantilizm davrida savdo kapitali fakat savdo bilan shugullangan bulsa - pul savdogarlar tomonidan sotish uchun chet elga chiqariladigan tovarlarga kuyilgan va kuyilgan pul foyda bilan orkaga kaytgan bulsa, sunggi merkantilizm davrida savdo kapitali ishlab chiqarishni xam uzlashtirib oladi - pul fakat pul uchun emas, balki boshqa mamlakatlarning xom ashyosi uchun olib chiqiladigan tovarlarga kuyiladi, xom ashyo esa yangi tovarlar ishlab chiqarish uchun olib kiriladi, sungra bu tayyor maxsulotlarni chiqarishdan dastlabki tovarni pulga sotishdan kura kuprok foyda olinadi.

Garbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar rivojlanishi davomida Angliya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya, Shvetsiya, Frantsiyada Ost-Indiya, Angliya va Frantsiyada Vest-Indiya, Angliyada Rossiya bilan savdo qilish uchun Moskva kompaniyalari kabi kudratli savdo kompaniyalari paydo bo'ladi, savdoni sikib kuyuvchi ombor joylari bekor qilinadi.

XVII-XVIII asrlardagi kapitalistik davlatlarning boj siyosati savdo manfaatlarini ifodalab aktiv savdo balansini ta'minlashga qaratilgan bulib, ayni vaqtda fiskal tusga ega bulgan yuqori miqdordagi bojlardan importni cheklash uchun foydalanilar edi.

Sanoat kapitalizmi rivojlanishi davrida (XVIII asr oxiridan boshlab) boj siyosati yagona yuqori proteksionistik (xomiylik) bojlari yordamida milliy sanoat barpo etilishiga kumaklashdi.

XX asrdan boshlab boj siyosati vositalaridan iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish uchun sotish bozorlari ustidan monopoliya urnatish uchun kurashda foydalanila boshlandi. 30-40 yillarda kayta ishlab chiqarishning jaxon buxronlari munosabati bilan (1929-1933 va 1937-1938 yillar) bojxona siyosati xaddan tashqari proteksionistik tusga ega bo'ldi va olib kirish bojlari oshishida ifodalandi.

Garbiy Yevropa mamlakatlarining Ikkinchi jaxon urushidan keyingi dastlabki davrdagi bojxona siyosati bojxona tusiklarini zaiflashtirishga qaratildi, chunki ushbu mamlakatlar vayron bulgan xalq xujaligini tiklash uchun iste'mol tovarlari va asbob-uskunalariga kattik yetishmovchilikni uz boshidan kechirayotgan edi. Garbiy Yevropa mamlakatlarida tiklash davrining tugallanishi, sanoat ishlab chiqarishning usishi, milliy maxsulotni sotish bilan bog'liq kiyinchiliklar bir qancha tovarlarni import qilishda bojxona tusiklari kattiklashtirilishiga olib keldi.

Kanada 1974 yil dekabrda proteksionistik maqsadlarda AKSH dan gusht maxsulotlari keltirilishiga cheklash joriy kilganda, AKSH ushbu maxsulotlarning Kanadadan import qilinishiga kattik kvota belgilanadi, bu xol Kanada iqtisodiyotiga 100 million dollar zarar yetkazdi, AKSH kurgan zarar esa 10 baravar kam bo'ldi.

AKSH 1975 yilda eksport kiluvchi mamlakatlar tomonidan neft narxining oshirilishiga javoban Neft eksport kiluvchi mamlakatlar tashkiloti a'zosi bulgan davlatlarni tarif pereferentsiyalaridan maxrum kildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash manfaatlari, milliy iqtisodiyotni mustaxkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Ular aniq ifodalangan proteksionalistik tusga egadir. Masalan, olib kiriladigan mashina va asbob-uskunalar, kimyoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojar undiriladi. Kishlok xujaligi maxsulotlari, odatda bojsiz import qilinadi. Kiyim-bosh va uy-ruzgor buyumlariga oshirilgan stavkalar qullaniladi. Zeb-ziynat buyumlari va alkogolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj solinadi.

2.3. Markaziy Osiyoda bojxona ishi. Amir Temur raxnamoligi ostida tarkibiga soliklar va bojlarni undirish xam kiradigan moliyaviy-iqtisodiy tizimning puxta faoliyat kursatishi xar qanday tuzumda davlat mavjud bo'lishining iqtisodiy asosi xisoblanadi. Akademik B.Axmedovning fikriga kura bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda Qadim zamonlardan boshlab mavjud bulgan. Chunki kup ming yillab Sharkni Garb bilan boglagan Buyuk Ipak yuli Markaziy Osiyo xududidan utgan. Urtadengizidagi Suriyaning Antioxiya (yoki Antalya) porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Venetsiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga xizmat kilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yuli orqali Xitoy va Yaponiyaga yul olganlar.

Buyuk Ipak yuli orqali amalga oshiriladigan savdoga kaysidir darajada aloqador bulgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va makbul xolga keltirildi. Agar kaysidir davlat yoki shaxar bojxona qoidalarini kattiklashtirsa, bojlar va yigimlarni xaddan tashqari kupaytirsa, karvonlar ularni chetlab o'tishining yuli bor edi: bigina Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yulining bir necha shoxobchasi mavjud bulgan. Ushbu karvonlar chetlab utgan davlatlar esa anchagina daromaddan maxrum bo'lishar, chunki yullarda karvonlar muntazam katnar edi.

Buyuk Ipak yulidagi boj yigimlari xaqidagi dastlabki yozma eslatmalar VIII asrdagi arab manbalaridan ma'lum. Kup asrlar davomida boj miqdori uzgarishsiz bulib keldi. U tovar qiymatining 2 foizini tashkil etgan (Bunday boj XIX asrgacha saklanib koldi. Buxoro, Kukon va Xivadan Rossiyaga katnovchi karvonlardan 2,5 foiz miqdorida boj olinardi). Bu barchani koniktiruvchi makbul variant deyish mumkin. Karvonlar yulida kuplab davlatlar joylashgani xisobga olinsa, katta miqdordagi boj savdogarlarni xonavayron qilishi, bu bilan ushbu davlatlarni kafolatli daromaddan maxrum qilishi mumkin edi.

Ushbu daromadning xazina uchun axamiyatini tushungan xukmdorlar qulay yullar, obod karvonsaroylar kurishdi, karvonlarni xavf-xatardan kuriklash chora-tadbirlarini kurishdi. XIV-XV asrlarda Amir Temur oldingi yuz yilliklardagi oxiri yuk urushlar va kuchmanchilar boskinlari tufayli deyarli tuxtab qolgan Buyuk Ipak yulidagi xarakatni kayta tikladi.

XV asr boshida Amir Temur saroyida bulgan Kastiliyaning elchisi Ryui Gonzales de Klavixo uzining Samarkndga kilgan turt oylik sayoxatida «butun mamlakat Temur xukmronligi ostida tinch yashaydi», deb kayd etgan.

Temuriylar davrida ulkan saltanatda yullar ancha yaxshi xolatda saklangan. Yulning xar bir kunlik masofasida karvonsaroylar bulib, ularda savdogarlarni yarog osgan otlik kurikchilar otryadi kutib olar, ular savdogarlarni keyingi dam olish joyiga kuzatib kuyishga shay turishar edi.

«Ofisi» uzoq vaqt Sultoniyada bulgan vatikanlik arxiepiskop Ioann Amir Temur tomonidan savdogarlarga berilgan imtiyozlarni kayd kiladi: «Temur xorijiy savdogarlarga berilgan imtiyozlarni kayd kiladi: «Temur xorijiy savdogarlarga xayrixolik bilan munosabatda bular va butun saltanatida ularga qulay sharoitlar va xavfsizlikni yaratib bergan... Agar unga qarashli yerlarda kaysidir savdogarni tunashsa, usha yerning xukmdori savdogarga yukotgan narsasini ikki baravar qilib kaytarib berar, bundan tashqari ushbu summani Temurga besh baravar miqdorda tulardi».

Akademik B.Axmedov bu davrda fiskal tizimi, shu jumladan karvonlarni kuriklash xam zimmasiga kiradigan bojxona puxta ishlaganligini kayd kilar ekan, quyidagi misolni keltiradi. Bu vokea Boburning otasi temuriyzoda Umarshayx Andijonda xukmronlik kilgan davrda yuz beradi. Besh yuz kishilik ot-ulovli katta karvon kup yuk bilan Xitoydan kaytar edi. Togda yulovchilar kor buroniga yulikib, kalin kor ostida kolishadi. Fakat ikki kishi tirik koladi va Andijonga kelib yuz bergan faloqatdan xabar beradi. Umarshayx amri bilan karvon ortgan yuklar kor ostidan kavlab olandi va merosxurlar topilmaguncha ishonchli kuriklanadi. Merosxurlarni esa fakat Andijondan emas, butun Xuroson, Eron va Irokdan izlashga tugri keladi.

Amir Temur davrida, extimoliki undan xam ilgarirok ayrim boj imtiyozlari mavjud bulgan. Masalan, «kizil mol» bojdin ozod qilingan edi. Bunday tovarlar ularga ilova qilingan xujjatlar, ya'ni roxnomalar oddiy muxr bilan emas, balki shoxona kizil muxr bilan tasdiklanganligi bois «kizil mol» deb atalgan. Bu esa mollar xukmdorga in'om qilishga muljallanganligini anglatardi. Usha davr qoidalariga kura, sovgalardan boj undirilmagan.

Albatta, tuzuklarni buzish xam bulib turardi. Masalan, ayrim savdogarlar roxnomadan foydalanib «kizil yorlik»da kursatilgan moldan boshqa mollarga xam boj tulaslikka urinishar edi.

Ayrim xollarda karokchilar uzlarini boj yiguvchi qilib kursatishar edi. Bundan tashqari, Amir Temur saltanati parchalanib ketgandan keyin mayda davlatlarning xukmdorlari yoki ularga buysunuvchilar yuz yillab amal kilgan boj qoidalariga xilof ish to'tishar edi. 1621 yilda savdogarlar bilan safardosh bulgan moskvalik elchi Ivan Xoxlovning esdaliklarida kayd qilinishicha, daryo buyida savdogarlarni 60 chogli bojxonachilar tuxtatgan va 9 kuy, 2 ta ot, 100 botmon arpa berishni talab qilishgan.

Buxoro xonligi. Tarixchilarning guvoxlik berishicha, Markaziy Osiyoda yerdan xiroj va tanob, tovardan esa zakot undirilgan. Kur'onga muvofiq, xar bir musulmon mol-mulkning kirkdan bir qismini zakot kilar edi. Zakot shuningdek kelayotgan va ketayotgan xar bir karvondan xam undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlar xarakatini sergaklik bilan kuzatib turishardi. Shaxardan utadigan xar qanday savdogar zakot olinadigan saroyga tuxtab o'tishi shart bulgan. Bu yerda uning tovaridan 2,5 foizli yuoj undirilar edi. Bundan tashqari, savdogar xar bir tuya xisobiga yorlik yozilganligi uchun xam xak talagan. Bu yorlik tovar xonlikning qolgan barcha axoli yashaydigan joylaridan erkin o'tishiga kafolat berar edi. Xar bir mustaqil mulkda zakot undirilar edi. Amudaryoning janubiy kirgogida deyarli xar bir shaxar boj undirish xuquqini uzida saklab qolgan. Ular zakotni kupincha qonun buyicha emas, balki uz bilganricha belgilashardi. Afgonistonda esa 2,5 foiz emas balki 20 foiz miqdorida zakot undirilgan.

Kuchmanchilardan zakot naturada undirilardi. Xar kirk moldan bittasi zakot sifatida olingan. Zakotchi yikkan butun mol-mulk xonning xazinasiga kelib tushgan. Zakotchilarga savdo xuquqlari buyicha favqulodda xuquqlar berilgan edi. Ular davlat manfaatlariga asoslanib, tovarlarni olib kirish olib chiqishni ta'kiklashi va xatto bir oklovchi sabab bulsa, ularni musodara qilishi xam mumkin edi.

XIX asr oxirida bozor munosabatlari rivojlanishi bilan birgalikda bojxona siyosati yangi bozorlarni egallab olishga yordam beruvchi vositalardan biriga aylandi.

Buxoro xonligining katta qismini inglizlar uz nazorati ostida tutib turgan Afgoniston bilan chegarasida bojxonalar tashkil etildi. Ulkaning Afgoniston bilan savdo qilish uchun maxsus tashkil etilgan bojxona birlashmasiga kiruvchi boshqa tumanlaridan chiquvchi tovarlar mana shu bojxonadan utar edi. Afgoniston bilan savdo-sotikda fiskal maqsadni

kuzlamagan ushbu birlashma tovarlarining ayrim turlari mazkur mamlakatga olib kirilganligi uchun maxsus mukofotlar tayinlangan, shunday qilib, Peshovar va Kobul orqali Afgonistonning shimoliy qismiga va Badaxshonning tovarlari bilan rakobat qilish uchun qulay shart-sharoitlar sun'iy ravishda yaratilgan. Afgon bozorini qulga kiritish unchalik kiyin emasdek tuyulardi: yul yukligi sababli Afgonistonning Badaxshon viloyatiga, masalan, «ingliz mollari shunchalik oz miqdorda kelar ediki bu nafakat Badaxshonning uzida, balki saroy va Chebek orqali Rustak va Fayzobod shaxarlariga bu shaxarlardan inglizlar qul ostidagi yerlarga olib utiladigan ingliz tovarlariga nisbatan sifatli va arzon bulganligi uchun axoli yaxshi xarid kiladigan va boshqa tovarlar uchun maxalliy bozorlarni ochib kuyar edi».

Tovarlar (manufaktura, kerosin, gugurt, kand-shakar) kuzdan kechirish uchun Samarakand ombor bojxonasiga takdim etilishi kerak bulgan. Bu yerda tovarlarga maxsus tamgalar bosilar va tavarlar savdogarlar tomonidan Afgoniston-Buxoro chegarasida joylashgan Karki, Kalif, Chushkaguzar, Termiz, Ayvoj, Saroy va Chebekdagi chegara bojxonalari orqali olib utilardi. Bu yerda bojxonachilar tamga bosilgan joylarni kuzdan kechirishar, tamgani olib kuyishar va tovarni chet elga chiqarishar edi. Tovar xaqikatda Buxorodan tashqariga olib chiqib ketilganligining isboti xisoblangan tamga esa, bojxonachilar tomonidan Samarkandga kaytarilardi. Bu yerda tovarning egasi uziga tegishli mukofotni olgan.

Tovar uchun beriladigan mukofotning salmogi kuplab savdo firmalarini uziga jalb kilgan. Ular Samarkand, Buxoro, Karkida uz idoralarini tashkil etib, faoliyatlarini yildan-yilga rivojlantirishdi. Mana shu tufayli chegara bojxonalari orqali ip-gazlama tovarlar, shakar va kerosin kup miqdorda olib utila boshlandi.

Biroq bojxona birlashmasi uz maqsadiga tulik erishishga muvaffak bulmadi. Savdo jilovini uz qulida ushlab turgan buxorolik, afgonistonlik mayda savdogarlar mukofotlardan foydalanish imkoniyatidan maxrum edi. Ular gazlamani Buxoroning chegara shaxarlarida sotib olishar, biroq bunday mol qonunga kura Samarkand bojxonasining tamgasi bulmasa mukofotlanmas edi.

Buxoro bojxonalari xatto tamga kuyilgan tovarlardan xam boj yiguvchining xoxishiga va vijdoniga bog'liq miqdorlarda boj yigishardi. «... Bojgirlar xar bir joydan 4 dan 5 gacha rupiy (bir rupiy - 45 tiyin), amlokdorlar (uezd boshliklari) esa Amurayodan utganlik uchun 4-6 rupiy, ichiga xavo tuldirilgan xayvon terisidan yasalgan solni tortib boruvchi xar bir ot uchun bir tomonga o'tishdan 4-5 rupiy va xar bir odam olib utilganligi uchun aloxida 2 rupiy undirishgan».

Savdogarlar utadigan beklklarda xar bir tuya yoki otdan ulpon undirilardi, agar yul bir nechta beklkdan (Kitob, Shaxrisabz, Guzor, Xisor, Kurgontepa) o'tishi xisobga olinsa, ustama xarajatlar ancha sezilarli bular va beriladigan mukofotning yarmiga yoki xatto xammasiga teng bular edi.

Ma'lumki, Buxoro xukumati uz vaqtida Afgonistonga olib ketiladigan tovarlarni bojdan ozod qilish xaqida farmoyish chiqargan bulib, biroq bu farmoyish Buxoro devonxonasidan tashqariga chiqmadi.

Lekin shunga qaramay, bojxona birlashmasi davlat lar urtasidagi savdo aloqalari kengayishida uz axamiyatiga ega bo'ldi.

2.4. O'zbekistonda bojxona ishining tashkil bo'lish boskichlari. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi.

Turkiston okrugi ushaldan biri bo'ldi. Turkiston okrugidan 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895 yilda Termiz shaxrida Pattakesar bojxonasi tashkil etildi. Unda asosan Afgonistondan keltiriladigan tovarlardan boj undirilgan. Xar yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayoxatchi utardi. U paytlari Afgoniston xududi orqali Markaziy Osiyoga kuplab kontrabanda tovari xam utkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq Komissarligida 8 ta bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etilib, Turkiston okrugi shulardan biri edi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi Bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bulib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. Usha yili Termiz shaxridagi Pattakesar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilgandan keyin Bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirlik tarkibida koldi.

1986 yilda Bojxona bosh boshqarmasi SSSR Minstrlar Soveti xuzuridagi Davlat bojxona nazorati Bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Toshkent shaxri sobiq SSSR ning janubiy darvozasi xisoblanib, xorijdan uchib kelgan samolyotlar Toshkentda tuxtab utar edi. Yangi xavo yullari ochilishi munosabati bilan 1959 yil 14 aprelda Toshkent aeroportida Termiz bojxonasiga buysunuvchi bojxona posti tashkil etildi. Toshkent postida xammasi bulib 3 ta xodim ishlagan. Ularga V.N.Novikov raxbarlik kilardi. Yetmishinchi yillarda tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1998 yilda esa O'zbekiston Respublikasi bojxonasiga aylantirildi.

1988-89 yillarda Samarkand, Buxoro, Namangan, Andijon, Karshi, Guliston, Jizzax, Kukon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmalikda bojxona postlari ishga tushdi. 1990 yil oxiri va 1991 yil boshida Samarkand, Fargona va Nukus postlari bojxonalarga aylantirildi va O'zbekiston Respublikasi Bojxona boshqarmasiga buysundirildi.

U paytlari bojxona ishlari Moskvadan turib boshqarilar, barcha raxbar xodimlar markazdan tayinlanardi. Bojxona tomonidan musodara qilingan tovar-moddiy boyliklar va boj tushumlari Moskva ixtiyoriga yuborilgan.

Bojxona organlarining Respublikadavlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatida shakllanishi va faoliyat kursatishi O'zbekiston uz mustaqilligini qulga kiritgandan keyin boshlandi. Prezident va xukumatimiz bojxona xaqidagi qonunlarni rivojlantirishga aloxida axamiyat berdi. 1991 yil oktyabrdayok, ya'ni mustaqillik e'lon qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Bojxona kumitasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 10 avgustdagi Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi xuzuridagi Tovar moddiy boyliklar olib chiqib ketilishi ustidan nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan O'zbekiston Respublikasi Bojxona kumitasi negizida Davlat bojxona kumitasi tashkil etildi. 1277 kishidan iborat xodimlar shtati belgilandi. U.A.Abduganiev kumita raisi etib tayinlandi. Korakalpogiston Respublikasida, Toshkent shaxrida va viloyatlarda bojxona boshqarmalari tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi Farmoni bilan bojxona organlari vazifalari va funktsiyalari aniqlashtirilgandan keyin Bojxona kumitasi O'zbekiston Respublikasi Davlat solik kumitasining Bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. S.A.Alimboev DSK raisining urinbosari va Bojxona bosh boshqarmasi boshligi etib tayinlandi. 2024 kishidan iborat xodimlar shtati belgilandi. Korakalpogiston Respublikasi, Toshkent shaxri va viloyatlardagi bojxona boshqarmalari xizmatlarga

aylantirildi. Bozor munosabatlari urnatilishi va iqtisodiy aloqalarning jadal rivojlanishi shuni takozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasini tashkil etish tugrisida»gi 1997 yil 8 iyuldagi Farmoni Respublikaboixona ishi tarixidagi muxim xujjat bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, DSK ning Bojxona bosh boshqarmasi negizida Davlat bojxona kumitasi tuzildi. Tarixda birinchi marta bojxona organlariga xuquqni muxofaza qilish tashkiloti xuquqi berildi. Operativ-kidiruv ishlari o'tkazish imkoniyatining uzi bojxonachilar zimmasiga qanday mas'uliyat yuklanganligini kursatib turibdi. DBK xodimlari soni 3277 kishidan iborat etib belgilandi, shu jumladan markaziy apparat xodimlari 188 nafardir.

Vazirlar Maxkamasi tomonidan 1997 yil 30 iyulda qabul qilingan qarorda Davlat bojxona kumitasi xuzurida O'quv markazi tashkil etilishi xaqida suz boradi. Bu bojxona tarixidagi birinchi qaror bulib, bojxona kadrlarini tayyorlashda ushbu qarorning axamiyati katta.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarining paydo bo'lishi?
2. Urta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi?
3. Amir Temur davrida bojxona ishi tarixi?
4. Buxoro xonligi davrida bojxona ishi tarixi?
5. Mustaqillik davrida bojxona ishining tashkil qilinishi?
6. Patta xisor bojxona postining tarixi?
7. Ittifoq davridagi bojxona faoliyati?
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bojxona kumitasini tashkil etish tugrisida» gi farmonining qabul qilinishi?
9. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kumitasining shakllanishi?
10. Toshkent bojxona postining paydo bo'lishi?

MA'RUZA 3. UZBYEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA ISHINI TASHKIL ETISH.

Reja:

- 3.1. Bojxona organlari tizimida boshqarish jarayoni.
- 3.2. Davlat bojxona organlari vazifalari.
- 3.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi.
- 3.4. Bojxona kumitasining boshliklar tarkibi.
- 3.5. Davlat bojxona organlarining vakolatlari.
- 3.6. Davlat boshqaruv organlarida boshqarishning xuquqiy asoslari

Adabiyotlar: 1,2,3,5,8,10,14.

Tayanch iboralar: Bojxona kodeksi, bojxona organlari, davlat bojxona kumitasi, boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, boshqarishning xuquqiy asoslari, bojxona kumitasining funktsiyalari, bojxona organlarning vakolatlari.

3.1. Bojxona organlari tizimida boshqarish jarayoni 1997 yil O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi uchun burulish yili bo'ldi. Bojxona ishini takomillashtirish, uning xuquqiy negizini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish jarayoni uni tashkil etishga tizimli-tarkibiy, funktsional uzgarishlar kiritishni takozo etar edi. Shu sababli bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, Respublikabojxona organlarining tezkorligini xamda ular faoliyatining samaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustaxkamlashda ularning rolini kuchaytirish, shuningdek bojxona ishi soxasidagi xalqaro xamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasini tashkil etish tugrisida» 1997 yil 8 iyuldagi PF-1815 son farmoni chiqarildi.

Ushbu farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat solik kumitasi Bojxona bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat solik kumitasi tashkil qilinib, u bevosita O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasiga buysundirildi. Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxrida ishlab turgan bojxona xizmatlari negizida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasining xududiy boshqarmalari tuzildi.

Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining xuquqiy asoslari «Davlat bojxona xizmati tugrisida» 1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1997 yil 30 iyuldagi 374-son qarori bilan tasdiklangan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi tugrisidagi Nizom bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi, Davlat bojxona kumitasining Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxri buyicha boshqarmalari, iktisoslashtirilgan bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlari xisoblanadi.

Bojxona organlari uz faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasiga, «Davlat bojxona xizmati tugrisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, boshqa qonun xujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal kiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi (keyingi urinlarda – DBK deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasiga muvofiq davlat boshqaruvi organi xisoblanadi.

Davlat bojxona kumitasi uz vakolatlari doirasida yagona boj siyosati utkazilishini, bojxona ishlari tugrisidagi qonunchilikka rioya etiglishini, DBK organlari tizimining samarali faoliyat kursatishini ta'minlaydi.

Bojxona organlari qonunchilikka muvofiq uz faoliyatini joylardagi davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Bojxona bojxona kumitasi qonunchilikka muvofiq uz vakolatlari doirasida qabul kilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan kat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Bojxona organlari xuquqni muxofaza kiluvchi organlar xisoblanadi va davlat byudjeti mablaglaridan ta'minlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va uz nomi bitilgan muxrga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasining tuzilmasi va faoliyatini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1997 yil 30 iyuldagi 374-son qarorri bilan tasdiklangan.

3.2. Davlat bojxona organlari vazifalari. Davlat bojxona kumitasining funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

◆ yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining xuquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning amalda qullanilishini ta'minlash, bojxona ishi soxasida qonun xujjatlari va normativ xujjatlar loyixalari tayyorlanishida qatnashish;

◆ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va uz vakolatlari doirasida bojxona masalalari buyicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;

◆ respublikaning bojxona xududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi va inson xayoti salomatligi ximoya qilinishi, atrof muxit muxofazasi buyicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga kumaklashish;

◆ belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlash va uning shakllarini takomillashtirish;

◆ bojxona qonunchiligiga va uz vakolatlari doirasida – solik qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora- tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;

◆ bojxona tartibga solish vositalari qullanilishini ta'minlash, bojxona-tarif mexanizmi xam shu jumlagi kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari, litsenziyalash va deklaratsiya takdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibga qatnashish;

◆ bojlar, soliklar va boshqa tulovlar davlat byudjetiga uz vaqtida va tulik utkazilishini ta'minlash;

◆ uz vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;

◆ bojxona statistikasi uslubiyatini takomillashtirish, bojxona ishi soxasida statistika ma'lumotlari tuplanishi, ularga ishlov berilishi va taxlil qilinishini tashkil etish, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va tulov balansini mustaxkamlash buyicha prognoz xisob-kitoblarni amalga oshirish va takliflarni ishlab chiqish;

◆ bojxona ishi soxasidagi faoliyat tugrisida axborot tuplanishi va ishlov berilishining avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek bojxona statistika ma'lumotlarni tegishli idoralar va manfaatdor organlarga takdim etish;

◆ kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, uz vakolatlari doirasida solik qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barxam berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki xuquqni muxofaza qilish organlari bilan uzaro xamkorlikda ishlab chiqish va qullash, shuningdek xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro fukaro aviatsiyasi faoliyatiga gayriqonuniy aralashishga karshi kurashishga kumaklashish buyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qullash;

◆ bojxona organlari vakolatiga tegishli bulgan ishlar buyicha surishtiruvlar olib borish va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishi tugrisidagi ishlarni kurib chiqish;

◆ yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir kursatish choralarini belgilangan tartibda qullash;

◆ giyoxvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qirol-yarog respublikaning bojxona chegarasi orqali gayriqonuniy olib utililishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qullash;

◆ respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida yetkazilib berilishini amalga oshirish;

◆ Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan uzaro xamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor-kidiruv faoliyatini amalga oshirish;

◆ Aybdorlarni javobgarlikka tortish tugrisidagi masalani xal etishbojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqkanda qonun buzilishlari faktlari buyicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa organlarga topshirish; bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, bojxona olrganlari mansabdor shaxslarining xatti-xarakatlari va qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ktsrib chiqish;

◆ Bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funktsiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriyalar, o'quv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish;

◆ Bojxona organlari xodimlarini, shuningdek davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirilishi buyicha mutaxasislarni tayyorlash, kayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

◆ bojxona omborlari va erkin omborlar, bojsiz savdo dukonlari, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxona xududidan tashqarida, bojxona xududida yoki bojxona nazorati ostida ishlov berish ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek kontsunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab utilgan turlarini amalga oshirish xuquqiga ruxsatnomalar berish;

◆ xalqaro bojxona va savdo tashkiloti tashkilotlarida qatnashish, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shugullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlik qilish, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni uzaro ayirboshlash;

◆ bojxona organlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustaxkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tashqi savdo yuklarini bojxona rasmiylashtirilishi uchun punktlar tarmogini va bojxona infratuzilmasining boshqa ob'ektlarini kengaytirish xam shu jumlag kiradi;

DBK ning moddiy yordam, ijtimoiy ximoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va kuzda tutilmagan xarajatlar maxsus jamgarmasiga tushadigan mablaglari xisobiga Respublikabojxona ishini rivojlantirish chora-tadbirlarini mablag bilan ta'minlash.

Davlat bojxona kumitasiga qonun xujjatlariga binoan boshqa funktsiyalar xam yuklatilishi mumkin.

Bojxona tuzilmasi xar qanday tizimning samarali faoliyat kursatishi uchun muxim axamiyatga egadir.

3.3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi deganda mazkur davrda shakllangan va boshqaruv maqsadlariga muvofiq keluvchi tizimning bugimliligi, uning organlari urtasidagi aloqa shakllari tushuniladi.

Respublikabojxona organlarining tuzilmasi boshqaruvning turt darajali tizimidan iborat bulib, markaziy apparat (Davlat bojxona kumitasi) DBK ning Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxar boshqarmalari (DBKB), ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari (IBK) va bojxona postlarini uz ichiga oladi.

DBK markaziy apparati, DBKB, IBK yuridik shaxs xisoblanadilar, bank muassasalarida xisob-kitob, joriy va boshqa xisobvarakalariga, shu jumladan valyuta xisobvarakalariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va uz nomi yozilgan muxrga ega bo'ladilar.

Davlat boshqaruv organining tashkiliy tuzilmasi (ichki tuzilma) – uning xuquqiy va tashkiliy jixatdan nisbatan mustaqil va aloxida, uzaro bog'liq bulinmalarining jamida, ularning xar biri aloxida va ular barchasi birgalikda bojxona organlari vakolatiga kiruvchi vazifalar xal etilishini ta'minlaydi.

DBK ning raxbar buginini rais, raisning birinchi urinbosari, ikki urinbosar va rejim va kadrlar buyicha bir urinbosari, xay'at tashkil etadi.

DBK raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tayinlanadi va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida tasdiklanadi.

DBK raisining birinchi urinbosari va urinbosarlari, DBKB va IBK boshliklari DBK raisining takdimnomasiga kura O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan tayinlanadi.

Rais DBK ga boshchilik kiladi, uz urinbosarlari urtasida vazifalarni taksimlaydi. Davlat bojxona kumitasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va u uz funktsiyalarini amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi. U DBK organlari tizimiga umumiy raxbarlikni ta'minlaydi, DBK markaziy apparati, DBKB va IBK shtat jadvalini tasdiklaydi.

Rais bundan tashqari:

- ◆ DBK, DBKB va IBK tarkibiy bulinmalaritugrisidagi nizomlarni tasdiklaydi;
- ◆ zarurat bulganda DBK markaziy apparati, DBKB va IBK ning tasdiklangan tuzilmalariga belgilangan xodimlar soni va mexnatga xak tulash fondi doirasida uzgartirishlar kiritadi;
- ◆ bojxona organlarining kontrabanda, bojxona qonunchiligini buzish tugrisidagi ishlar buyicha surishtiruv olib boruvchi, bojxona qoidalari buzilishi tugrisidagi ishlarni olib boruvchi va ularni kurib chiquvchi mansabdor shaxslar ruyxatini belgilaydi;
- ◆ DBK mansabdor shaxslari, ishchi va xizmatchilarini ragbatlantirish va jazolash tugrisidagi qarorlar qabul qilinadi;
- ◆ uz vakolatlari doirasida bojxona organlarining mansabdor shaxslarga maxsus unvonlar beradi;
- ◆ uz vakolatlari doirasida buyruklar, yuriknomalar va normativ xujjatlar chiqadi, shu jumladan, mulkchilik shakllaridan kat'i nazar, barcha jismoniy va yuridik shaxslar bajarishi majburiy bulgan buyruklar, yuriknomalar va normativ xujjatlar chiqaradi, ularning bajarilishini tekshirishni tashkil etadi;
- ◆ bojxona organlarining urnak kursatgan xodimlarini va bojxona ishiga faol qatnashgan fukarolarni mukofotlash va O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini berish, kukrak nishonlari, faxriy yorliklar va ragbatlantirishning boshqa turlari bilan mukofotlash tugrisida takliflar kiritiladi;
- ◆ qonunchilik tomonidan uz vakolatiga kiritilgan boshqa masalalar buyicha qaror qabul kiladi.

DBK raisi yordamchi va kotibiyatga ega bo'ladi.

DBK raisining birinchi urinbosari kumitaning tashkiliy – inspektorlik boshqarmalari, xuquqiy boshqarmasi ishini yuritadi. Unga ommaviy axborot vositalari bilan aloqa boglash bulimi, Markaziy bojxona ekspert laboratoriyasi, Milliy kinologiya markazi bevosita buy sunadi.

DBK raisining urinbosarlaridan biri bojxona nazorati, bojlarni tariflar bilan tartibga solish va tulovlar, bojxona siyosati, taxlil va kompyuterlashtirish, valyuta nazoratini boshqarish bilan shugullanadi.

DBK raisi urinbosarlaridan ikkinchisi moliya-iqtisodiyot boshqarmasi, moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi, ashyoviy ta'minot, qirol-yarog va transport, kapital kurilish va bojxona ob'ektlaridan foydalanish, nazorat va aloqaning texnik vositalari uchun javob beradi.

DBK raisining rejim va kadarlar buyicha urinbosari kadrlar boshqarmasi, o'quv markazi, tashqi aloqalar departamenti va maxsus qism ishini boshqaradi.

DBK raisi bojxona organlari oldida kuyilgan vazifalarni tezkorlik bilan xal qilish maqsadida bir qancha vazifalarni uz urinbosarlari urtasida kayta taksimlashi mumkin.

Davlat bojxona kumitasi topshirilgan ish uchastkasidagi ishlarning axvoli uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini belgilagan xolda organlarning mazkur tizimiga raxbarlik qilishning barcha masalalarini muxokama qilish va xal etishda kollegiallik va yakka boshchilikni kushib olib borish asosida uz ishini tashkil etadi.

Kollegiallik organini shakllantirish tartibida, raxbarlikni tashkil etishda, raxbar buginlar urtasida vakolatlarni taksimlashda, ishning tashkiliy-xuquqiy shakllarida bojxona siyosatini amalga oshirishning muxim masalalarini xal etishiga da'vat etilgan kumitaning murakkab va kup kirrali faoliyatiga muvofiq keladigan qarorlar qabul qilinishi tartibida uz ifodasini topadi. Kollegiallik boshqaruvning kuplab organlari bilan bog'liq bulgan umumiy raxbarlik masalalarini xal etishda kuplab kishilarning tajribasi va bilimidan keng foydalanish imkonini beradi. Bu kollegial muxokama va ijodiy munozara jarayonida murakkab masalalar yuzasidan tugri qarorlar qabul qilinishi imkonini beradi. Kollegial ish topshirilgan ish uchastkalari uchun rais va xay'at a'zolarining shaxsiy javobgarligi bilan kushib olib boriladi.

SHu maqsadda Davlat bojxona Kumita raisi – Xay'at raisi, uning urinbosarlari va DBKning boshqa raxbar xodimlaridan iborat tukkiz kishidan iborat xay'at tashkil etiladi.

Xay'at a'zolarining shaxsiy tarkibi DBK Raisining takdimnomasiga kura O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan tasdiklanadi.

DBK Xay'atining ish tartibi uning raisi tomonidan belgilanadi.

Xay'at qarorlari DBK raisi buyruklari bilan amalga oshiriladi.

Xay'atning boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qabul qilingan qarorlari DBK raisi xamda tegishli vazirliklar va idoralar raxbarlarining kushma buyruklari bilan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish, ularni ilmiy, ijtimoiy va moddiy-texnik rivojlantirish, kadrlar bilan ta'minlash, boshqaruv qarorlari va tavsiyalarni kelishgan xolda ishlab chiqish uchun DBKda kengashlar va komissiyalar tashkil etiladi, ular tugrisidagi nizomlar DBK raisi tomonidan tasdiklanadi.

Orgarlar boshqaruv faoliyati xususiyatlari va xajmi ular apparatining tuzilmasida namoyon bo'ladi. Davlat kumitasi butun faoliyati natijalari kup jixatdan organning ichki tuzilishiga, uning ayrim qismlari tuzilishiga, vakolatlarning taksimlanishiga, tarkibiy bulinmalarga uzaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

DBK ning tarkibiy bulinmalari kumitaning ichki apparati xisoblanadi. Ularning faoliyati xilma-xil bulib, butun organ funktsiyasining uziga xosligiga bog'liqdir. Bu bulinmalar turli materiallarni tayyorlaydi, DBKga tegishli boshqa faoliyatni amalga oshiradi, jumladan, muvofiqlashtirish tusidagi funktsiyalarni bajaradi, maslaxatlar, xulosalar beradi, loyixalarni ekspertizadan utkazadi, kumita xujjatlari loyixalarini, xokimiyat boshqaruvining yuqori organlarga takliflarni tayyorlaydi.

SHu munosabat bilan ular xech bir kursatma berishga xakli emas. Ular tomonidan takliflar va yukriknomalar, uslubiy kursatmalar va boshqa me'yoriy xujjatlar loyixalari tayyorlanadi. Ular rais yoki kumita xay'ti tomonidan tasdiklangandan keyin kuchga kiradi. Biroq, ular ushbu bulinma vakolatiga kiruvchi masalalar buyicha bojxona siyosatining ayrim masalalarini maslaxatlashish va ishga chakirish uchun ilmiy-tadkikot institutlari, tashkilotlar, davlat boshqaruvi boshqa organlarining mutaxasislarini jalb qilishlari, boshqarmalar (bulimlar) vakolatiga kiruvchi masalalar buyicha kengashlar chakirishlari va o'tkazishlari mumkin, ushbu kengashlarda qatnashishuchun vazirliklar, davlat kumitalari va idoralarning vakillarini jalb qilishlari, ulardan ushbu boshqarmalar va bulimlar uchun zarur barcha materiallarni olishlari mumkin.

Davlat bojxona kumitasi markaziy apparatidan tashqari Davlat bojxona kumitasining Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri buyicha boshqarmalari va ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari apparati mavjud bulib, ular xam uz tuzilmasiga ega. Mazkur tuzilma ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi boshligi, DBKB boshligining birinchi urinbosari, DBKB boshligining ikki urinbosaridan iboratdir.

DBKB boshligi umumiy raxbarlikdan tashqari bojxona organlari xavfsizligi xizmati, kotibiyat, kadrlar bulimi, yuridik xizmat, navbatchi qism xizmati, ommaviy axborot vositalari bilan aloqa guruxi ishini yuritadi.

DBKB boshligining birinchi urinbosariga bojxona nazoratini tashkil etish, bojxona tulovlari, bojxona statistikasi va taxlil bulimlari bevosita buysunadi.

DBKB boshligining urinbosarlaridan biri kontrabandaga va bojxona qoidalari buzilishlariga karshi kurashish, bojxona tekshirishlari, valyuta nazorati bulimlari ishi uchun javob beradi.

Bojxona ekspert laboratoriyasi xam unga buysunadi.

Boshqa urinbosar buxgalteriya xisobi va nazorat, moddiy-texnika ta'minoti, ashyoviy ta'minot, qirol-aslaxalar va transport, kapital kurilish va bojxona ob'ektlaridan foydalanish, nazorat va aloqaning texnik vositalari bulimlari ishiga bevosita raxbarlik kiladi.

Bojxona kumitasining Korakalpogiston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shaxar boshqarmalari bojxona komplekslari va postlari:

- ◆ bojxona kompleksi (posti) boshligi;
- ◆ bojxona kompleksi (posti) boshligining urinbosari – navbatchilar boshligi;
- ◆ kontrabandaga va bojxona qoidalari buzilishlariga karshi kurashish guruxi;
- ◆ bojxona nazoratini tashkil etish guruxi;
- ◆ bojxona tulovlari guruxi;
- ◆ bojxona statistikasi va taxlil guruxi;
- ◆ ekspert;
- ◆ kinolog;
- ◆ tezkor guruxdan iborat bo'ladi.

Bojxona xaqidagi qonunlar buzilishi xaqidagi ishlar buyicha davlat bojxona organlari surishtiruv organlari xisoblanadi. Ushbu norma qonunchilikda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 38-«Surishtiruv organlari» moddasida mustaxkamlangan. Qonunchilik bojxona tekshirishlari bulinmasini surishtiruv organlari sirasiga kiritadi. Bu ularda jinoiy ishlar kuzgash va uz vakolatlari doirasida tergov olib borish xuquqi mavjudligini anglatadi.

Bojxona organlari xodimlari prokuratura, sud va militsiya xodimlari singari davlat xokimiyati vakillari xisoblanadi. Ular Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslari normalariga amal qilib, bojxona organlari vakolatiga kiritilgan xuquqbuzarliklar buyicha zarur tezkor-kidiruv choralari o'tkazishga, jinoyat belgilari mavjud bulgan takdirda jinoiy ish kuzgashga surishtiruv olib borishga xaklidirlar.

Bojxona organlari qonuniylikka rioya kilgan xamda fukarolarning xuquqlari va erkinliklari buzilishiga yul kuymagan xolda fakat bojxona jinoyatlarini aniqlash maqsadida tezkor-kidiruv ishini yuritishga vakolatli ekanligini aloxida ta'kidlash lozim. Bunda boshqa jinoyatlarning aniqlanishi axborotni ushbu jinoyatlarni tekshirish vakolatiga kiradigan xuquqni muxofaza qilish organlariga berishga olib keladi.

Davlat boshqaruvi vazifalarining murakkablashuvi va bojxona organlari tizimi faoliyati samaradorligi kuyilgan talablarning oshishi ularning boshqaruv faoliyatiga asosli makbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va samarali nazorat qilish uchun tobora oshib borayotgan xajmlar va sur'atlardagi axborotni tuplash, kayta ishlash va ulardan foydalanish imkonini beruvchi xisoblash texnikasini joriy etishni takozo etdi.

Davlat bojxona kumitasi eng sermexnat jarayonlarni avtomatlashtirish, bojxona axborotini qabul qilish, kayta ishlash, berish va saklash maqsadida bojxona jinoyatlari, tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari – yuridik va jismoniy shaxslar tugrisidagi ma'lumotlarni ishlashning yagona kompyuterlashgan tizimini yaratish va undan foydalanish buyicha katta ish olib bormokda.

SHuni aloxida kayd etish zarurki, bojxona organlari davlat boshqaruvining boshqa barcha organlari kabi asosiy sa'y-xarakatlarni ichki tashkiliy vazifalarni xal etishgagina qaratib kolmasdan, balki uzi nazorat kiladigan, muvofiqlashtiradigan, ish olib boradigan soxada ijobiy uzgarishlarga erishishga xam yunaltiradi.

Aytib utilgan yunalishlarning xar birini amalga oshirish turli ilmiy bilimlardan va davlat boshqaruvi amaliyoti tomonidan tuplangan ilgor tajribadan keng foydalanishni takozo etadi. Sotsiologiya, psixologiya, boshqaruv ilmi xuquqiy fanlar bilan birgalikda bojxona organlarida boshqaruvni tashkil etishda muxim rol uynaydi.

3.4. Bojxona kumitasining boshliklar tarkibi. Davlat bojxona kumitasining kadrlarini mansabdor shaxslar, ishchi va xizmatchilar tashkil etadi. Mansabdor shaxslarga bojxona organlarida shtatdagi lavozimni egallab turgan, boshliklar tarkibi maxsus unvonlari berilgan shaxslar kiradi.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslarga boshliklar tarkibining quyidagi maxsus unvonlari beriladi:

kichiq boshliklar tarkibi:
bojxona xizmati starshinasi;
urta boshliklar tarkibi:
bojxona xizmati kichiq leytenanti;
bojxona xizmati leytenanti;
bojxona xizmati katta leytenanti;
bojxona xizmati kapitani;
katta boshliklar tarkibi:
bojxona xizmati mayori;
bojxona xizmati podpolkovnigi;
bojxona xizmati polkovnigi;
yuqori boshliklar tarkibi:
bojxona xizmati general-mayori;
bojxona xizmati general-leytendant;
bojxona xizmati general-polkovnigi.

♦ Bojxona organlari mansabdor shaxslariga maxsus unvonlar berish yoki bu unvonlardan maxrum qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekiston Respublikasining bojxona organlarida xizmatni utash xaqidagi vaqtinchalik nizomni tasdiklash tugrisida» 1998 yil 4 apreldagi 146-son qaroriga muvofiq belgilanadi. Ushbu qaror bilan shuningdek bojxona organlari mansabdor shaxslari maxsus unvonlarining xizmat muddati xam belgilangan.

♦ Bojxona organlarining maxsus unvonlari, bojxona xizmati polkovnigi xam shu jumlagacha kiradi, DBK raisi tomonidan beriladi, bojxona xizmati general-polkovnigigacha boshliklar tarkibi maxsus unvonlari DBK raisi takdimnomasiga kura O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan beriladi.

♦ Bojxona organlari mansabdor shaxslariga shaxsiy tartib raqamlari va xizmat guvohnomalari xamda Davlat bojxona kumitasi tomonidan belgilangan namunadagi jetonlar beriladi.

♦ Bojxona organlari boshliklar tarkibi lavozimiga tayinlangan xarbiy xizmatga majburlar xarbiy xisobdan belgilangan tartibda chiqadilar va Davlat bojxona kumitasida maxsus xisobga turadilar.

♦ Bojxona organlarining mansabdor shaxslari byudjet mablaglari va qonunchilikda belgilangan boshqa manbalar xisobiga majburiy shaxsiy sugurta qilinishi kerak.

♦ Bojxona organlarining mansabdor shaxslari uchun belgilangan barcha xuquq va imtiyozlar, shu jumladan mansab maoshlari, maxsus unvonlar va muddatli xizmati uchun ustamalar, boshqa tulovlar va ijtimoiy ximoyaning

uzga shartlari, shaxsiy va mulkiy xuquqlarni kuriklash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 4 apreldagi 146-son qaroriga muvofiq belgilangan.

◆ Bojxona organlarining mansabdor shaxslari belgilangan normalarga muvofiq formalı kiyim bilan tekin ta'minlanadi.

◆ Bojxona organlari mansabdor shaxslarini ragbatlantirish va ularga tanbexlar berish shartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 27 martdagi 135-son qarori bilan tasdiklangan O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining Intizomiy ustavi bilan belgilanadi.

◆ Bojxona organlarining mansabdor shaxslari tegishli vazirliklar va idoralarning roziligi buyicha Davlat bojxona kumitasining qarorlari bilan Qirolli Kuchlarga, Milliy xavfsizlik xizmati kushinlari va organlariga, Favqulodda vaziyatlar vazirligiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etiladigan xarbiylashtirilgan tuzilmalarga, ichki kushinlarga, shuningdek ichki ishlar organlariga utkazilishi va ular shaxsiy tartibda xaqikiy xarbiy xizmatga yoki xizmatni bundan keyin davom ettirishga yuborishlari munosabati bilan kayta utkazilishi mumkin.

◆ Prokuratura organlari tergovchilarini tergov va surishtiruv bilan bog'liq bojxona organlariga ishga o'tkazishda xam ana shunday tartib qullanilishi mumkin.

◆ DBK ishchi va xizmatchilari mexnat sharoitlari O'zbekiston Respublikasining mexnat tugrisidagi qonunlari bilan tartibga solinadi.

◆

◆ 3.5. Davlat bojxona organlarining vakolatlari. Davlat organlari tizimida uning axamiyatini belgilovchi organ xuquqiy xolatining asosiy elementi uning vakolatlari (kompetentsiyasi) (lotincha *competentia* - yuritish, kobiliyat, xuquq buyicha egalik) xisoblanadi. Suzning ikki ma'nosi bor: mazkur shaxs muayyan bilimlarga ega bulgan masalalar doirasi va vakolatlari (xuquq majburiyatlari) doirasi.

◆ Boshqaruv organlarining butun faoliyati, barcha tashkiliy munosabatlar va xuquqiy munosabatlar organlar tomonidan uz vakolatlari amalga oshirilishi natijasi sifatida amal kiladi. Organning vakolatida boshqaruvni irodaviy saklab turish kuprok namoyon bo'ladi. Davlat boshqaruv organining vakolatini xuquqiy normalar chiqarish yuli bilan belgilar ekan, istagan soxada ushbu organining vakolatini xuquqiy normalar chiqarish yuli bilan belgilar ekan, istagan soxada ushbu organning xatti-xarakatini chegarasini belgilaydi.

◆ Davlat bojxona organining vakolatlari qonunchilik tomonidan shakllantiriladi.

◆ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasini tashkil etish tugrisida» 1997 yil 8 iyuldagi PF-1815-son Farmoni, «Davlat bojxona xizmati tugrisida» 1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997 yil 30 iyuldagi 374-son qarori bilan tasdiklangan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona kumitasi va uning organlari vakolatlarini belgilab beruvchi asos buluvchi xujjatlar xisoblanadi.

Davlat bojxona kumitasi tugrisidagi nizom birinchi navbatda organning asosiy vazifalarini, uning funktsiyalarini va xuquqlarini belgilab beradi. Quyidagilar Davlat bojxona kumitasi organlarining asosiy vazifalari xisoblanadi:

◆ respublikaning iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

◆ Respublikaboij siyosati tshlab chiqilishi va amalga oshirilishida qatnashish;

◆ boj qonunlariga rioya qilinishi ustidan nazorat urnatish;

◆ boj ishlarini amalga oshirishda fukarolarning, shuningdek yuridik shaxslarning xuquq va manfaatlarini ximoya qilish;

◆ respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishiga kumaklashish;

◆ xorijiy davlatlarning bojxona organlari bojxona ishi masalalari bilan shugullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlik qilish, xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish;

◆ O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash;

◆ boijlar, soliklar va boshqa boj tulovlarini undirish;

◆ respublikaning boshqa davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, valyuta-moliyaviy munosabatlarini boj tariflari asosida tartibga solish vositalarini ishlab chiqish va samarali qullash;

◆ O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali utadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash;

◆ respublikaning bojxona chegarasi orqali tovar oborotini jadallashtirishga kumaklashuvchi shart-sharoitlar yaratish;

◆ kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga karshi kurashish, respublikaning bojxona chegarasi orqali giyoxvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qirol-yarog, valyuta boyliklari, milliy boylik xisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk ob'ektlari gayriqonuniy olib utilishining olidini olish;

◆ bojxona statistikasi va maxsus bojxona xisoboti tizimini yuritish, O'zbekiston Respublikasi Xukumatini, manfaatdor vazirliklar idoralarni bojxona ishiga tegishli masalalar buyicha axborot bilan ta'minlash;

◆ bojxona ishi soxasidagi faoliyat tugrisidagi axborotni tuplash va uni ishlashning avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

◆ tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasining yuritish;

◆ kadrlar tugri tanlanishi va joy-joyiga kuyilishini, DBK organlari shaxsiy tarkibi xizmat tayyorgarligi va intizomi yuqori darajada bo'lishini ta'minlash, davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirishi buyicha mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

◆ bojxona brokerlari, bojxona tashuvchilari faoliyati, bojxona omborlar va erkin omborlar, bojsiz savdo dukonlari ishi, tovarlarga bojxona xududidan tashqarida bojxona xududida va bojxona nazorati ostida kayta ishlov berilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

◆ bojxona ishi soxasida ilmiy-tadkikot ishlarini va maslaxatlar berilishini tashkil etish;

◆ bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va rivojlantirish, bojxona atrofi infratuzilmasining rivojlanishiga kumaklashish;

◆ O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tuzilgan xalqaro shartnomalar va bitimlar bilan belgilanadigan boshqa vazifalar.

Organ vakolatlarining elementi sifatida organning funktsiyasi deganda aloxida va mustaqil tusdagi boshqaruv faoliyatining bir qismini tushunish qabul qilingan. Maqomiga kura organ faoliyatining majburiy yunalishi sifatida ajratib kursatilgan va ifodalangan boshqaruv organini funktsiyasi uning vakolatlarining yuridik elementiga aylanadi. Ayna davlat organi funktsiyasi boshqaruvning mazkur organi nima qilishi kerakligini kursatadi.

Xuquq va majburiyatlar urtasidagi tafovut ularning amalga oshirilishi xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Xuquq u yoki bu masalalarni xal qilishda davlat organiga tashlash erkinligini beradi. Majburiyatlar organ xatti-xarakatlarini kat'iy tartibga soladi, ularni amalga oshirish shartlari esa qonunda aniq bulgilab kuyilgan bo'lishi kerak.

Amaldagi qonun jixatlariga muvofiq bojxona organlari:

◆ yagona davlat bojxona siyosatini ruyobga chiqarishda ishtirok etishga;

◆ bojxona xaqidagi qonun xujjatlariga rioya etilishi, bojlar tugri xisoblanishi, tulik va uz vaqtida tulanishini nazorat qilishga;

◆ davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saklash, fukarolar xayoti va sogligini ximoya qilish, atrof muxitni muxofaza etish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga kumaklashishga;

♦ bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini qullanish buyicha belgilangan tartibda uslubiy kursatmalar va normativ xujjatlar ishlab chiqish xamda ularni nashr etishga;

♦ yuridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o'tish xamda bojxona chegarasidan o'tish vaqtidagi xuquqlari va majburiyatlari tugrisda uz vaqtida xabardor qilishga;

♦ faoliyat turlari bilan shugullanish xuquqini beradigan maxsus ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) qonun xujjatlarida belgilangan tartibda berishga;

♦ uz xizmat vazifalarini bajarilishi natijasida uzlariga ma'lum bulib qolgan davlat siri va tijorat siri xisoblanilgan axborotni oshkor etmaslikka majburdirlar.

Bojxona organlari qonun xujjatlarida nazoratda tutilgan boshqa vazifalarni xam bajaradilar.

SHunday qilib, boshqaruv organi faoliyatining sanab utilgan elementlaridan xar biri uning xuquqiy maqomini oydinlashtiradi. Vazifalar faoliyatining umumiy yunalishlarini va uning maqsadlarini kursatadi; funktsiyalar organ ushbu vazifalarni bajarish uchun aniq nima qilishi kerakligini belgilab beradi, xuquqlar - u uz majburiyatlarini qanday xajmda bajarishi mumkinligini kursatadi.

♦ **3.6.** Davlat organining xuquqiy vakolatiga funktsiya va vakolatlaridan tashqari, yana vazifalarning xam kiritilishi davlat organining faoliyati odatda xajmiga kura unga biriktirilgan xuquq va majburiyatlardan tengligi bilan belshilanadi.

♦ SHunday qilib: boshqaruv organining xuquqiy vakolatini tashkil etuvchi elementlar uning vazifalari, funktsiyalari, xuquq va majburiyatlari xisoblanadi.

♦ **Nazorat** Davlat bojxona kumitasi faoliyatida muxim element xisoblanadi. **Nazorat** - vazifasi boshqariladigan ob'ektlari xaqikiy xolati va faoliyatining muayyan xolatiga, axvolga muvofiqligini (nomuvofiqligi) kursatish sifatida belgilangan funktsiyadir.

♦ Idora ustidan nazorat aloxida axamiyatga ega bo'ladi, u davlat boshqaruvi organlari, korxonalar tashkilotlar va muassasalar ishini xolisona tekshrishga va ularning faoliyati jarayonida normativ xujjatlar ijrosini nazorat qilishga da'vat etilgandir.

♦ Davlat kumitasi kupincha mana shunday nazoratning asosiy tashkiliy shakllaridan biri xisoblanadi.

Vazifalarni amalga oshirishda barcha davlat kumitalarining funktsiyalari va maxsus xuquqlari xajmi bir xil emas, biroq umumiy elementlar funktsiyalarining tarmoklararo bir xil mazmuni maxsus davlat organlari sifatida ularning roli xaqida tasavvur beradi va davlat kumitalarining ularga buysunmagan davlat kumitalari, vazirliklar va boshqaruvlar boshqa sub'ektlari bilan uzaro munosabatlarida ular uchun umumiy bulgan xuquqlar guruxini ajratib kursatish imkonini beradi. Xuquq vakolatlarini ushbu gurux davlat kumitalari tugrisidagi barcha nizomlarda, shu jumladan Davlat bojona kumitasi tugrisidagi Nizomda maxsus biriktiriladi. Ular quyidagi xuquqlar biriktirilishida ifodalanadi:

- ◆ vazirliklar, idoralar maxalliy xokimiyat organlaridan, O'zbekiston Respublikasi xududida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan (mulkchilik shakllari va idoraviy buysunishdan kat'i nazar) bojxona ishi (nazorati)ni amalga oshirish uchun zarur bulgan ma'lumotlar, materiallar va xujjatlarni surash va olish;

- ◆ bojxona nazoratini amalga oshirishga kumaklashish uchun mutaxassislar va ekspertlar jalb qilish;

- ◆ kumita vakolatiga kiritilgan masalalar buyicha boshqaruvni tegishli organlar, korxonalar, tashkilot va muassasalar vakillarini axborot va ma'lumotlarini eshitish;

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini takomillashtirishga doir takliflarni O'zbekiston Respublikasi Xukumatiga kiritish.

Davlat kumitasi bojxona xuquqlarining uziga xosligi quyidagi xuquqlarda aks ettirilgan.

- ◆ bojxona xuquq buzishlarini aniqlashning texnik va maxsus vositalarini qullash;

- ◆ bojxona organlari vakolatiga tegishli bulgan ishlar buyicha surishtiruv olib borish;

- ◆ bojxona qoidalari buzilishi tugrisidagi ishlarni yuritish, bunday ishlarni kurib chiqish xamda yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan bojxona qonunchiligi buzilganligi uchun ta'sir kursatish choralarini qullash, ularni olidini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qullash;

- ◆ tezkor-kidiruv faoliyatini amalga oshirish;

- ◆ bojxona nazoratidan utkazilishi kerak bulgan tovarlar va transport vositalari kuzdan kechirilishi (kayta kuzdan kechirilishi)ni xamda ularga xujjatlar takdim etilishini talab etish; tovarlar va transport vositalarini kuzdan kechirish (kayta kuzdan kechirilishi), yetarlicha asoslar mavjud bulganda esa - jismoniy shaxslarni shaxsiy kuzdan kechirish;

♦ bevosita bojxona xuquq buzilishlari buyumlari xisoblangan tovarlar, transport vositalari va boshqa buyumlarni ushlash va olib kuyish;

♦ transpor vositalarini majburan tuxtatish, O'zbekiston Respublikasi boj xuquqini bojxona organlarini ruxsatsiz tark etgan dengiz, daryo va xavo kemalarini kaytarish;

♦ plombalarni ochish, bagajniklar, yuk bulmalari, transport vositalari kuzovlari, konteynerlar va boshqa transport tarasini tamba kurilmalarini ochish;

♦ mulkchilik shakllaridan kat'i nazar yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona nazoratidan o'tishi kerak bulgan tovarlari va transport vositalari turgan xududiga va binolariga tusiksiz kirish shuningdek nazorat qilish bojxona organiga yuklangan faoliyatni amalga oshirish;

♦ tovarlar va boshqa buyumlar probalari va namunalarini olib kuyish, ularni tadkik (ekspertiza) qilish;

♦ shaxsdan uning vakolatlarini tasdiklovchi xujjatlarni talab qilish;

♦ xujalik yurituvchi sub'ektlarning xisob-kitob varaklaridan bojxona tulovlari va (yoki) jazo jarimalari suzsiz tartibda utkazilishi tugrisida bojxona tulovlari va (yoki) joza jarimalari byudjetdan xujalik yurituvchi sub'ektlar xisob varagiga kaytarilishi tugrisda banklarga va boshqa moliya-kredit muassasalariga belgilangan tartibda topshiriklar berish;

♦ kursatib utilgan topshirik kechiqtirilgan yoki bajarilmagan xar bir kun uchun utkazilishi yoki kaytarilishi kerak bulgan bojxona tulovlari va yoki jazo jarimalari summasidan banklardan yoki boshqa moliya-kredit muassasalaridan, shuningdek xujalik sub'ektlaridan bojxona tulovlari va (yoki) jazo jarimalari tulash muddati kechiqtirib yuborilgan kun uchun belgilangan tartibda 0,5 foiz miqdorida penya undirish;

♦ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan xolda bojxona yegimlari stavkalarini belgilash;

♦ bojxona omborlari va erkin omborlarni, bojsiz savdo dukonlarini ochish, bojxona xududidan tashqarida, bojxona xududida yoki bojxona nazorati ostida tovarlarni kayta ishlash xuquqiga ruxsatnomalar berish, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilari sifatidagi faoliyatni amalga oshirish;

♦ tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tuxtatish tugrisida belgilangan tartibda sabablari kursatilgan takdimnoma kiritish;

♦ uz vakolatlari doirasida bojxona nazorati ostidagi tovarlarni ruyxatdan o'tkazish (inventarlash) va tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarining moliya-xujalik faoliyatini tekshirish.

Kumita uz vazifalarini bajarishda foydalaniladigan muxim vositalar orasida xuquqiy tartibga solish shakli ajralib turadi. Davlat bojxona kumitasi ishtirokida paydo bo'ladigan xuquqiy tartibga solish shakli xilma-xildir, biroq qonun xujjatlari bilan nazarda tutilgan turlicha shakllarda xuquqiy xujjatlar yaratilishi ularning eng muximi xisoblanadi. Normativ xujjatlar ishlab chiqilishi Nizomda maxsus belgilangan asosiy (va ayni vaqtda barcha davlat kumitalari uchun umumiy bulgan) funktsiyalardan biridir. Nizomda

normalarni ishlab chiqish vakolatlari chegaralari, shuningdek uning shakllari - kelishuvi buyicha birshalikdagi xujjat, xujjatni qabul qilishga bulgan mutlok xuquq belgilanadi va, bundan tashqari, xujjatlar yullangan organlar va muassasalar ijro etishi majburiy bulgan xujjatlar chiqarishga bulgan xuquq maxsus kayd qilinadi. Davlat bojxona kumitasini norma ishlab chiqarishga doir xuquqiy vakolatining katta xajmida ekanligi uning faoliyati soxasi bilan belgilanadi va tarmoklararo boshqaruvning asosiy funktsiyasi sifatida xamda uning asosiy faoliyatini xuquqiy shakli sifatida, bunda tashkiliy vositalarga qaraganda boshqaruvga sezilarli darajada katta ish xajmi bilan shugullanuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu bilan davlat kumitalari uz tarmogi tashqarisida bajarilishi majburiy bulgan idoralararo xujjatlarni ular xam chiqarishi mumkin bulgan vazirliklardan fark kiladi.

Bunda normativ xujjatlarning majburligini xisobga olgan xolda ular davlat kumitalari uz boshqaruv faoliyatini uz xukmini yurgizgan xolda amalga oshirishining mazmuniga aylandi.

Biroq bunda normalarni ishlab chiqish ularning maxsus funktsiyasi va tarmok boshqaruv bilan bog'liq ular faoliyatining asosiy shakli xisoblanmaydi. Davlat kumitasiga aksincha, idoralararo xuquqiy xujjatlarni chiqarish (tasdiklash) xuquqning mustaxkamlanishi uning funktsiyalari amalga oshirilishining boj kafolati bulib xizmat kiladi.

Davlat bojxona kumitasi faoliyatida normalar ishlab chiqish, shuningdek kup xollarda ular birgalikda yoki biroq boshqa davlat boshqaruvi organi bilan kelishilgan xolda amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Davlat bojxona kumitasi tugrisidagi nizom bilan O'zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi bajarilishi majburiy bulgan yuriknomalar va boshqa normativ xujjatlarni belgilangan tartibda chiqarish xuquq nazarda tutilgan. Bu bir tomondan biron-bir masalani xal etish va xuquqiy xujjat qabul qilish vakolatiga kiritilgan, mavkei teng ma'muriy-xuquqiy munosabatlar sub'ektlari, masalan, Davlat bojxona kumitasi va Moliya vazirligi, Davlat bojxona kumitasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar, Davlat bojxona kumitasi va Markaziy bank va shu kabilarni ish olib borishini anglatga, ikkinchi tomondan, bir tomonlama kursatmalar shaklini istisno kiluvchi paydo bo'ladigan munosabatlarni tartibga solishini muayyan usulini anglatadi.

Mavkeiga kura teng davlat boshqaruv organlari urtasida nazorat va mavkeilashtirish - tartibga solish faoliyatini kumita tomonidan amalaga oshirishda paydo buluvchi munosabatlarning aloxida xususiyati davlat kumitalari funktsiya va vakolatlarini, ularning xuquqiy vakolatlarini tartibga solish xususiyatlarini keltirib chiqaradi.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Bojxona organlari tizimi tarkibi?
2. Davlat bojxona kumitasining funktsiyalari?
3. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi?
4. Bojxona organlarining boshliklar tarkibi va unvonlari?
5. Davlat bojxona kumitasi organlarining asosiy vazifalari?
6. Boshqaruv organining funktsiyasi?
7. Boshqaruv organlarining vakolatlari?
8. Bojxona kompleks iva postlari tarkibi?

9. DBK raisining vazifalari?

10.DBK faoliyatini nazorat qilish?

MA‘RUZA-4. UZBYEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA SIYOSATI VA UNING BILAN BIRGA OLIB BORILADIGAN ASOSIY OMILLAR.

Reja:

- 4.1. Bojxona siyosatining mohiyati va mazmuni.**
- 4.2. Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar.**
- 4.3. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari.**
- 4.4. Bojxona siyosatiga asos buluvchi printseplar**

Adabiyotlar: 1,2,3,4,7,9,11,15.

Tayanch iboralar

Bojxona siyosati, bojxona siyosati tamoyillari, iqtisodiy axvol, maqsadlar taxlili, tartibga solish vositalari, proteksionizm, teskari proteksionizm, qisman cheklashlar, fritredirlik, bojxona siyosatining printseplari.

4.1. Bojxona siyosatining mohiyati va mazmuni Bojxona siyosatining mohiyatini kurib chiqishdan oldin ushbu tushuncha mazmunini aniqlab olish zarur.

Bojxona siyosati - bozor munosabatlari shakllanishi sharoitlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy isloxlarni dinamik amalga oshirish maqsadida mamlakat ichida va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish va ximoya qilishga qaratilgan bojxona siyosati soxasida qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish tusidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Bu O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining eng umumiy ta'rifidir. Ushbu ta'rifni aniqlashtirish uchun davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida bojxona siyosatini kurib chiqamiz.

Bojxona siyosati bilan davlatning ichki va tashqi siyosati uzaro bog'liqligi yakkol kurinib turadi.

Birinchidan, bojxona siyosati davlat ichki iqtisodiy siyosatining tarkibiy unsuri xisoblanadi. O'tish davri sharoitlarida u yangi iqtisodiy ukklad shakllanishining muxim omili, iqtisodiy xayotning bozor munosabatlariga monand ilgor shakllarini barpo qilishning vositasi xisoblanadi va kattik markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning nodinamik, kotib qolgan shakllaridan keskin fark кладаи. U boj tariflari yordamida va tariflarsiz boshqarish vositalaridan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qancha asosiy vazifalarini xal etishga da'vat qilingan.

- ◆ milliy iqtisodiyotning xar tomonlama rivojlantirish;
- ◆ ichki bozorni ximoya qilish;
- ◆ tarkibiy kayta uzlashtirishlar amalga oshirilishiga kumaklashish;
- ◆ byudjetning daromad qismini tuldirish.

Bojxona vositalari - xuquqiy, boj tariflari, tashkiliy, bojxona nazorat va boshqa vositalarning ahamiyatini pasaytirib kursatish va ularga bulgan e'tiborni susaytirish O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi va siyosiy-iqtisodiy xamda ijtimoiy isloxotlar yulidagi xarakatga tuskinlik qilishi mumkin.

Ikkinchidan, bojxona siyosati ichki siyosatning tarkibiy qismi sifatida uz xususiyatiga kura davlat manfaatlarini, korxonalar, xujalik birlashmalari, tadbirkorlar, fukarolarning xuquqlarini ximoya kiouvchi xuquqni muxofaza qilish organi xisoblanadi. U ichki bozorga tashqaridan buzgunchi unsurlar va yemiruvchi ta'sirlar kirib kelishidan ximoya qilishga da'vat etilgandir.

Bojxona siyosatining xuquqni muxofaza kiluvchi funktsiyasi bojxona nazorati vositalaridan samarali foydalanishga asoslanadi. Bunday vositalarga quyidagilar kiradi:

- ◆ bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan bojxona maqsadlari uchun zarur bulgan xujjatlar va ma'lumotlarning tekshirilishi;

- ◆ tovarni va transport vositalarini kuzdan kechirish, shaxsiy buyumlarni kuzdan kechirish, xisob va xisobot tizimini tekshirish, vaqtincha yuk saklanadigan omborlar va joylar xududini, bojxona omborlarini kuzdan kechirish va boshqalar;

- ◆ bojxona nazoratining tanlab tekshirish printsipini qullash, gayriqonuniy zarar yetkazilishiga yul kuymaslik.

1. Uchinchidan, bojxona siyosati O'zbekiston tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadalariga xizmat kiladi, uning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishning asosiy vositalaridan biridir.

2. Puxta uylangan va muvozanatli bojxona siyosati milliy iqtisodiyotni jaxon bozorlari kon'yukturasining keskin uzgarishlaridan ximoya qilishga, uning jaxon xujaligiga kushilishiga faol kumaklashishga da'vat etilgandir. O'zbekistonning bojxona ishi soxasida xamkorlikda qatnashishi ushbu yunalishdagi juda muxim kadam xisoblanadi.

3. O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati jaxondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar nisbatan tez uzgarayotganligini xisobga olib, dinamik, xarakatchan, moslashuvchan bo'lishga, ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi jaxon xujaligiga kushilayotgan bir sharoitda gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini ragbatlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish tugrisida borar ekan, yetarlicha barqaror bo'lishga da'vat etilgandir. Bunga bojxona siyosati uz rivojlanishining ilmiy asoslangan kontseptsiyasiga tayangandagina erishish mumkin.

4. Bojxona siyosati tamoyili uch unsurga asoslanadi.

Iqtisodiyotdagi axvolni taxlil qilish. Okilona bojxona siyosati ana shundan boshlanadi. Taxlil makrodarajada - mamlakat iqtisodiyotining axvoli, uning byudjeti, tulov balansi va boshqa makroiqtisodiy kursatkichlarni urganish, aniq bozorlar darajasida esa, talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tavsifini, rakobatni va

xokazolarni urganish asosida amalga oshiriladi. Taxlil davomida xal etilmagan muammolar aniqlanadi, ularni xal etish, salbiy xodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning mukobil okibatlarini baxolanadi.

Maqsadlarni taxlil qilish. U barcha imkoniyatlarni aniqlashdan, ya'ni maqsadlarni kataloglashtirishdan boshlanadi, sungra xar bir maqsadning xususiyati aniqlanadi: ushbu maqsadlar dastlabki bavoita yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, kiska muddatli yoki urtacha muddatli maqsadlar bo'ladi. Ayrim maqsadlarga bir vaqtning uzida turlicha tavsiflar berilishi mumkin. Bunday xolda zamonaviy vaziyatdan kelib chiqqan xolda ularning asosiylarini kursatish zarur. Maqsadlar shuningdek ularning xalq xujaligida ijroga ta'sir kursatish qulamllari va xarajatlarning miqdor parametrlari instituttsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari buyicha xam farklanadi. Sungra maqsadlar urtasidagi uzaro munosabatlar aniqlanadi: ular uygun, betaraf yoki nizoli bo'lishi mumkin.

Taxlil yaxlit tizimni barpo etish - maqsadlar ierarxiyasi tizimini barpo etish, ularni darajari buyicha vaqtincha taksimlash va tizim ichida maqsadlarning xarakat qilish istikbollarini shakllantirish bilan yakunlanadi.

Bojxona orqali tartibga solish vositalari qullanishini taxlil qilish. Bojxona siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishda ayrim tartibga soluvchi vositalar qullanilishi shartlarini, ayrim vositalarning birgalikda qullanilishi darajasini, ularning maqsadga muvofiqqligini, ularni qullashda kuriladigan kushimcha samaralarni, tartibga solish vositalari samaradorligini va ularni qullash zarurligining yetarlicha asoslanganligini aniqlash muximdir.

Bojxona orqali tartibga solishda bir-birini tuldiruvchi, biroq turlicha asosga ega bulgan vositalar guruxidan - ma'muriy va iqtisodiy vositalardan foydalaniladi. Ma'muriy vositalar xukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga asoslanadi; ular moliyaviy ragbatlantirish chora-tadbirlari, moddiy manfaatdorlik yoki tartibga soluvchi organlarning jazo jarimalari bilan bog'liq bulmaydi, ya'ni ular tovarlar va sarmoya aylanishining iqtisodiy shart-sharoitlarini emas, balki ular xarakatining tashqi imkoniyatini belgilaydi. Tartibga solishning klassik ma'muriy vositalari uch turga bulinadi: takik, ruxsat berish va majburlash. Masalan, davlat organlari u yoki bu tovar (qirol-yarog, alkogol, dori-darmonlar) importni takiklashi, tashqi iqtisodiy faoliyatning qatnashchilarini bojxona nazoratidan o'tishga majbur qilishi mumkin va boshqalar. Takik, ruxsat berish va majbur qilish litsenziya berilishi yoki uni berish rad etilishi, qonunlar va qonunlar asosida xujjatlar qabul qilinishi orqali amalga oshiriladi.

Tartibga solishning tarifsiz usullari uz asosiga kura ma'muriy usullar xisoblanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- tashqi iqtisodiy bitishuvlarni litsenziyalash va kvotalash;
- tovarlarning bojxona tozalashidan o'tishi bilan bog'liq bulgan cheklashlar;
- tovarni sertifikatlash;
- import uchun tulovlar rejimida mustaxkamlangan cheklashlar;
- milliy tarkibiy, texnik va sanitariya talablari okibati xisoblangan cheklashlar;
- davlatning import operatsiyalarida qatnashishi bilan bog'liq cheklashlar va boshqalar.

Bojxona orqali tartibga solishning iqtisodiy vositalariga eng avvalo boj tarifi xamda eksport va import tovarlariga solik solish tegishlidir. Ular bozor munosabatlari shakllanishi sharoitlarida markaziy urinda turadi.

O'zbekiston qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan yangi bojxona tarifi xalqaro yuridik normalarga tulik javob beradi va xalqaro Konventsiya tomonidan joriy etilgan Tovarlar ta'riflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimiga asoslanadi. Ushbu xujjatning qullanishi O'zbekistonning xalqaro savdo tizimida tula xuquq bilan qatnashishi uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Bojxona orqali tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari bojxona ittifoqlari va bojxona konventsiyalarida qatnashish, erkin savdo zonalarini tashkil etish, bojxona nazoratining davlat organlari tarmogini barpo etish, bojxona faoliyatining zarur qonunchilik normalarini qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona siyosati kontseptsiyasi ishlab chiqilishi bojxona orqali tartibga solishning real amaliyotidan oldinda borishi kerak, ya'ni u aniq maqsadlar kuyilishi va ular amalga oshirilishigacha xalq xujaligidagi axvol uzgartirilishining anglagan zaruriyati sifatida shakllantirilishi kerak. Agar kontseptsiya davlat boshqaruv apparatining iqtisodiy-siyosiy eksperimentlari jarayonida shakllansa, kontseptsiya amaliy bojxona siyosatidan orkada kolishi xam mumkin.

4.2. Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar Kuplab mamlakatlarning tadbirkorlari uz milliy bozorlariga xorijiy rakobatchilarni kiritmaslik uchun kuch-gayratlarini ayashmaydi. Ularning kuzlagan manfaati tushunarli - xorijiy rakobat bushashishga imkon bermaydi, ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilashga, chiqimlarni pasaytirishga, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirishga majbur kiladi.

Iste'molchilarni esa kuprok yaxshi arzon mollarga ega bo'lish kiziktiradi; tovarning kelib chiqishi va uni kim ishlab chiqarishi ular uchun u kadar muxim emas.

Ushbu vaziyat - jaxonning kuplab mamlakatlarida iqtisodiy va siyosiy ixtiloflarning doimiy manbai xisoblanadi. Xukumat uz iqtisodiy siyosatini shunday ishlab chiqishi kerakki, mamlakat bozorlarida import tovarlari paydo bo'lishidan ushbu mamlakat yutib chiqishi kerak.

Davlat tovarlar olib kirilishi (olib chiqilishi)ni cheklash yoki, aksincha ragbatlantirishiga bog'liq ravishda iqtisodiy va bojxona siyosatining turtta asosiy turi farklanadi.

Qisman cheklashlar siyosati ichki bozorga tovarlarning muayyan turlari, masalan, mamlakat mavkurasi va axolining turmush tarziga zid bulgan kino, video maxsulotlari, bosma nashrlar kirib kelishiga yul kuymaslik maqsadida utkaziladi.

Proteksionizm siyosati (lotincha protectio - ximoya ostiga olish, raxnamolik qilish) - ichki bozorni xorijiy rakobatdan ximoya qilish. Odatda, u eksport ishlab chiqarishni u yoki bu darajada importning urnini bosishni ragbatlantirish bilan birga kushib olib boriladi. Basharti, milliy ishlab chiqarish rakobatga bardoshli bulmasa, tadbirkorlik tuzilmalarining kistovi bilan davlat tomonidan qabul qilinadi. Proteksionizm - vatan tadbirkorlariga aloxida imtiyozli sharoitlar yaratib berishdir, bu esa milliy iqtisodiyotga turlicha okibatlar olib kelishi mumkin.

Bir tomondan, importning cheklanishi iste'molchilarga va umuman mamlakatga zarar yetkazadi, chunki xalqaro mexnat taksimoti afzalliklaridan foydalanilmaydi. Yuqori bojlar solinishi orqali milliy ishlab chiqaruvchilarga vujudga keltiriladigan imtiyozli shartlar texnologik jixatdan eskirgan ishlab chiqarish konsevasiya qilinishiga olib kelishi mumkin (monopoliya samarasi).

Ikkinchi tomondan, xorijiy rakobatchilarga karshi proteksionistik choralar kurinishidamaxalliy tadbirkorlarni ximoya qilish milliy kompaniyalar va firmalar shakllanishi paytida juda zarurdir. Bu xujalik yuritishning yangi shakllariga uzini saklab kolish, kuch tuplash imkonini beradi.

Misol uchun, yapon avtomobilsozligining shiddatli muvaffakiyati kup jixatdan xukumat xozir mashxur bulgan «Mazda», «Nissan», «Toyota» firmalari qaror topishi sharoitida utkazgan proteksionizm siyosati bilan izoxlanadi. 1932 yilda xukumat xali uncha uzini tutib olmagan avtokompaniyalarni avtomobil industriyasining amerikalik gigantlaridan ximoya qilish uchun xorijiy mashinalar va extiyot qismlar importiga doir bojlarni keskin oshirdi.

Bu mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy manfaatlari bilan uning fukarolari ayrim guruxlari manfaatlari urtasidagi ziddiyatga klassik misol bula oladi. Agar xalqaro savdodan va xalqaro mexnat taksimotida qatnashishdan butun mamlakat deyarli xamma vaqt yutib chiqsa, uning fukarolarining ayrim guruxlari bundan zarar kurishi mumkin va ular «milliy iqtisodiyot»ni ximoya qilishni talab kiladilar.

Mazkur muammo, agar arzon va sifatli xorijiy maxsulotga eshik ochib kuyiladigan bulsa, kuplab tarmoklar ichki bozorda import tovarlar bilan rakobatlashda olmaydigan MDXda juda keskin bulib turibdi. Bunda kuplab korxonalar sinadi va yopiladi, ularda ishlaganlar esa yashash uchun boshqa imkon kidirishadi. Masalan, 1992 yildayok Estoniyadan import qilingan gusht Rossiyaning maxalliy fermalari maxsulotidan arzon bulgan vaziyat vujudga keldi (ayniksa Estoniyaga qushni bulgan Pskov viloyatdagilar uchun). Rossiya shaxarlari axolisi uchun import gushtni iste'mol qilish foydali bulgan bulur edi, biroq u xolda Rossiya chorvachiligi uz tovari sotiladigan bozordan maxrum bulardi va, uz xarajatlarini tezlikda pasaytirish imkoniga ega bulmaganligi sababli (inflyatsiya sur'ati yuqoriligi bois) xonavayron bulardi. Shunga uxshash vaziyat yengil va ozik-ovkat sanoati, maishiy elektrotexnika va boshqa tarmoklar uchun xam realdir. MDX bozori davlat tomonidan tartibga solish, eng avvalo bojlar (tariflar) bilan tartibga solish chora-tadbirlari yordamida import tovarlari keng kirib kelishidan uzoq vaqt kuriklanishi extimoli mavjud.

Proteksionizm siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniksa keng qullaniladi. Undan tarkibiy uzgartirishlarni amalga oshirishda, importning urnini bosish maqsadida milliy sanoatni qullab-kuvvatlashda foydalaniladi.

Erkin savdo siyosati («fritrederlik») - tashqi savdoda cheklashlarni eng oz darajada kamaytirish. Odatda, u bozorda yetakchi mavkega ega bulgan, uz tovarlarining rakobatga bardoshlilikidan xavotirda bulmagan mamlakatlar tomonidan utkaziladi.

Bojxona siyosati kup darajada olib kirilayotgan maxsulot ichki ishlab chiqarish bilan rakobatlasha olmaydigan yoki muxim tarmoklar uchun xom ashyo xisoblangan mamlakatlarda xam erkin savdoga yunaltirilgan bo'ladi. Agar import ichki ishlab chiqarish bilan rakobatga kirishmasa, mamlakatning siyosiy kuchlari u xaridorga imkoni boricha arzonrok yetib borishi xaqidagi fikrga kelishadi. Xech bir narsani ximoya qilishning xojati bulmaganda proteksionizm uzini oklamaydi. Shunga uxshash xorijiy ishlab chiqarish bilan rakobatlashayotgan tarmoklarga nisbatan tarmok uchun muxim xom ashyo xisoblangan tovar, garchi bundan istisnolar bulsa xam, odatda bojdan ozod qilinadi (yoki u juda oz bo'ladi).

4. Takchil bozorni tuldirish siyosati - «teskari proteksionizm». Xammaga joy topiladigan milliy bozor nixoyatda takchil bulgan takdirdagina samarali bo'ladi.

Ushbu strategiya unsurlaridan 80-yillar oxiri - 90-yillar boshlarida O'zbekistonda xorijiy tovarlarni jalb qilish maqsadida foydalanildi. Ishlab chiqaruvchilar urtasidagi eski, rejali aloqalarning barxam topishi, yangi mustaqil davlatlarni tushkunlikka solib kuygan ishlab chiqarishning pasayishi deyarli barcha tovar bozorlarida takchillikni keltirib chiqaradi. Import bojlarning bekor qilinishi, imtiyozli kredit berish va boshqa choralar 1995 yil urtalariga kelib takchillik muammosi kun tartibidan olib tashlanishiga kumaklashdi.

Biron-bir siyosatni joriy etish shartlari, ular barcha tovarlar va bozorlar buyicha utkazilsa, kattik bo'lishi mumkin. Agar bu ayrim tovarlar va bozorlar buyicha utkazilsa, shart-sharoitlar yumshok bo'lishi mumkin.

Yumshoklik kupchilik davlatlarga uz faoliyatida bir qancha tashqi iqtisodiy strategiyalarni birga kushib olib borish imkonini beradi. Masalan, Umumiy bozor mamlakatlari bir-birlari bilan kishlok xujaligi maxsulotlari savdosida proteksionizmni ma'qul kurishadi, aynii vaqtda boshqa kupchilik davlatlarga nisbatan erkin savdo strategiyasi tanlangan. AKSH kuplab tovarlar buyicha Yaponiyaga nisbatan erkin savdo printsiplarini qullaydi, biroq ushbu mamlakatlar urtasida avtomobilsozlikda uzaro proteksionizm mavjuddir, ukupincha «savdo urushlariga»ga olib keladi.

«Savdo urushi» - xalqaro savdo yullaridagi eng oxirgi cheklovdir. U uzida ikki mamlakat xukumatlari tomonidan ularning ichki bozorlariga bir-birlarining tovarlari kirib kelishini uzaro cheklash choralari qabul qilinishini ifodalaydi.

Masalan, 1992 yil sentyabr oyida AKSH va Xitoy mana shunday urush yokasiga kelib koldi. XXPning AKSHdan import qilinadigan tovarlar yuliga tagridan-tugri takiklar, kvotalar, litsenziyalar, sifat standartlariga rioya qilishga nisbatan oshirilgan talablar kurinishida belgilanadigan tusiklarni olib tashlashni rad etishi bunga sabab bo'ldi. Agar Xitoyliklar AKSH bilan savdoda sezilarli ustunlikka erishmagan bulganlarida Xitoy ma'murlarining bunday xatti-xarakatiga munosabat bunchalik keskin bulmasligi mumkin edi: 1991 yilda Xitoy tomoni AKSHga uzlari sotib olganga nisbatan 12,7 mlrd. Dollarlik kup tovar sotgan. Aynan mana shu xolat AKSH xukumatining rasmiy vakillaridan birini quyidagicha bayonot berishga majbur kildi: «Xitoy xalqaro savdo tizimida tezlik bilan eng muxim mamlakatga aylanmokda. Biz bunday savdo darajasiga ega bulgan mamlakatga uz qoidalari bilan uynash imkonini bera olmaymiz. Agar ular eksportdan foyda olishmokchi bulsa, importga xam ruxsat berishlari kerak».

Ushbu nuktai nazarga muvofiq, AKSH Xitoyga ushbu mamlakatdan import qilinadigan tovarlarning keng doirasiga (yiliga salkam 4 milliard dollarlik) shunchalik yuqori bojlar belgilash niyatini e'lon kildi. Bunga kura, Xitoy tovarlarining narxlari Amerika bozorida ikki baravar oshishi kerak edi. Bunga javoban xitoylik ma'murlar bunday xolatda ular xam Amerika tovarlariga, shu jumladan kompyuterlar, samolyotlar, avtomashinalar va xokazolarga ana usha miqdorda, ya'ni 4 mlrd. Dollarlik jazo tarikasidagi boj tariflari joriy etishlari xaqida bayonot berishdi.

«Savdo urushlari»ning uzoq yillik tajribasi eng rivojlangan mamlakatlarni bunda xar ikkala tomon maglubiyatga uchrayajagi, yaxshisi «jangovor xarakatlar» boshlanib ketishiga yul kuymaslik xaqidagi fikrga olib keldi. Bu xalqaro savdoda eksportni ixtiyoriy cheklashni tugdirdi.

AKSH va Yaponiya arzon yapon avtomobillari eksporti tufayli doimiy ravishda «savdo urushi» yokasida turadi. AKSH iqtisodiyotida avtomobil sanoati an'anaviy ravishda aloxida urin to'tishini xisobga olganda buning atrofida xissiyotlar qanchalik

kaynashini tasavvur qilish kiyin emas. Yapon avtomobilsozlari uz mashinalarining AKSHga sotilishi tulik takiklanishi xavfining oldini olish uchun uz maxsulotining Amerikaga eksport qilinishiga cheklash joriy qilishga rozi bo'lishdi. Yaponiya xukumati esa Amerika tovarlari importiga cheklashni susaytirdi.

4.3.Bojxona siyosatining asosiy vazifalari. O'zbekiston Respublikasining uz mustaqil bojxona siyosatini amalga oshirishi Bojxona kodeksining 1-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Xar qanday faoliyat unga aniq va tugri rioya qilish istalgan natijalar berishi mumkin bulgan printsiplarga, ya'ni ushbu faoliyat oldiga oldindan kuyilgan maqsadlarga asoslanadi. Maqsadlarning uzi esa, uz navbatida, vazifalarda aniqlashtiriladi. Bu vazifalar bojxona siyosatining turli-tuman vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Bular quyidagi tarzda kiskacha tavsiflanishi mumkin: bojxona siyosati muayyan maqsadlar, printsiplar va vazifalarning uz ichiga oluvchi kontseptsiyaga asoslanadi.

Endi bojxona siyosatining printsiplari va vazifalariga batafsil tuxtalamiz.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar xisoblanadi:

- ◆ milliy iqtisodiyotning tarkibiy kayta kurulishiga kumaklashish;
- ◆ mamlakat xalq xujaligining jaxon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi;
- ◆ bozorning mavjud bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ◆ mamlakatning savdo va tulov balansini mustaxkamlash;
- ◆ davlat byudjeti daromadlarining usishi;
- ◆ davlatning savdo-siyosiy negizlari mustaxkamlanishi;
- ◆ xorijiy davlatlar va ular ittifoqligining kamsituvchi xatti-xarakatlariga karshilik kursatish;
- ◆ korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash.

Ushbu vazifalarning ayrimlarini, eng avvalo, bojxona siyosatining iqtisodiyotni tarkibiy kayta kurishni ragbatlantirishga yunaltirilganligini kurib chiqamiz.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida tarkibiy kayta kurish rakobat ta'siri ostida yuz berayotgan sarmoya va ishchi kuchining tarmoklararo okimi asosida amalga oshiriladi. Kurgazmali bo'lishi uchun bir muncha sxematik bulgan, biroq bozor ragbatlari ta'siri ostida namoyon buluvchi tarkibiy kayta kurish jarayonini aniq aks ettiruvchi misolni kurib chiqamiz.

Aytaylik, kaysidir milliy iqtisodiyotda ikki tarmok: foyda normasi 8 foizni tashkil etuvchi A tarmogi B tarmogiga qaraganda kam rentabelli, chunki unda ishlab chiqarish chiqimlari yuqori. Mamlakatning ichki bozoriga uz tovarlari bilan kirib keluvchi xorijiy rakobatchilarda esa ishlab chiqarish chiqimlari A tarmokka nisbatan past va tegishliche foyda normasi, deylik, 16 foizdir. Xorijiy rakobatga dosh berolmagan A tarmogi protektsionistik chora-tadbirlar belgilanishi maqsadida davlatga ta'sir kursatishi tushunarli.

Ushbu vaziyatga davlat ta'sirining ikkita mumkin bulgan variantini kurib chiqamiz.

I variant - bojxona ximoyasi mavjud emas; savdoning mutlak erkinligi rejimi amal kiladi. Istalgan investitsiya yechimi foyda normasining eng yuqori bo'lishidan kelib

chiqadi. B tarmogi kapital kuyilmalari uchun jozibalirok bo'ladi. A tarmogida reinvestitsiya faoliyati sekinlashadi, ayni vaqtda B tarmogi uziga sarmoyani jalb kila boshlaydi.

Sarmoyaning okishidan keyin ish kuchining A tarmokdan B tarmokka kuchishi yuz beradi. Erkin savdo sharoitlarida ishlab chiqarish resurslaridan samaralirok foydalaniladi. Mana shu narsa bozor sharoitlarida milliy iqtisodiyotni tarkibiy kayta kurish xisoblanadi.

A tarmogi kayta kurila olmas ekan, unda bitta yul koladi: davlatdan importga bojxona cheklovlari joriy etilishini surash. Bu II variant - bojxona ximoyasi rejimi bo'ladi. Bunday rejim sharoitida savdo erkinligi birmuncha cheklanadi. Bojxona tulovlari, kvotalar va bojxona siyosatining boshqa vositalari yordamida import tovar narxi sun'iy ravishda oshiriladi. Bu esa A tarmogiga, uz navbatida maxsulotga narxlarni oshirish imkonini beradi. Natijada uning rentabelligi, aytaylik, 8 punktga oshadi, bu esa summada 16 foizni tashkil etadi. Bir xil rentabellik samoya va ish kuchining tarmoklararo kuchishi tuxtatilishini anglatadi. Shakllangan iqtisodiy tuzilmaning uziga xos konservatsiyasi yuz beradi. Birmuncha ilgor B tarmogining rivojlanishiga kenglik berish urniga davlat kolok A tarmogini sun'iy ravishda qullab-kuvvatlaydi.

Bojning ishlab chiqarish tuzilmasiga ta'sirining keltirilgan nazariy modeli bozor munosabatlari sharoitlarida tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish foydasiga yana bir dalildir. Biroq, amaliyotda xammasi bunday oppa-oston emas: erkin savdoning uzaro foydaliligiga qaramay, xalqaro ayirboshlashni erkinlashtirilgandan kurilgan ijobiy samara xamkorlar urtasida vaqt jixatidan noteng taksimlanadi: dastlab bunday samarani kuchli tomon, sungra kuchsiz tomon oladi. Ushbu vaqtinchalik lag quyidagi xolatlar natijasi xisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotda tuzilma, odatda, kup darajada xalqaro mexnat taksimoti talablariga muvofiq keladi, kuchsiz iqtisodiyotda, tabiiyki - kam darajada muvofiq keladi. Mana shuning uchun xam kuchli iqtisodiyot ichki bozor ximoyasi susaytirilishidan darxol foyda oladi. Kuchsiz iqtisodiyot esa kayta kurishning muayyan davrini bosib o'tishi kerak, sarmoya va ishchi kuchining tarmoklararo kuchishi faollashini, tarmok, shuningdek investitsiyalarning takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilmalari makbullashishini ko'tishi lozim, bu narsa suzsiz ijtimoiy muammolar keskinlashishi bilan birgalikda yuz beradi.

O'tish iqtisodiyotida, odatda, milliy ishlab chiqaruvchilarning xorijiy ishlab chiqaruvchilar bilan teng xuquqli rakobati uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bulmaydi. Erkin bozor kuchlarining xarakati maxsulot importi bilan rakobatlashuvi milliy ishlab chiqaruvchilarning xonavayron bo'lishiga olib keladi xamda ish bilan ta'minlashni pasaytiradi, maxsulotni pirovard kayta ishlovchi tarmoklarni yemiradi va bu bilan iqtisodiyotning xom ashyoviy yunaltirilganligini konservatsiyalaydi. Bu xolisaniillo aytganda, tarkibiy kayta kurish jarayonlarini bojxona siyosati vositalari bilan davlat tomonidan tartibga solishni takozo etadi.

Proteksionistik chora-tadbirlar milliy sanoatning mustaxkamlanishiga kumaklashadi. Amaliyot o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda proteksionistik chora-tadbirlarning vaqtincha joriy etilishi uzini oklashini kursatadi, chunki ular tugilib kelayotgan uz industriyasi tajriba tuplayotgan va ishlab chiqarish chiqimlari tarifga tayanmasdan import maxsulot rakobatiga karshi turish imkonini beruvchi darajagacha pasaygan paytda ushbu vaqt mlbaynida zamonaviy sanoat maxsulotlari importini jilovlab turadi.

Industriallashtirish uzida kushimcha iqtisodiy va ijtimoiy farovonlik olib kelishi mumkin: ya'ni kup darajada iqtisodiy usishga va milliy gururga yunaltirilgan yangicha tafakkur tarzi, aloxida fermalar doirasidan tashqariga chiquvchi texnik bilimlar va kasb-kor maxoratining umumiy usishi.

Jaxonning yangi rivojlangan kupchilik mamlakatlari industriallashtirishni protektsionizmdan boshlashdi va erkin savdoga asta-sekin o'tishdi. Ushbu yulda ular aralash savdo rejimlariga ega bo'lishdi, ya'ni eksport kiluvchilarni eksport kiluvchilarni eksport subsidiyalari orqali ragbatlantirish, maqsadli kreditlar, shuningdek ishlab chiqarish asbob-uskunalar va yarimtayyor maxsulotlar importiningsoliklardan ozod qilinishi. Ayni bir vaqtda ular tayyor sanoat tovarlari importiga 30-70 foiz tariflar belgilashdi.

Ushbu mamlakatlar xukumatlari, shuningdek rivojlanishni jadallashtirishga maqsadli va subsidiyal kreditlarni tanlangan tarmoklarga berish, foydaning usishi va ishlab chiqaruvchi sarmoya samarasi maqsadlarida depozitlar va kreditlar buyicha nisbatan past foiz stavkalari belgilash, importning urnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni ximoya qilish, amaliy tadkikotlarga davlat investitsiyalari, eksportga yunaltirilgan tarmoklar va korxonalarni moliyaviy qullab-kuvvatlash va ularga aloxida ustunlik berish, tashqi bozorlarni urganish buyicha tashkilotlarni rivojlantirish va eksport tovarlarni oldinga siljitish orqali muntazam ravishda aralashib turishdi. Tanlangan tovarlar buyicha eksport bozorlarini egallash strategiyasi sarmoyaning va kunikmalarning yuqori sur'atlarda jamlanishi, resurslardan samarali foydalanish xamda mexnat unumdorligining usishi bilan birga kushib olib borildi.

Tarkibiy kayta kurishni amalga oshirish va yangi tarmoklar rivojlanishini qullab-kuvvatlash zaruriyatidan tashqari, o'tish iqtisodiyotiga ega bulgan mamlakatlarda importga doir boj tariflarini tartibga solish vositalaridan foydalanishni maqsadga muvofiq kiladigan bir qancha sabablar mavjuddir. Ulardan biri - byudjetni tuldirish buyicha bojxona siyosati oldida turgan vazifadir.

Davlat byudjeti daromadi manbai sifatida tarif ximoyasidan foydalanish foyda keltirishi va xatto iqtisodiy siyosatning boshqa vositalariga nisbatan samaralirok vosita bo'lishi mumkin.

Axolining turmush darajasi past bulgan yosh, mustaqil davlat uchun xukumatning ijtimoiy extiyojlarni soliklar yigish xisobiga ta'minlashga kodir emasligi asosiy muammo bo'lishi mumkin. Mavritaniya kabi kambagal mamlakat, agar yukumli kasalliklar, kishlok xujalik yerlarining melioratsiyasi, boshlangich ta'limni rivojlantirish, milliy mudofani mustaxkamlash ustidan nazorat kabi xizmatlar xajmini kupaytirish imkoniga ega bulsa, kuprok ijtimoiy afzalliklarga ega bo'ladi. Ayni vaqtda, o'tish iqtisodiyotidagi kupchilik mamlakatlarning ma'muriy resurslari daromad soliklarini samarali yigishini ta'minlash uchun yetarlicha emas, ularda umumiy solik madaniyati past.

Ushbu mamlakatlarda amal kiluvchi solik tizimi samaradorligi, modomiki ishlab chiqarish, iste'mol, daromad va mulkni ishonchli belgilash va nazorat qilish imkoniyati xali yuk ekan, ta'minlanishi mumkin emas.

Bunday xollarda import bojlari vatan ishlab chiqarishini ximoya qilish usulinigina emas, balki davlat daromadlarining goyatda muxim manbaiga xam aylanadi. Savodli solik mutaxassislari nixoyatda yetishmagan bir sharoitda Mavritaniya tomonidan import tarifi joriy etilishi ulkan ne'mat xisoblanadi: asosiy dengiz portlari va chegara punktlari uncha kup bulmagan bojxona xizmatchilari yordamida nazorat qilinishi maxsus solik tizimini

barpo etishga katta xarajatlar sarflashga nisbatan davlat byudjeti daromadlarini tuldırishning ancha arzon usuliga aylandi.

Kup jixatdan xuddi shu sababli milliy daromad darajasi past bulgan mamlakatlar davlat byudjetining $\frac{1}{4}$ dan $\frac{3}{5}$ gacha qismi bojlar xisobiga ta'minlanadi. Davlat daromadlari boj tizimiga bog'liqligining ushbu ulushi rivojlangan mamlakatlar yosh davlatlarning iqtisodiy siyosati amalda bayon qilingan qonuniyatdan farqlansa xam, fakt faktligicha koladi: ushbu mamlaktlarda tarif iqtisodiy siyosatning mukobil tadbirlariga qaraganda katta ijtimoiy afzalliklarni ta'minlashga kodirdir.

O'tish iqtisodiyotiga yangi bojlar joriy etishning extimol tutilgan okibatlariga baxo berilar ekan, import qiymatining qisqarishi eksport qiymatining xuddi shu taxlit qisqarishiga olib kelishini xisobga olish zarurdir.

Eksport uchun ishlab chiqarishda import qilinadigan maxsulot - xom ashyo, materiallar, extiyot qismlar va boshqalardan foydalaniladi. Import tovarlarga va ularning urnini bosuvchi maxalliy tovarlarga narxlar usishiga olib keluvchi savdo tusiklari eksport tovarlarining ishlab chiqarish chiqimlarini oshiradi. Misol sifatida neft importiga kvotalar joriy etilishi natijasida (1959-1973 yy.) AKSHga olib kelinadigan kimyoviy maxsulotlar narxining usishini, shuningdek pulat import qilinishiga cheklashlar tufayli Amerika avtomobillari narxlari usishi tamoyilini keltirish mumkin. Binobarin, importni cheklash Amerika tovarlarining narxga rakobatbardoshligini muayyan darajada pasaytirishga va ularni jaxon bozoridan sikib chiqarishga olib keladi.

Importga cheklashlar joriy etilganda qolgan mamlakatlar javob choralari kurishlari mumkin. Xukumatlar xamma joyda import tomonidan rakobatdan ximoya qilishni talab kiluvchi ayrim tarmoklarning bosimiga duch keladi. Agar O'zbekiston avtomobillar importiga kattik cheklashlar joriy etar ekan, boshqa mamlakatlar xukumatlariga proteksionistik talablarga, ayniksa respublikadan avtomobillarni eksport qilishga nisbatan, karshi turishkiyinrok bular edi. Javob choralari O'zbekistondan eksportning yanada qisqarishiga olib kelur edi.

O'tish iqtisodiyotiga ega bulgan mamlakatlarda importga nisbatan cheklash siyosati uchun va unga karshi keltirilgan dalillar uz-uzidan nazariy shart-sharoitlarga asoslanadi va aniq miqdoriy baxo bermaydi. Aniq bir mamlakat uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida maxsus iqtisodiy tadbirkotlar zarurdir, ular asosida uziga xos shart-sharoitlarni va mazkur milliy xujalik rivojlanishi maqsadlarini xisobga oluvchi bojxona siyosatini kurish mumkin.

Xar qanday xolatda bojxona siyosatining bir kontseptsiyasidan boshqasiga o'tish asta-sekin amalga oshirilishi kerak. Bojlar bilan ximoyalangan tarmoklarda firmalar ular pasaytirilishi tugrisida oldindan ogoxlantirilsa, u xolda kapital kuyilmalar va ish urinlarining qisqarishi xonavayronlikka olib kelmaydi. Asosiy sarmoyaning tabiiy eskirishi, odatdagi (bir tomonlama) ishchi kadrlar kunimsizligi uz-uzidan xorijiy rakobat ta'siri ostida ishlab chiqarishning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Boshqa suz bilan aytganda, asta-sekinlik bilan barcha tarkibiy chiqimlarni yukka chiqarishi mumkin.

1. 4.4. O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatiga asos buluvchi printsiplarini kurib chiqamiz. Ular Jaxon Bojxona Tashkiloti xujjatlarida kayd qilingan bojxona siyosatining xalqaro tajribasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan shakllantirilgan O'zbekistonning tashqi va ichki siyosati asosiy printsiplariga asoslanadi.

2. Xalqaro xuquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olish printsipti. U uzining milliy xuquqiy tizimini barpo etayotgan bizning mustaqil davlatimiz xalqaro xuquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olishidan iboratdir (O'zbekiston Respublikasi BK 4-moddasining 3-qismi). O'zbekiston jaxon xamjamiyatiga kushilar ekan, uz kiyofasini yukotmaslikka intiladi, bunda xalqaro xuquqiy normalar va standartlarga rioya qilishga tayyordir. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga, Jaxon Bojxona Tashkilotiga va boshqalarga a'zo bulib kirishi O'zbekiston xalqaro xamjamiyatining ajralmas qismiga aylanganligini bojxona ishi soxasida muxim jaxon muammolarni xal qilishda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlar ochilganligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bojxona siyosati yagonaligi printsipti (BK 1-modda, 1-qism). U joylarda turlicha bojxona siyosati utkazilishidan voz kechishni, O'zbekiston Respublikasining butun bojxona xududiga yagona bojxona siyosati tatbik etilishini anglatadi.

Ikki tomonlama va kup tomonlama aloqalar urnatilishi va rivojlanishi printsipti. Ushbu printsipt O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi soxasida xalqaro xamkorlikda faol ishtirok etishga intilishi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi umumqabul qilingan xalqaro normalar va amaliyot bilan uygunlashish birxillashish yunalishida rivojlanmokda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar doirasida xamkorlik chukurlashishi tarafdoridir.

Uz milliy davlat manfaatlari yuqoriligi sharoitida uzaro manfaatlar va savdo yengilliklarini xar tomonlama xisobga olish printsipti.

Ayrim iqtisodiy muammolarni xal etish mustaqil iqtisodiy siyosat o'tkazish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun chukur isloxotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning barqarorlashuvi, olga tomon xarakat sur'atlari muayyan darajada xozircha ijtimoiy-siyosiy vaziyatga va qushni mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatga va qushni mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatga bog'liqdir. Bojxona siyosati, agar u xamkor davlatlarning joriy manfaatlarini xisobga olsa, muayyan murosalariga borsa, uz samaradorligini oshiradi. Biroq, davlatlarning milliy xavfsizligi manfaatlar shubxa ostiga kuyilishi kerak emas.

Kamsitmaslik printsipti. Davlat uz iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish maqsadida bojxona siyosati vositalari orqali kupincha u yoki bu milliy bozorda cheklash choralaridan foydalanadi. Ushbu choralar kamsitmaslik shaklida amalga oshirilishi kerak, ya'ni barcha qatnashuvchi dalatlarga nisbatan utkazilishi, ayrim mamlakatlarga nisbatan tanlab utkazilmasligi zarur.

Bir tomonlama xarakatlarning qabul qilinmasligi. Milliy bozorni ximoya qilish buyicha qarorlar kup tomonlama maslaxatlashuvlardan keyin qabul qilinishi kerak.

Demokratizm printsipti. Bojxona siyosatini ishlab chiqishda va uni xayotga joriy etishda demokratizm printsipti bojxona ishi soxasida fukarolarning, xujalik sub'ektlarining xuquqlari ximoya qilinishi ta'minlanishini takozo etadi. Bojxona organlari ularga yuklangan vazifalarni bajarishda jamoat tartibini ximoya qilish buyicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga, axolining axlokiyligi, insonning xayoti va sogligi, xayvonlar va usimliklar muxofazasi, atrof va tabiiy muxit ximoyasi, tashqaridan olib kiriladigan tovarlardan vatan iste'molchilarini ximoya qilishga kumaklashadi.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Bojxona siyosatining mohiyati va mazmuni?
2. Bojxona siyosati tamoyillari?
3. Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar?
4. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari?
5. Bojxona siyosatini printsiplari?
6. Protektsionizm siyosatining mohiyati?
7. Qisman cheklashlar siyosatining mohiyati?
8. Fritredirlik siyosati mohiyati?
9. Teskari protektsionizm siyosati mohiyati?
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat siyosatlari?

MA'RUZA-5 . BOJXONA NAZORATINI TASHKIL ETISH

Reja:

- 5.1. Bojxona nazoratini tashkil etish.
- 5.2. Bojxona nazorati shakllari.
- 5.3. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.
- 5.4. Jismoniy shaxslarni bojxona nazoratidan o'tkazish.

Adabiyotlar: 1,2,4,5,8,10,12,13.

Таянч иборалар:

Божхона назорати шакллари, божхона куригидан утказиш, божхона кодекси, назоратни амалга ошириш ҳуқуқлари, чет эл валютасини олиб чиқиш, ТС-21, ТС-28, Т-6, баённомалар.

5.1. Bojxona nazoratini tashkil etish. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 41-moddasiga muvofiq, tovarlar va transport vositalari bojxona rejimiga muvofiq bojxona nazorati boshlangan paytdan boshlab u tugagunga kadar bojxona nazorati ostida bo'ladi.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirishda - tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib utgan paytdan e'tiboran; bojxona xududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqishda - bojxona deklaratsiyasi qabul qilib olingan paytdan e'tiboran boshlanadi, tovarlar va transport vositalarini erkin muomalaga chiqargan paytda (O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidan tashqariga olib chiqish - uning bojxona chegarasini kesib utgan paytda) esa yakunlanadi.

Biroq, tovarlar va transport vositalari chiqarilishidan kat'i nazar, ularga nisbatan bojxona nazorati, agar O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari yoki ijro etilishi O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari zimmasiga yuklangan xalqaro sharnoma buzilganligi mavjud deb xisoblash uchun yetarlicha asos bulsa, istalgan vaqtda utkazilishi mumkin. Mazkur qoida BKning 51-moddasida bayon qilingan.

Kursatib utilgan xolatda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshirishlari, ularni takroriy bojxona kurigidan o'tkazishlari, bojxona deklaratsiyasida kursatilgan ma'lumotlarni kaytadan tekshirishlari, xujjatlarni va tashqi iqtisodiy xamda mazkur tovarlar bilan bundan keyingi tijorat operatsiyalariga tegishli bulgan boshqa axborotlarni tekshirishlari zarur. Tekshirish deklarant, mazkur operatsiyalarga bevosita va bilvosita aloqador bulgan yoki zarur xujjatlarga ega bulgan istalgan boshqa shaxs joylashgan joyda utkazilishi mumkin.

SHuni ta'kidlash muximki, BKning 40-moddasi uchinchii xatboshisiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari bojxona nazoratini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari ruxsatisiz chiqib ketgan transport

vositalarini majburiy ravishda tuxtatish, dengiz, daryo va xavo kemalarini majburiy ravishda orkaga kaytarishga xakldir, chet el kemalari va boshqa davlatlarning xududida turgan kemalar bundan mustasno.

Deklarant va tovarlar xamda transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bulgan boshqa shaxslar yoki ularning vakillari tovarlar va transport vositalarini kuzdan kechirish paytida xozir bo'lishga xaklidir. Shu bilan birga, bojxona organlari kursatib utilgan shaxslarni kuzdan kechirish paytida xozir bo'lishlarini talab qilishlari mumkin. Tashuvchining vaqili, maxsus vakolat berilgan shaxsi bulmagan takdirda, transport vositasini boshqaruvchi jismoniy shaxs bojxona maqsadlari uchun vakolatini shaxs deb xisoblanadi (BKning 44-moddasi, 2-xatboshi).

5.2. Bojxona organi yuqorida sanab utilgan shaxslar yukligida, quyidagi xollarda tovarlar va transport vositalarini kuzdan kechirishga xaklidir va quyidagi nazorat shakllaridan foydalaniladi:

- ◆ kursatilgan shaxslar tovarlar va transport vositalari takdim etilganidan sung un kun utganidan keyin kelmagan bulsa;

- ◆ davlat xavfsizligi, jamoat tartibiga, inson xayoti va sogligiga, xayvonot va usimliklar, atrof tabiiy muxitga, O'zbekiston Respublikasining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklari saklanishiga xavf mavjud bulganda va kechiqtirib bulmaydigan boshqa xolatlarda;

- ◆ tovarlar va transport vositalari ular joylashtirilgan bojxona rejimini buzgan xolda bojxona xududida koldirilgan bulsa.

- ◆ Bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi yullar bilan utkaziladi:

- ◆ bojxona maqsadlari uchun zarur bulgan xujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;

- ◆ jismoniy va mansabdor shaxslarni ogzaki surab-surishtirish;

- ◆ bojxona kurigidan o'tkazish;

- ◆ tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan identifikatsiyalash;

- ◆ tovarlar va transport vositalarini xisobga olish;

- ◆ xisobga olish va xisobot tizimini tekshirish;

- ◆ bojxona nazoratidan utkazilishi lozim bulgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bulgan yoxud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan xududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;

- ◆ qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda (BKning 39-moddasi).

Bojxona nazorati utkazilayotganida inson, xayvonot va usimliklar xayoti va sogligi uchun xavfsiz bulgan xamda tovarlar va transport vositalariga ziyon yetkazmaydigan texnikaviy va boshqa vositalar qullanilishi mumkin. Bojxona

nazoratini o'tkazish qoidalarini O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida belgilanadi.

SHaxslarga, ularning tovarlari va transport vositalariga gayriqonuniy zarar yetkazmaslik bojxona nazoratini o'tkazishning umumiy qoidasi xisoblanadi.

BKning 49-moddasida zarurat bulganda bojxona organlari bojxona nazoratining sanab utilgan barcha shakllaridan foydalanishlari mumkinligi ta'kidlanadi, biroq, odatda, ular ushbu shakllarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga yuklangan bojxona ishi xaqidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun xujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga rioya qilinishi ta'minlanishi uchun yetarli bulgan shakllardangina foydalanadilar.

SHu bilan birga Bojxona kodeksi bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilingan aniq sub'ektlarni belgilaydi. BKning 50-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq xolda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasida utayotgan bulsalar, bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi. Shuningdek chet el xarbiy kemalari, jangovor va xarbiy kemalari, jangovor va xarbiy-transport xavo kemalari, shuningdek uzi yurib kelayotgan xarbiy texnikasi bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari va tarifikatsiya qilingandan keyin xalqaro shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin (BKning 50-moddasi).

Bojxona ishi soxasida ish kuruvchi shaxslar bojxona organlariga ruyxati qonun xujjatlarida belgilanadigan, bojxona nazorati uchun zarur xujjatlar va ma'lumotlarni topshirishlari kerak. Bundan tashqari, BKning 43-moddasiga muvofiq bojxona nazoratini amalga oshirish uchun bojxona organlari «banklardan, boshqa moliya-kredit muassasalaridan va xujalik yurituvchi sub'ektlardan eksport-import operatsiyalari xamda nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatning boshqa turlarga doir ma'lumotlarni olishga xaklidir».

Bojxona nazorati uchun zarur bulgan xujjatlar shaxslar tomonidan kamida uch yil saklanishi lozim (BKning 43-moddasi 3-xaiboshisi).

Kursatib utilgan xolda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshirishga, ularni takroriy bojxona kurigidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida kursatilgan ma'lumotlarni kayta tekshirishga, tashqi iqtisodiy faoliyat va mazkur tovarlar bilan bundan keyingi tijorat operatsiyalariga tegishli bulgan boshqa xujjatlar va axborotlarni tekshirishga

xaklidir. Tekshirish deklarant, kursatib utilgan operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqador bulgan yoki zarur xujjatlarga ega bulgan shaxslar turgan joyda utkazilishi mumkin. Xuquqni buzishlar aniqlangan takdirda shaxslar qonun xujjatlariga muvofiq javob beradi.

5.3. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlariga bojxona nazoratini amalga oshirishda quyidagi xuquqlar berilgan:

bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat guvoxnomasi asosida bojxona nazoratidan utkazilishi kerak bulgan shaxslarning tovarlari va transport vositalari, bojxona nazorati uchun zarur bulgan xujjatlari mavjud bo'lishi mumkin bulgan yoxud nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari zimmasiga yuklangan faoliyat amalga oshirilayotgan xudud va binolarga kira olish xuquqiga ega (BKning 52-moddasi);

bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda yordam kursatish uchun qonun xujjatlariga muvofiq mutaxassislar va ekspertlarni jalb etishga xakli (BKning 53-moddasi);

bojxona organlari bojxona nazorati ostida bulgan xujjatlar, tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona qiyoslashidan o'tkazishga xaklidir. Bu ularga plombalar, muxrlar kuyish, raqamli, xarfiy va boshqa markalar bosish, maxsus belgilarni kuyish, shtamplar bosish, namunalar va nusxalar olib, tovarlar va transport vositalarini ta'riflash, ularning chizmalarini tayyorlash, masshtabli tasvirlarga ilova qilingan va boshqa xujjatlardan xamda uzga qiyoslash vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Qiyoslash vositalari fakat bojxona organlari tomonidan yoki ularning ruxsati bilan uzgartirilishi, olib tashlanishi yoki yuk qilinishi mumkin. Tovarlari va transport vositalarining yuk bulib ketishi, ularga kayta tiklab bulmaydigan darajada putur yetkazilishi yoki ularning jiddiy buzilishi xavfi tugilgan xollar bundan mustasno. Qiyoslash vositalari uzgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yuk qilinganligi tugrisida bojxona organlariga darxol ma'lum qilinadi va ayni paytda bunday xavf mavjud bulganligini isbotlovchi dalillar takdim etiladi (BKning 46-moddasi);

bojxona organlari tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utayotgan shaxslarning, bojxona brokerlari yoki nazorat qilish bojxona organlariga yuklangan faoliyatini uz vakolatlari doirasida tekshirishga yoki tekshirishni tayinlashga xaklidir (BKning 48-moddasi).

Bunday tekshirishlar davomida bojxona organlari quyidagilarga xaklidir:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni va boshqa xujalik faoliyatini amalga oshirishga tegishli bulgan, bojxona ishiga va bojxona organlari yunktsiyalariga aloqador bulgan xar qanday axborot (shu jumladan, bank xujjatlari) bilan tanishish. Bunday axborot va xujjatlar bojxona organlariga tekin takdim etiladi;

- mansabdor shaxslar va boshqa xodimlardan ma'lumotnomalar, yozma va ogzaki tushuntirishlar olish;

- binoni muxrlash;

belgilangan shakldagi dalolatnoma buyicha xujjatlarni olib kuyish, agar ular bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan belgilanadigan boshqa joyda tekshirilishi kerak bulsa.

Kursatib utilgan tekshirishlar uning moliyaviy-xujalik faoliyati tekshirilayotgan shaxsga gayriqonuniy zarar yetkazmasligi kerak, tekshirishning natijalari ushbu shaxsga darxol xabar qilinadi.

Tekshirish davomida olingan barcha axborot maxfiy xisoblanadi xamda fakat bojxona maqsadlarida foydalanish mumkin, u oshkor qilinmasligi, bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan shaxsiy maqsadlarda foydalanilmasligi, shuningdek uchinchi shaxslarga va davlat organlariga berilmasligi kerak, O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno. Ularga karshi kurash O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari vakolatlariga kirmaydigan jinoyat belgilari aniqlangan xollar buning misoli bo'lishi mumkin.

Yuqorida O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari shaxsni kuzdan kechirish kabi bojxona nazorati shaklini qullash xuquqiga egaligi kayd etildi.

SHuni ta'kidlash zarurki, xuquqiy davlat kurish sharoitlarida bunday chora, agar uyushgan jinoyatchilik, giyoxvandlik moddalari, qirol-yarog va madaniy-tarixiy boyliklar kontrabandasi aniqlangan takdirda fakat zarurgina emas, balki majburiy chora xam xisoblanadi. Shu sababli, shaxsni kuzdan kechirishni bojxona nazoratining mutlak shakli sifatida batafsilrok yoritish zaruriyati tugiladi.

Uni qullash BKning 45-moddasida tartibga solingan. Shaxsni kuzdan kechirish O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi buzilishi ob'ektlari xisoblangan tovarlarni yashirganligi va takdim etmaganligi uchun yetarlicha asoslar bor deb xisoblangan takdirda O'zbekiston Respublikasi bojxona organi vakolati mansabdor shaxsining qaroriga binoan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda utkaziladi.

SHaxsiy kuzdan kechirish utkazilishidan oldin jismoniy shaxsga qabul qilingan qaror e'lon qilinishi xamda unga yashirilayotgan tovarlarni ixtiyoriy berish taklif qilinishi kerak, ayni vaqtda unga bunday kuzdan kechirish utkazilishi paytida uning xuquq va majburiyatlari tushuntirilishi zarur.

SHaxsni kuzdan kechirish bojxona organining kuzdan kechirilayotgan shaxs bilan bir jipsdagi ikki guvox xozirligida sanitariya-gigiena talablariga javob beruvchi ajratilgan xonada utkaziladi. Kuzdan kechirilayotgan shaxsning tanasini kuzdan kechirish fakat tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshirilishi kerak.

SHaxsni kuzdan kechirish uikazilayotgan bino yana bir talabga javob berishi, ya'ni unga boshqa jismoniy shaxslarning kirishini, shuningdek kuzdan kechirish paytida ularni kuzatish imkoniyatini istisno qilishi kerak.

SHaxsni kuzdan kechirish utkazilishi tugrisida O'zbekiston Respublikasi DBK tomonidan beligilanadigan shakl buyicha bayonnoma tuziladi. Uni kuzdan kechirishni

amalga oshirgan bojxona organi mansabdor shaxsi, kuzdan kechirilgan jismoniy shaxs, guvoxlar va agar kuzdan kechirish davomida kuzdan kechirilgan bulsa, tibbiyot xodimi imzo chekadilar.

Unga nisbatan shaxsiy kuzdan kechirish utkazilgan shaxs tuzilayotgan bayonnomada bayonot berishga xaklidir.

BKning 42-moddasida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegaralari buylab, bojxona rasmiylashtiruvi joylarida, bojxona organlari joylashgan joylarda, shuningdek qonun xujjatlari bilan belgilangan boshqa joylarda bojxona nazorati zonalari tashkil etiladi. Bunday zonalarida va ularning chegaralari doiralarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni, shu jumladan boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslarini olib o'tishga O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining ruxsati bilan va nazorati ostida yul kuyiladi, O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

5.4. Jismoniy shaxslarni bojxona nazoratidan o'tkazish. Shaxsni kuzdan kechirish, bojxona chegarasi orqali utayotgan bojxona nazorati zonasida yoki xalqaro aloqa uchun ochiq aeroportning tranzit zonasida turgan jismoniy shaxs qonun xujjatlarni buzish ob'ekti xisoblanuvchi tovarlarni uz yonida yashirayapti va kursatmayapti deb xisoblashga asoslar bulgan takdirda, bojxona organi mansabdor shaxsining qaroriga binoan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda utkaziladi. Shaxsiy kurikdan o'tkazish uchun avval maskan boshligi nomiga ariza yoziladi. Sung, ikkita xolis ishtirokida amalga oshiriladi. (bojxona kodeksi 45-modda)

O'zbekiston Respublikasidan chet el valyutasini olib chiqish tartibini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 20 martdagi PF-1979-sonli «Jismoniy shaxslar tomonidan nakd chet el valyutasini olib kirish va olib chiqishni tartibga solish tugrisida» gi Farmoniga asosan amalga oshiriladi.

1998 yil 1 apreldan Jismoniy shaxslar tomonidan nakd chet el valyutasini Respublikatashqarisiga olib chiqish quyidagi tartibda ruxsat etiladi:

1. Rezidentlar uchun-1500 AKSH dollari miqdorigacha.

2. Norezidentlar uchun Respublikaga olib kirish uchun bojxona T-6 bayonnomasida kursatilgan valyutasi miqdorigacha.

Kursatilgan me'yoridan ortiq bulgan chet el valyutasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki vakolatli banklar ruxsati bilan olib chiqishga ruxsat beriladi.

O'zbekiston Respublikasi chet el valyutasini olib kirish tartibini quyidagicha:

- 1998 yil 1 apreldan jismoniy shaxslar tomonidan nakd chet el valyutasini Respublika xududiga cheklanmagan miqdorida belgilangan tartibda olib kirish mumkin.

- 5 ming AKSH dollari yoki uning ekvivalentidagi boshqa valyuta miqdorigacha valyutani belgilagan tartibda T-6 bojxona bayonnomasida kursatilib olib kirishga ruxsat etiladi.

- 5 ming AKSH dollari yoki uning ekvivalentidagi boshqa valyuta miqdoridan ortiq valyutani TS-28 kvitantsiyasi bilan olib kirishga ruxsat beriladi.

TS-21 kvitantsiyasi bilan jismoniy shaxsning xoxishiga kura nakd chet el valyutasini bojxona organi tomonidan vaqtincha saklovga olinishi mumkin.

TS-21 guvoxnomasi quyidagi xollarda tuldiriladi:

Ushbu kvitantsiya asosida topshirilgan valyutalar kimmatbaxo metallar, kimmatbaxo toshlar, marvarid va undan tayyorlangan buyumlar va shu bilan birga mulkdorlik xujjatlarini qabul qilingan kundan boshlab 3 oy muddat mobaynida saklanadi.

Kvitantsiya egasi yuqorida kursatilgan muddatlar ichida O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasini, lotorealarini xorijiy valyutani, valyutadagi yozma tulov kogoslarini kimmatbaxo tosh va metallarni shaxsan uzi olishi yoki xorijda turib, boshqa shaxsga vakolat berish yuli bilan yoki bojxona xizmatiga xat bilan murojat qilib yuli bilan kursatma berish xuquqlariga ega.

Saklash muddatlari tugashiga kadar talab qilinmagan kimmatliklar davlat xisobiga utkaziladi.

TS-28 guvoxnomasi qanday xollarda tuldiriladi?

Xorijiy davlatdan olib kirilgan va ushbu guvoxnomada kursatilgan xorijiy valyuta norezidentlar tomonidan ikki yil muddat ichida olib chiqishga ruxsat beriladi.

O'zbekiston Respublikasi xududiga jismoniy shaxslar tomonidan olib kirilgan va ushbu guvoxnomada ruyxatga olingan kimmatbaxo metallar va toshlar va ulardan yasalgan zargarlik buyumlarini O'zbekiston Respublikasi xududidan tashqariga olib chiqishga ruxsat beriladi.

Xorijiy valyutani sumga ayirboshlash Markaziy bankning xorijiy valyutalarida va valyuta qiymatlarida operatsialar o'tkazishga bosh litsenziyasi bulgan ma'sul banklarda amalga oshiriladi.

Guvoxnomani boshqalarga berish ta'kiklanadi.

T-6 bayonnomasini tuldirish tartibi:

1. T-6 bojxona bayonnomasi davlat chegarasidan utayotgan jismoniy shaxslar tomonidan tuldiriladi va bojxona organlari tomonidan ruyxatga olinadi.

2. T-6 bojxona bayonnomasi 2 nusxada tuldiriladi. Birinchi nusxasi shaxsning uzida va ikkinchi nusxasi bojxona organida koladi.

3. T-6 bayonnomasini tuldirayotgan shaxs uzi bilan olib utayotgan qul yuki va bagajlarini shuningdek pul kimmat baxo kogoslar, kimmatbaxo metall va toshlarni bayonnomada kursatishi shart.

Tekshirish buyicha nazorat savollari:

1. Bojxona nazorati shakllari?
2. Bojxona nazoratini oshirishda berilgan xuquqlar?
3. Jismoniy shaxslarni nazoratdan o'tkazish?
4. Bojxona nazoratida valyutani olib chiqish?
5. Bojxona nazoratida valyutani olib kirish?
6. TS-21 guvoxnomasini tuldirish tartibi?
7. TS-28 guvoxnomasini tuldirish tartibi?
8. T-6 bayonnomasini tuldirish tartibi?
9. Bojxona nazoratini tashkil qilish tartibi?
10. Bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi?

MA'RUZA 6. TOVARLAR VA TRANSPORT VOSITALARINI BOJXONA NAZORATIDAN O'TKAZISH

RYeJA:

- 6.1. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati ostida tashish.**
- 6.2. Tovar va transport vositalarni olib o'tishning xuquqiy asoslari**
- 6.3. Tovar va transport vositalarini rasmiylashtiruvda bojxona rejimlari.**
- 6.4. Bojxona nazoratini o'tkazishda ishlatiladigan texnik vositalar.**

Adabiyotlar: 3,4,5,7,8,10,13.

Tayanch iboralar:

Tovarlar, transport vositalari, ularni tashish, bojxona nazorati tranzit bojxona rejimi, olib o'tishning xuquqiy asoslari, bojxona rejimlari, qiyoslash texnik vositalar, kidiruv texnik vositalar.

6.1. Bojxona nazorati ostida bulgan, shu jumladan tranzit rejimida bojxona xududi orqali utadigan tovarlar va transport vositalari junatish bojxona organidan borish bojxona organiga tovarlar va transport vositalarini tashishga qabul qilib olgan tashuvchining javobgarligi ostida tashilishi mumkin.

Tranzitning bojxona rejimini qullash xususiyati ruxsat beruvchi tusga egadir. Tovarlarini mazkur bojxona rejimi ostida joylashtirishga ruxsatnomani bojxona organlari beradi.

Tovarlarning tranzit bojxona rejimi ostida o'tishda rioya qilinishi kerak bulgan shartlar quyidagilar xisoblanadi:

- tovarlar olib kirilgandagi kurinishda olib chiqilishi kerak, tabiiy eskirish bundan mustasno;
- ulardan biron-bir boshqa maqsadlar, tranzitdan tashqari, foydalanmaslik kafolati;
- ushbu tovarlarning yetkazib beriladigan bojxona organiga uz vaqtida yetkazib berilishi.

O'zbekiston Respublikasi xududi buyicha tovarlar tranziti qonun xujjatlarida belgilangan yunalishlar buyicha amalga oshirilishi mumkin. Agar bojxona organi tashuvchiga ishonmaslik uchun biron-bir asosga ega bulsa, tranzit tovari bojxona xamkorligida tashiladi yoki bojxona tashuvchisi tashuvchi bo'ladi.

Yuk kelib tushuvchi bojxona organiga topshirilishi lozim bulgan xujjatlar kaysi tovarlar va transport vositalariga tegishli bulsa, usha tovarlar va transport vositalari bilan bir xil tartibda yetkaziladi.

Tashuvchi quyidagi xollarda tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul kilmaslikka xakli:

- bojxona va transport xujjatlari belgilangan tartibni buzgan xolda rasmiylashtirilgan bulsa;

- bojxona tomonidan transport vositasiga va tovarlar joylangan urov-idishlarga kuyilgan ta'minlov choralari tashilayotgan tovarlarga ana shu ta'minlov choralari buzmasdan tegish imkoniyatini istisno etmasa.

- Tovarlar, transport vositalari va ularga oid xujjatlar tashish uchun qabul qilib olgan tashuvchi:

- ularni junatuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan manzilga, yulanishda va muddatda, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saklash sharoitlaridagi kamayish okibatidagi uzgarishlarni istisno etganda, urov-idishlari yoki xolatini uzgartirmasdan, eltib berishdan boshqa maqsadda foydalanmasdan yetkazib berish;

- tovarlar, transport vositalari va ularga oid xujjatlarni yuk kelib tushadigan bojxona organida kursatishi, bu organ mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa - tovarlar va transport vositalarini amalda takdim etish;

- bojxona nazorati ostida turgan tovarlar bilan bir vaqtda boshqa tovarlarni tashimasligi shart.

Yuk eltib beriladigan joyga yetib kelgandan keyin tashuvchi bojxona organining ruxsatsiz tovarlar va transport vositasini tuxtatish joyida karovsiz koldirish, tuxtatish joyini uzgartirish, yulovchilarni tushirish, tovarlar bilan biron-bir ortish-tushirish va urash-joylash operatsiyalarni o'tkazish, qiyoslash vositalarini uzgartirish, olib tashlash yoki yuk qilish xuquqiga ega emas.

Agar tashuvchi, yulovchilarning va transport vositasi ekipajining xayoti va sogligi chinakam xavf ostida qolganligini, tovarlar va transport vositasini yuk qilinishi, kaytarib bulmaydigan tarzda quldan ketishi yoki jiddiy buzilishi xavfi mavjud bulganligini isbotlasa, ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlaridagi talablarni buzganligi uchun javobgarlik yuzaga kelmaydi. Kursatilgan talablar buzilishiga sabab bulgan xolatlar tugrisida tashuvchi darxol bojxona organini xabardor qilish shart.

Agar tashuvchi yoxud uning transport vositasi O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining talablariga rioya etilishini kafolatlay olmasa, bojxona organi transport vositasi fakat tegishlicha jixozlangan yoki bojxona kuzatuviga olingan yoki tovarlar bojxona tashuvchisi tomonidan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tashilgan takdirdagina tovarlarning bojxona nazorati ostida olib utilishiga yul kuyishga xakli.

O'zbekiston Respublikasi xududi orqali olib utilayotgan tovarlar va transport vositalarining but saklanishi uchun tashuvchi javobgar bo'ladi.

Tovarlar bojxona organining ruxsatisiz berib yuborilgan, yukotilgan yoki yuk kelib tushadigan bojxona organiga eltib berilmagan takdirda, tashuvchi, tegishli ravishda erkin muomalaga yoki eksportga chiqarish rejimlarida tulanishi lozim bulgan boj tulovlarini tulashi shart, tovarlar xaloqat yoki yengib bulmas kuch ta'siri okibatida yuk bulgan yoxud kaytarib bulmaydigan tarzda quldan ketgan yoxud kamomad tabiiy eskirish yoki normal tashish va saklash sharoitida kamayish tufayli yuzaga kelgan yoxud organlar yoxud mansabdor shaxslarning qonunga xilof xatti-xarakatlari natijasida egalikdan chiqib ketgan xollar bunday mustasno. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ruy bergan bunday

xollar O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan belgilangan tartibda tasdiklanishi lozim.

6.2. Tovar va transport vositalarini O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishning xuquqiy asoslari. Bojxona chegarasidan olib o'tish - tovarlar yoki transport vositalarini xar qanday usulda, shu jumladan xalqaro pochta junatmalarini yuborish, quvur transportidan xamda elektr uzatish liniyalaridan uzatish yuli bilan bojxona xududiga olib kirish yoki olib chiqish xarakatlarini amalga oshirishdir. Shunday xaraktlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- tovarlar yoki transport vositalari bojxona xududiga olib kirilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar xududidan olib kirilganda - bojxona chegarasidan amalda o'tish;

- tovarlar yoki transport vositalari bojxona xududidan olib chiqilganda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar xududiga olib chiqilganda - bojxona deklaratsiyasini takdim etish yoki tovar yoxud transport vositalarini olib chiqish maqsadini amalga oshirishga bevosita qaratilgan uzga xarakatni bajarish.

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishning asosiy printsiplari O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 1-bobida bayon etilgan.

Birinchidan, barcha shaxslar O'zbekiston Respublikasiga tovarlar va transport vositalarini olib kirishda teng xuquqiga ega, qonun qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasnodir (BK 8-moddasi). BK va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollardagina mazkur xuquqni cheklash yoki bekor qilish mumkin.

Ikkinchidan, tovarlar va transport vositalarining mamlkatimiz bojxona chegarasini kesib o'tishiga O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan belgilangan joylarda va ularning ishlash vaqtida yul kuyiladi. Boshqa joylarda va bojxona organlarining ishlash vaqtidan tashqari tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini fakat bojxona organlari bilan kelishib kesib o'tishlari mumkin (BK 11, 12-moddalari).

Uchinchidan, tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish ularning bojxona rejimiga muvofiq amalga oshiriladi xamda bojxona rasmiylashtirishi va bojxona nazoratidan utkazilishi kerak.

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tishning muxim umumiy printsiipi BK 15-moddasida bayon etilgan. Unga binoan, «bojxona tulovlari buyicha imtiyozlar berilib, shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalaridan, ana shu imtiyozlar nima munosabat bilan berilgan bulsa, ulardan fakat ana shu maqsadda foydalanishga... yul kuyiladi». Boshqa xollarda bunday tovarlar va transport vositalaridan foydalanishga O'zbekiston Respublikasi bojxona organining ruxsati bilan, bojlarni tulash xamda BK va O'zbekiston Respublikasining uzga qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni sharti bilan yul kuyiladi.

6.3. Tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali olib utilishi, shuningdek bojxona rasmiylashtiruvi ularning bojxona rejimlariga muvofiq bajariladi.

Bojxona rejimlari O'zbekiston Respublikasi bojxona ishining eng muxim instituti xisoblanadi. Aynan bojxona rejimi tovarlar va transport vositalarining Respublikabojxona chegarasi orqali olib utilishi tartibini belgilab beradi.

Bojxona rejimining eng umumiy ta'rifi BKda belgilab berilgan: «Bojxona rejimi - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui» (BKning 7-moddasi 12-bandi).

Ushbu tushunchani batafsil kurib chiqamiz. Bojxona rejimi tovarlar va transport vositalarining olib utilishi xususiyati va maqsadlariga bog'liq ravishda qullaniladigan bojxona tartiblarining muayyan izchilligidir. Olib o'tish xususiyati yuklarini olib o'tish yunalishini - olib kirish, olib chiqish, tranzitni nazarda tutadi. Olib o'tish maqsadi - erkin muomala uchun chiqarish, kayta ishlash uchun vaqtincha olib kirish (olib chiqish) va boshqalardir.

Tovarlar va transport vositalarining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utilishi xususiyati va maqsadlari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tanlanadi xamda bojxona rejimining aniq turini va bojxona organlari tomonidan qullaniladigan tegishli qoidalarini aniqlash uchun asos bulib xizmat kiladi.

Aniq bojxona rejimlari, uz navbatida, jismoniy va yuridik shaxslarning farmoyishiga kura ularning egaligida bulgan, tranzit buyicha O'zbekiston Respublikasi xududiga olib kelingan yoki transport vositalari buyicha ularning xuquqlari chegarasini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona xududi orqali tovarlar va transport vositalarini olib utuvchi shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasining bojxona ishiga doir biror-bir qonun xujjatida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bulsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, kaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi yoki kaysi maqsadga muljallanganligidan kat'i nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'tkazishga xaklidir (BKning 16-moddasi, 3-xatboshisi).

SHunday qilib, bojxona rejimini tanlashning erkin xuquqi va uni boshqa rejimga almashtirish imkoniyati mavjuddir. Ushbu xuquq deklarantga beriladi. Ular BKning 7-moddasi 7-bandiga muvofiq «tovarlarni olib utuvchi, tovarlar va transport vositalarini uz nomidan deklaratsiyalovchi, kursatuvchi va takdim etuvchi shaxs yoki tovar olib utuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri» xisoblanadi. Biroq, amaliyotda xamma vaqt xam bojxona rejimini erkin tanlash xuquqini berishga muvaffak bulinavermaydi, chunki tovarlar va transport vositalarining olib utilishi maqsadi normativ xujjatlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Birinchidan, xar bir bojxona rejimi uchun bir qancha qoidalar mavjud bulib, ularga muvofiq rejimni fakat muayyan shartlar va qoidalarga kura qullash mumkin, shuningdek bojxona rejimini qullash izchilligiga nisbatan xam shunday xolni kuzatish mumkin. Muayyan bojxona rejimlaridan keyin ularning ayrimlari qullanilishi mumkin, boshqa rejimlarni uzgartirish imkoni kiyin. Masalan, tovarlarni reimport bojxona rejimida joylashtirish uchun bunday joylashtirishning reimport tugrisidagi qoidalar nazarda tutilgan barcha shartlari bajarilishi kerak.

Bojxona ombori deb ataladigan bojxona rejimidan keyin, masalan, erkin muomalaga chiqarish, vaqtincha olib kirish (olib chiqish), eksport va boshqa rejimlar bayon qilinishi mumkin, bojxona rejimlaridan keyin esa davlat foydasiga rad etish va yuk qilishdan keyin boshqa rejim xaqida bayonot berish mumkin emas.

Ikkinchidan, bir qancha xollarda tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utuvchi shaxs qonun xujjatlari talablariga muvofiq bojxona rejimini tanlashga majburdir. Masalan, BKning 31-moddasidagi

qoidalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi bojxona xududida xorijiy tovarlarni kayta ishlash fakat bojxona xududida kayta ishlash rejimi buyicha mumkin.

Tanlangan bojxona rejimi bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirishda xuquqiy jixatdan kayd etiladi.

6.4.Bojxona nazoratini o'tkazishda ishlatiladigan texnik vositalar. Bojxona chegarasining texnik vositalari bu – tovar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning qonuniyligini aniqlash ularni xisobga olish, soliklar va yigimlar olish, olib kirish va tranzit ta'kiklangan tovarlar bojxona chegarasi orqali o'tishining oldini olishi uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan bojxona maskanlaridan va ulardan tashqarida foydalaniladigan maxsus texnik vositalar majmuidir.

Bojxona nazorati texnika vositalari ommaviy ishlatishga muljallanligi, soddaligi va ishlatilishi qulayligi bilan kupchilik xollarda ular tugrisida maxsus bilimlarga ega bo'lishni xattoki tor doiradagi mutaxassis bo'lishni talab etadi.

Bojxona nazoratini tez va sifatli o'tkazishda kuyilgan masalaning shartiga kura ishlatilishi texnik vositalarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- Kurikdan o'tkazishda rentgen texnikasida.
- Nozirlik kurigidan o'tkazish majmualari.
- Kidiruv texnik vositalari.
- Qiyoslash texnik vositalari.
- Kontrabanda ishlari buyicha surishtiruv va xujjatlashtirish texnik vositalari.

Kurikdan o'tkazishda foydalaniladigan rentgen texnikasi yulovchilarning qul yuklari va bagajlarini, urta xajmdagi xalqaro pochta junatmalarini ochmasdan ularni tekshirishga imkon beruvchi vositalardir.

Nozirlik kurigidan o'tkazish majmualari - katta ulchovlarga ega bulgan yuklarni ochmasdan bojxona kurigidan o'tkazish uchun muljallangan maxsus elektron apparatura majmui. Ular uch toifaga bulinadi:

engil avtomobillar, mikro avtobuslar, avto pritseplar va 3 tonnagacha yuk tashuvchi transportlarni kurikdan o'tkazish texnik vositalari.

temir yul va dengiz konteynerlarini, traylerlarini va refrijeratorlarni kurikdan o'tkazish majmualari.

avia konteynerlarni kurigdan o'tkazish majmualari.

Kidiruvning texnik vositalari kurinish jixatdan ixcham shaklida bulgan yulovchilarning bagajlari, xalqaro pochta junatmalari, banderollar xamda franchport vositalarning kurish imkoniyati bulmagan joylarni bojxona nazoratidan o'tkazish uchun muljallangan texnik nazorat vositalari.

Qiyoslashning texnik vositalari – bojxona xujjatlarning xaqikiyligini, muxrlar va plombalar tugriligini, kimmatbaxo metallarning probasini, kimmatbaxo toshlarni tekshirish, narkotik moddalarini qiyoslash tekshiruvidan o'tkazish, banknotlarning xaqikiyligini tekshirish uchun ishlatiladi.

Tekshirish buyicha nazorat savollari:

1. Tovarlar va transport vositalarni bojxona nazorati ostida tashishga kuyiladigan asosiy talablar?

2. Tranzit bojxona rejimi ostida rioya qilinishi kerak bulgan shartlar?
3. Tashuvchini tovarlar va transport vositalarini tashish uchun qabul kilmaslikka xak-xuquqlari?
4. Bojxona chegarasida olib o'tish yoki olib chiqish xarakatlarini amalga oshirish?
5. Tovar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishni asosiy printsiplari?
6. Bojxona nazoratida ishlatiladigan texnik vositalar?
7. Nozirlik kurigidan o'tkazish?
8. Kidiruv texnik vositalari vositalari?
9. Qiyoslashning texnik vositalari?
10. Xalqaro yuk tashish konventsiyasi?

MA‘RUZA -7: BOJXONA RYejIMLARI

Reja:

7.1.Bojxona rejimlari tushunchasi va ahamiyati.

7.2 Erkin muomilaga tovarlar chiqarish rejimi.

7.3. Reeksport bojxona rejimining mohiyati.

7.4.Eksport va Reimport bojxona rejimlari.

Adabiyotlar: 2,3,5,6,7,9,11,15,17.

Tayanch iboralar:

Bojxona rejimlari, import rejimlar, reeksport rejimlar, eksport rejimlar, reimport rejimlar, bojxona ombori, vaqtincha olib kirish va olib chiqish.

7.1. Bojxona rejimlari tushunchasi va ahamiyati. Bojxona rejimlari – O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuidir.

Quyidagi turdagi bojxona rejimlari belgilanadi:

1. Erkin muomilaga chiqarish yoki import.
2. Reimport.
3. Eksport.
4. Reeksport.
5. Tranzit.
6. Vaqtincha olib kirish va olib chiqish.
7. Vaqtincha saklash.
8. Bojxona ombori.
9. Erkin bojxona zonasi.
- 10.Erkin ombor.
- 11.Boj olinmaydigan savdo dukoni.
- 12.Bojxona xududida kayta ishlash.
- 13.Bojxona nazorati ostida kayta ishlash.
- 14.Bojxona xududidan tashqarida kayta ishlash.
- 15.Yuk qilish
- 16.Davlat foydasiga voz kechish.

Yuridik va jismoniy shaxslar qonun xujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan takdirda tovar va transport vositalarining xususiyati miqdori kaysi mamlkati ishlab chiqarilganligi yoki kaysi maqsadga muljallangan kat‘iy nazar istalgan bojxona rejimini tanlashga yoki uni boshqasiga uzgartirishga xaklidir.

7.2. Erkin muomala uchun tovarlar chiqarish rejimi import kontraktlari, ya'ni O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida sotish uchun tovarlarni chetdan olib kirish uchun xosdir. «Import» tushunchasi «erkin muomala uchun tovarlarni chiqarish» tushunchasi bilan bir xil. Biroq, agar «import» tushunchasi fakat tovarlar olib utilishi yunalishini - mamlakatga chet eldan tovar keltirilishiniga kursatsa, «erkin muomala uchun chiqarish» atamasi mazkur bojxona rejimining mohiyatini ochib beradi. Chiqishga ruxsat berish - «bojxona organlarining bojxona rasmiylashtiruvidan utgan tovarlar va transport vositalarini shaxsning tula ixtiyoriga berish»dir. (BKning 7-moddasi). O'zbekiston Respublikasi xududida erkin muomalada bo'lish - import kiluvchining tovarlar va transport vositalariga uz xoxishiga kura egalik qilish: sotish, almashtirish, uz mulki qilib koldirish xuquqidir.

SHunday qilib, erkin muomala uchun chiqarish bojxona xududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu xududdan olib chiqish majburiyatisiz ularda doimiy koladigan rejimdir (BKning 17-moddasi).

Bojxona rejimi ta'rif quyidagilarni ochib beradi:

mazkur rejimda tovarlarning olib utilishi yunalishi - O'zbekiston xududiga bir marta olib kirish;

olib o'tish maqsadi - tovarlar O'zbekiston xududida koladi va erkin muomalaga chiqariladi.

Moddadan «... ularni olib chiqish majburiyatisiz» kuchirmasi qandaydir vaqtdan keyin ularni O'zbekiston xududidan olib chiqib bulmasligini anglatmaydi. Albatta, zaruriyat bulganda buni amalga oshirish mumkin. Mazkur rejim import kiluvchiga tovarni olib chiqish majburiyatini yuklamaydi, u import kiluvchining muljallanayotgan, keyinchalik olib chiqmagan tovar bilan O'zbekiston xududida olib boirladigan operatsiyalarni amalga oshrish maqsadidan kelib chiqadi. Agar tovarni olib kirishda eng boshidayok biror muddatdan keyin kaytarib olib chiqilishi nazarda tutilgan bulsa, u xolda uzgacha bojxona rejimi bayon qilinishi maqsadga muvofiqdir.

BKning 17-moddasiga muvofiq tovarlarni erkin muomalaga chiqarish uchun majburiy shartlar quyidagilar xisoblanadi:

tovarlarga nisbatan bojar, soliklar tulash va boshqa bojlarni (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yigimlar, boj aktsiz, KKS va boshqalar) tulash;

iqtisodiy siyosat choralariga rioya qilish va boshqa cheklovlar (litsenziyalash, kvotalash, sertifikatlash, davlat organlari nazorati, veterinariya, fitosanitariya va boshqalar).

Erkin muomala uchun tovarlarni chiqarish rejimini qullashga misollar keltiramiz: oldi-sotdi bitishuviga muvofiq xorijiy tovarlarni olib kirish, mashinalar, asbob-uskunalar, boshqa moddiy boyliklarni xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav fondiga ulush sifatida olib kirish, insonparvarlik va texnika yordamini olib kirish, insonparvarlik va texnika yordamini olib kirish va boshqalar.

7.3. Biroq, biror-bir sababga kura, masalan, bozor kon'yukturasi uzgarishi natijasida, xorijiy tovarlarni O'zbekistonning bojxona chegarasiga olib kirayotgan mulkdorda, mulk egasida yoki boshqa shaxsda ularni chegaradan tashqariga olib chiqish zaruriyati raydo bulsa, ushbu xollarda xorijiy tovarlarni O'zbekiston Respublikasining

bojxona chegarasi orqali olib o'tish BKning 20-moddasida belgilangan tovarlar reeksporti bojxona rejimi tartibida amalga oshiriladi.

Reeksport - shunday rejimki, bunda xorijiy tovarlar bojxona xududidan olib chiqiladi.

Tovarlar reeksportiga bojxona organlaritomonidan yoxud O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari, Vazirlar Maxkamasining xujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilanadigan xollarda bunday vakolat berilgan organ tomonidan ruxsat beriladi.

- Bojxona kodeksining 20-moddasi 3, 4-xatboshilariga muvofiq tovarlar reeksport rejimida olib chiqilayotganda tulangan import bojlari va soliklar kaytarilishi va ayni bir paytda quyidagi talablarga rioya etilishi lozim:

- reeksport qilinayotgan tovarlar olib kirilgan paytdagidek xolatda bulsa, tabiiy eskirish yoki normal tashish vasaklash sharoitlarida kamayish okibatidagi uzgarishlar bundan mustasno;

- reeksport rejimida tovarlarni olib chiqish ular olib kirilgan paytdan boshlab ikki yil ichida amalga oshirilayotgan bulsa;

- reeksport qilinayotgan tovarlardan daromad olish maqsadida foydalanilmagan bulsa.

Ayni vaqtda qonun chiqaruvchi tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga olib kirilganda tovarlar reeksporti bojxona rejimivarianti va bayonotini xam nazarda tutgan. Bunday xollarda, agar tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga keyinchalik reeksport rejimida olib chiqib ketishga muljallangan tovar sifatigina ma'lum qilingan bulsa, ular bojxona xududiga olib kirilayotganda import bojlari, soliklar xamda iqtisodiy siyosat choralari qullanilmaydi (BKning 20-moddasi, 2-xatboshi), biroq olib chiqish muddati bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab olti oy bilan chegaralangan. Kursatib utilgan muddat buzilgan takdirda import bojlari va soliklar, shuningdek ular yuzasidan foizlar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda tulanadi.

7.4. Eksport rejimi. «Eksport» tushunchasi tovarlarning mamlakatdan ularni sotish yoki ulardan boshqa mamlakatlarda foydalanishi maqsadida olib chiqilishini anglatadi.bojxona rejimi kabi eksport shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona xududidan tashqariga ularni ushbu xududga kaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqiladi (BKning 19-moddasi).

Eksport rejimini aniqlash quyidagilarni ochib beradi:

olib o'tishning xususiyati (yunalishi - O'zbekistonning bojxona xududidan bir marta olib o'tish);

olib o'tish maqsadi turlicha bo'lishi mumkin - sotish uchun, almashtirish uchun, sovg'a uchun va xokazo.

Bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kunda tovarlar qanday bulsa, shunday xolatda olib chiqilishi tovarlarni eksportning bojxona rejimida chiqarishning muxim sharti xisoblanadi (BK 19-moddasi, 4-qismi).

Tovarlar xolatining tabiiy eskirish yoki normal tashish va saklash sharoitlarida kamayish okibatidagi uzgarishlari bundan istisnodir.

Tovarlarni eksport rejimida olib chiqish eksport boji va boshqa bojxona tulovlari tulangan iqtisodiy siyosat choralariga rioya etilgan va qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablar bajarilgan takdirda amalga oshiriladi (BKning 19-moddasi, 2-qismi).

O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidan eksportning bojxona rejimida olib chiqilgan mamlakatning uzida ishlab chiqarilgan tovarlar BKning 18-moddasiga muvofiq tovarlar reimporti rejimida orkaga kaytarilishi mumkin.

Reimport rejimi. «Reimport» tushunchasi ilgari eksportga muvofiq olib chiqilgan tovarlarning chet eldan takroran olib kirilishini anglatadi. Reimport mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning chet elda kayta ishlanmagan xolda kaytadan olib kirilishidir.

Ushbu rejimda tovarlarning olib utilish yunalishi - O'zbekistonning bojxona xududiga olib kirish. Olib o'tish maqsadi - eksport bojxona rejimiga muvofiq O'zbekistonning bojxona xududidan olib chiqilgandan kaytadan orkaga olib kirish.

- Tovarlarni reimport bojxona rejimida joylashtirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak (BKning 18-moddasi, 2-qismi).

- tovarlar O'zbekistonning bojxona xududiga olib chiqilgan paytdan boshlab un yil ichida kaytarib olib kirilishi kerak;

- ular tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saklash sharoitlarida kamayish okibatidagi uzgarishlar xamda qonun xujjatlarida belgilanadigan boshqa xollarni istisno etganda, olib chiqilgan paytda qanday bulsa, shunday xolatda bo'lishi kerak.

Reimportning kursatib utilgan shartlariga rioya qilingan takdirda tovarlar O'zbekiston Respublikasi xududiga import bojlari, soliklar undirilmasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qulanilmasdan olib kiriladi (BKning 18-moddasi, 1-qismi).

Bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlab uch yil ichida reimport rejimida kaytarib olib kirilgan takdirda, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari olib chiqilayotganda tulanagan eksport boji va soliklar summasini kaytaradi (BKning 18-moddasi, 3-qismi).

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Erkin muomala uchun tovarlar chiqarish rejimi?
2. Reeksport uchun tovarlar chiqarish rejimi?
3. Reeksport rejimi?
4. Eksport rejimi?
5. Reimport rejimi?
6. Bojxona rejimlari tushunchasi?
7. Vaqtincha olib kirish?
8. Vaqtincha olib chiqish?
9. Vaqtincha saklash?
10. Bojxona ombori?

MA'RUZA -8 TOVARLAR VA TRANSPORT VOSITALARNING AYRIM TURLARINI BOJXONA CHYeGARASIDAN OLIB O'TISH RYeJIMLARI

Reja:

- 8.1. Tovarlar tranziti bojxona rejimi.**
- 8.2. Vaqtincha olib kirish va chiqish rejimlari.**
- 8.3. Erkin bojxona zonasi va erkin ombor rejimlari.**
- 8.4. Ayrim tovar va transport vositalarni bojxona chegarasidan olib o'tish.**

Adabiyotlar: 2,4,6,8,10,11,14,16.

Tayanch iboralar

Товарлар транзити, вақтинча олиб кириш, вақтинча олиб чиқиш, эркин бојхона зонаси, эркин омбор, айрим товар ва транспорт воситаларни олиб утиш тартиби.

8.1. Tovarlarining tranziti bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovarlar O'zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi urtasida, shu jumladan chet davlat xududi orqali, boj, soliklar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nasbatan iqtisodiy siyosat choralarini qullamasdan bojxona nazorati ostida olib utiladi (BKning 21-moddasi).

Tovarlar tranziti rejimi O'zbekiston Respublikasi bojxona organining ruxsati buyicha beriladi, biroq BKning 21-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining yuridik va jismoniy shaxslarni kamsitishga yoki ularning manfaatlarini boshqacha tarzda cheklashga qaratilgan xarakatiga javob tarikasida tovarlar tranziti rad etilishi mumkin.

Tovarlar tranziti, agar O'zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan boshqacha xol belgilanmagan bulsa, O'zbekiston xududida istalgan yullar va yunalishlar buyicha amalga oshirilishi mumkin. Junatuvchi bojxona organi transport vositasi imkoniyatlaridan, muljullangan yunalishdan va tashishning boshqa shartlaridan xamda cheklangan muddatdan kelib chiqib tovarni borish punktiga yetkazib berish muddatini belgilashi mumkin.

Tovarlarining tranzit olib utilishining yana ikki sharti mavjud. Birinchi shart: tovarlar tashish paytida uzgarishsiz xolda kolishi kerak, transportda tashish va saklashning normal sharoitlarida tabiiy eskirish yoxud kamayish okibatidagi uzgarishlar bundan mustasno. Ikkinchi shart: ushbu tovarlardan tranzitdan boshqa biror-bir maqsadda foydalanilmasligi kerak.

Agar O'zbekiston Respublikasi bojxona organida tashuvchi yoki uning transport vositasi ushbu shartlarga rioya qilishni kafolatlamaydi, deb taxmin qilish uchun asos mavjud bulsa, bojxona organi transport vositasi zarur darajada jxozlanishi yoxud bojxona xamkorligida tashilishi sharti bilan tovarlarning tranzit bojxona rejimi ostida joylashtirilishiga yul kuyishga xaklidir. Transport vositasi zarur darajada jixozlanishi yoki bojxona tashuvchisi tomonidan tashilishi bilan bog'liq xarajatlarni tranzit rejimi ostida

tovarni tashuvchi kutaradi va ushbu xarajatlar O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan koplamaydi.

Boj tulovlari tulangan xolda, shu jumladan depozitga zarur summani o'tkazish yuli bilan, tovarlar tranziti variantini xam qullash mumkin. U biror-bir sabab bilan tranzitning yuqorida sanab utilgan shartlariga rioya qilish ta'minlanmaydigan xollarda qullaniladi.

BKning 62-moddasiga muvofiq tovarlar tranziti uchun tashuvchi javob beradi. Bu shuni anglatadiki, tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona organining ruxsatisiz berilganda, ular yuk kelib tushish bojxona organiga eltib berilmaganda yoki yukotilganda tashuvchi uxshash tovarlarni erkin muomalaga yoki eksportga chiqarishning bojxona rejimlarida tulanishi kerak bulgan boj tulovlarini tulashi kerak.

Quyidagi xollarda tashuvchi tomonidan boj tulanmaydi:

- tovarlar xaloqat yoki yengib bulmas kuch ta'siri okibatida yuk bulgan yoxud kaytarib bulmaydigan tarzda quldan ketishi;
- kamomad tabiiy eskirish yoki normal tashish va saklash sharoitida kamayishi;
- xorijiy davlatlar organlari va mansabdor shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga xilof xatti-xarakatlari natijasida tovarlar egalikdan chiqib ketishi xollarida (BKning 62-moddasi).

BKda (63-modda) shuningdek tashuvchining xaloqat yuz bergan yoki yengib bulmas kuch ta'sir etgan takdirda tovarlarni transport vositasidan tushirgan xoldagi majburiyatlari xam tartibga solingan.

Tashuvchi:

- tovarlarning but saklanishini ta'minlash va ulardan biron-bir tarzda foydalanishiga yul kuymaslik uchun barcha zarur choralarni kurishi;
- ishning xolatlarini, tovarlar va transport vositalarining kaerda ekanligini O'zbekiston Respublikasining eng yakin bojxona organiga darxol xabar qilishi;
- tovarlarning O'zbekiston Respublikasining eng yakin bojxona organiga tashib keltirilishini yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona organining mansabdor shaxslari tovarlar turgan joyga olib kelinishini ta'minlashi shart.

Sanab utilgan vaziyatlarda barcha xarajatlarni tashuvchi kutaradi, bojxona organi bu xarajatlarni koplamaydi.

8.2. Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) shunday rejimki, bunda bojxona xududida yoki undan tashqarida tovarlardan bojdand, soliklardan tula yoki qisman ozod etilgan xolda va tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qullanmasdan foydalanishga yul kuyiladi (BKning 22-moddasi).

Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimiga joylashtiriladigan tovarlar uzgartirmasdan kaytarilishi lozim, tabiiy eskirish yoxud normal tashish va saklash sharoitlarida kamayish okibatidagi uzgarishlar bundan mustasno (BKning 22-moddasi, 2-qismi).

Mazkur bojxona rejimining batafsil ta'rifini keltiramiz.

Tovarlar olib utilishi yunalishi - keyinchalik kaytadan olib chiqib ketgan xolda O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga olib kirish yoxud keyinchalik kaytadan olib

kirgan xolda mamlakatimiz bojxona xududidan olib chiqish. Ushbu rejimlardan biri tanlangan takdirda bojxona chegarasi ikki marta kesib utilishi kerak (agar vaqtincha olib kirilgandan (olib chiqilgandan) keyin boshqa bojxona rejimi tugrisida ariza berilmagan bulsa).

Olib o'tish maqsadi - mamlakatimizda yoki uning tashqarisida vaqtincha foydalanish maqsadida olib kirish (olib chiqish).

Vaqtincha olib kirish bilan vaqtincha olib chiqish urtasidagi farkni tushunish uchun quyidagi misolni kurib chiqamiz.

Aytaylik, Xamza nomidagi teatr chet elga gastrolga junab ketmokda. Gastrol muddati tamom bulgandan keyin mamlakatimizga kaytarib olib kiriladigan va vaqtincha olib chiqilgandan keyin kaytarib olib kirish sifatida rasmiylashtiriladigan teatr rekvizitlari vaqtincha olib chiqish rejimida rasmiylashtiriladi. Boshqa bir vaziyat: xorijiy teatr mamlakatimizga gastrolga kelar ekan, uzining teatr rekvizitlarini vaqtincha olib kirish bojxona rejimida rasmiylashtiradi, orkaga kaytib ketar ekan, kaytadan olib chiqish tugrisida ariza beradi.

SHunday qilib, vaqtincha olib kirish va vaqtincha olib chiqish - vaqtincha olib kirish (olib chiqish) bojxona rejimining teng xuquqli mustaqil qismlarini tashkil etadi.

Mazkur bojxona rejimi O'zbekiston Respublikasi bojxona organining belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan ruxsatnomasi asosida beriladi.

Bojxona organlari vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimi ostida joylashtirmaydigan tovarlar ruyxati buyicha vaqtincha olib kiriladigan (olib chiqiladigan) tovarlarning ishonchli aynanligini ta'minlash imkoniyati mavjud bulmasa, ularni joylashtirishga ruxsat bermaslikka xaklidir (BKning 22-moddasi, 5-qismi).

O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan belgilangan xollarda mazkur rejimga fakat kayta olib chiqish (olib kirish) majburiyati berilgan takdirdagina yul kuyiladi. Vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimga joylashtiriladigan tovarlarni boj va soliklar tulashdan tula yoki qisman ozod qilish qonun xujjatlarida belgilanadi. (BKning 22-moddasi, 3-qismi).

BKning 23-moddasiga muvofiq tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish) rejimga joylashtirish mumkin bulgan muddat bojxona organlari tomondan bunday olib kirish (olib chiqish)da O'zbekiston Respublikasi bojxona organi tomonidan belgilanadi, biroq, tovarlar bunday rejimda turishining muddati ikki yildan oshmasligi kerak. Bojxona organi tovarlarning ayrim toifalari uchun ancha uzoqrok muddatlar belgilanishi mumkin. Tovarlarning ayrim toifalari uchun muddatlarni uzaytirish bojxona organlari tomonidan qonun xujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovar belgilangan muddat tugagunga kadar unga nisbatan vakolati bulgan shaxs tomonidan bojxona xududidan tashqariga olib chiqilishi yoki u yerga olib kirilishi yoxud boshqa bojxona rejimga joylashtirish lozim.

Belgilangan muddatlar tamom bulgan kunda kaytarilmagan vaqtincha olib kirilgan (olib chiqilgan) tovarlarni boshqa bojxona rejimga joylashtirish xaqida ariza berilishi yoxud tovar O'zbekiston Respublikasi bojxona organi egalik kiladigan bojxona omboriga vaqtincha saklash rejimga joylashtirilishi kerak (BKning 23-moddasi, 2-qismi).

Agar tovarlar xaloqat okibatida yoki yengib bulmas kuch ta'sirida yuk bulganligi yoki mutlako yuqolganligi, tabiiy eskirishi yoki normal tashish va saklash sharoitida kamayishi tufayli yetishmasligi yoxud chet davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga xilof xatti-xarakatlari natijasida shaxsning

egaligidan chiqib ketganligi O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatiya vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari tomonidan tasdiklansa, tovarlarni vaqtincha olib chiqqan va ularni belgilangan muddatda kaytarib olib kirmagan shaxs bojxona organlari oldida javobgar bulmaydi (BKning 23-moddasi, 3-qismi).

Mazkur bojxona rejimi tavsifi xotimasida shuni ta'kidlash kerakki, tovarlarni vaqtincha olib kirish (olib chiqish)da undiriladigan bojlar, soliklarning umumiy summasi bojlar, soliklar tulashtan qisman ozod kilgan xolda, tovarlar eksportning bojxona rejimiga muvofiq erkin muomalaga chiqarilganda yoki olib chiqilganda olib kirish (olib chiqish) paytida tulanishi kerak bulgan bojlar, soliklar summasidan ortiq bulmasligi kerak. Agar kursatib utilgan summalar teng bulgan takdirda, tovar erkin muomalaga chiqarilgan yoki eksport bojxona rejimiga muvofiq olib chiqilgan deb xisoblanadi. Biroq ushbu tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qullanilmasligi shart.

Vaqtincha olib chiqish (olib kirish) rejimi qullanilishiga misollar keltiramiz:

- seriyasi bulmagan buyurtmalarni bajarish uchun asbob-uskunalarni olib kirish, ularni xarid qilish foydali bulmasa va ish bajarilgandan keyin ular kaytarib olib chiqib ketilganda;
- uni sotib olish xaqida qaror qabul qilishdan oldin sinash maqsadida asbob-uskunalarni vaqtinchalik olib kirish;
- kup oborotli tarani (konteynerlar, yashiklar, gisht tagliklari), kurgazma eksponatlarini olib chiqish;
- mamlakatga bir-ikki yilga keladigan shaxs tomonidan mebel, texnika, apparatlarining olib kirilishi.

8.3. Erkin bojxona zonasi va erkin ombor shunday rejimlarki, bunda chet el tovarlari muayyan xududlar va joylarda boj, soliklar va iqtisodiy siyosat choralari qullanilmasdan joylashtiriladi va ishlatiladi, O'zbekiston tovarlari olib chiqishda qullaniladigan shartlarga kura joylashtiriladi va ishlatiladi.

Davlatning bojxona chegarasi erkin bojxona zonalari va erkin omborlar perimetrlari xisoblanadi. Erkin ombor rejimi ostida joylashtirilgan tovarlar olib kirishda undiriladigan boj, soliklar va ularga iqtisodiy siyosat choralari qullanilishiga nisbatan davlatning bojxona xududidan tashqaridagi tovarlar sifatida qaraladi.

Tovarlar erkin bojxona zonasi va erkin bojxona ombori rejimlarida cheklanmagan muddatlargacha turishi mumkin (BKning 27 moddasi, 3-qismi).

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlar doirasida olib kiriladigan, olib chiqiladigan va saklanadigan tovarlar xisobga olinishi kerak, ular bilan yuz beradigan xar qanday uzgarishlar xisobga olish xujjatlarida aks ettirilishi zarur. Ular tugrisida shuningdek O'zbekiston Respublikasi DBK belgilaydigan tartibda bojxona organlariga xisobot takdim etilishi kerak (BKning 27-moddasi, 6-qismi).

BKning 28-moddasiga muvofiq tovarlar erkin bojxona zonalari va erkin omborlardan O'zbekiston Respublikasi bojxona xududining qolgan qismiga yoxud mamlakat bojxona xududidan tashqariga olib chiqilishida boj, soliklar xamda iqtisodiy siyosat choralari tovarlarning kelib chiqishiga qarab qullaniladi.

Tovarning kelib chiqishi tugrisidagi sertifikat bulmagan takdirda tovarga: olib chiqilayotganda eksport boji, soliklar va iqtisodiy siyosat choralari qullanish maqsadlarida O'zbekiston tovari deb, boshqa maqsadlarda olib chiqilayotganda esa chet el tovari deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqilishi lozim bulgan tovarlar erkin bojxona zonalari xududidan va erkin omborlardan bojxona xududiga kaytarilganda yoxud belgilangan muddatlarda ular amalda olib chiqib ketilmagan takdirda, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda boj, soliklar, shuningdek ularning foizlari tulanadi (BKning 28-moddasi, 4-qismi).

Boj tulanishi uchun tovarlarni erkin bojxona zonasiga olib kirgan yoki ularni erkin omborga joylashtirgan shaxs javob beradi.

Erkin bojxona zonasi va erkin ombor rejimlari qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi (27-moddaning 2-qismi).

Erkin bojxona zonasi rejimi amal kilayotgan xududda binolar, imoratlar va inshootlar barpo etishga bojxona organi bilan kelishgan xolda yul kuyiladi (BKning 27-moddasi, 6-qismi).

Erkin bojxona organi rejimi O'zbekiston Respublikasi DBKning litsenziyasi asosida (u berilganligi uchun yigim undiriladi) erkin ombor deb e'lon qilingan binoga yoki boshqa joyga tatbik etiladi.

Erkin omborlarning egalari O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bo'lishi mumkin (BKning 54-moddasi), ular quyidagilarga majburdirlar:

- saklashga kuyilgan tovarlar va transport vositalarini olish imkoniyatini istisno etish, bojxona nazorati bundan mustasno;

- bojxona nazorati amalga oshirilishiga tuskinlik kilmaslik;

- erkin ombor ta'sis etishga berilgan litsenziya shartlariga rioya qilish: bojxona organlari mansabdor shaxslarning omborlardagi tovarlar bilan tanishishini ta'minlash, bojxona nazoratini va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun ularga bevosita bojxona omborida bino, asbob-uskunalar va aloqa vositalarini berish.

Erkin ombor sifatida foydalaniladigan bino yoki boshqa joy bu joy va u yerda turgan tovarlar ustidan bojxona nazorati ta'minlanadigan qilib jixozlanishi kerak. Zaruriyat balganda erkin bojxona ombori ikki tomonlama qulfu kalit bilan jixozlangan bo'lishi, ulardan biri bojxona organida bo'lishi zarur.

Agar litsenziya uni berish tugrisida qaror qabul qilish uchun muxim axamiyatga ega bulgan ma'lumotlar asosida berilgan bulsa, erkin ombor ta'sis etishga berilgan litsenziya bojxona organlari tomonidan bekor qilinishi mumkin (BKning 59-moddasi).

Erkin ombor egasi Bojxona kodeksi talablariga rioya kilmagan yoki litsenziya bundan keyin davlatimizning iqtisodiy siyosatiga muvofiq kelmay qolgan xollarda u tegishli bojxona organi tomonidan kaytarib olinishi mumkin. Kaytarib olish kaytarib olish tugrisida qaror qabul qilingan sanadan boshlab amal kiladi (BKning 59-moddasi).

Litsenziyani kaytarib olish va bekor qilishdan tashqari, agar erkin ombor egasi uz xuquqlarini suiiste'mol kilayapti deb xisoblash uchun yetarlicha asos mavjud bulsa, bojxona organi litsenziyaning amal qilishini uch oy muddatgacha tuxtatib turishi mumkin.

Litsenziya bekor qilinganda va kaytarib olinganda u berilganligi uchun tulangan yigim kaytarilmaydi. Bunday xollarda erkin ombor vaqtincha saklash omboriga aylanadi. Ularda tovarlarni saklashning umumiy muddati olti oydan oshmasligi kerak. Bunda tovar takroriy bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi zarur. Tugatilayotgan omborda saklashning butun davrida (tovar tushgan paytdan boshlab) uning egasidan O'zbekiston Respublikasi

bojxona organlari tomonidan ta'sis etilgan vaqtincha saklash omborlari uchun belgilangan saklash uchun bojxona yigimlari undiriladi (BKning 59-moddasi).

Erkin ombor litsenziyaning amal qilish muddati tugagandan keyin yoxud uning egasining xoxishiga kura tugatilgan takdirda bunday qaror qabul qilingan sanadan boshlab erkin ombor vaqtincha saklash omboriga aylanadi. Unda tovarlarni saklashning umumiy muddati olti oydan oshmasligi kerak, bunda ombor egasi, tugatilgan yoki litsenziya kaytarib olingan xollarda bulgani singari, O'zbekiston bojxona organlari tomonidan ta'sis etilganvaqtincha saklash omborlari uchun belgilangan yigimlarni tulaydi.

Erkin savdo zonalarida va erkin omborlarda u yerga joylashtiriladigan tovarlar bilan ishlab chiqarish va tijorat operatsiyalarini sodir etishga yul kuyiladi, ularni chakana sotish bundan mustasno. Shu bilan birga qonun xujjatlari bilan tovarlarning xususiyatidan kelib chiqib, operatsiyalarni amalga oshirishga muayyan cheklashlar va takiklar joriy etilishi, tovarlarning ayrim toifalarini erkin bojxona zonalariga olib o'tish yoxud ularni erkin bojxona zonalariga olib o'tish yoxud ularni erkin omborlarga joylashtirishga takiklar belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, bojxona organlari BK qoidalariga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun xujjatlariga rioya kilmagan ayrim shaxslarga erkin savdo zonalarida va erkin omborlarda tovarlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni takiklashlari yoxud ularning erkin sado zonolari va erkin omborlarga kirishlarini rad etishlari mumkin (BKning 27-moddasi, 4-qismi).

Pirovardida shuni kayd etish zarurki, bojxona ishi tugrisidagi O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun bojxona organlari yetarli asoslar mavjud bulgan takdirda erkin bojxona zonolari va erkin omborlardagi tovarlar ustidan bojxona nazoratini amalga oshirishga xaklidirlar (BKning 59-moddasi). Mazkur qoida kontrabanda buyumlarini, jumladan, osori atikalar, qirol-yarog va giyoxvandlik moddalarini o'tkazish uchun erkin bojxona zonalaridan va erkin omborlardan foydalanish imkoniyatini yukka chiqaradi.

8.4. Tovarlar va transport vositalarining ayrim turlarini bojxona chegarasidan olib o'tish tartibi. BKning 9-moddasida ayrim tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va olib chiqish ta'kiklanishi mumkin bulgan asos mavjud. Ya'ni: «davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saklash, ma'naviyat, inson xayoti va salomatligini saklash, atrof muxitni muxofaza qilish, O'zbekiston Respublikasi xamda boshqa mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklarini, mulk xuquqini, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlariga bulgan xuquqni, olib kirilayotgan tovarlarni iste'mol kiluvchilarning manfaatlarini ximoya qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlari xamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish takiklanishi mumkin».

Bojxona chegarasi orqali olib o'tish takiklangan tovarlar va transport vositalari, agar O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida yoki xarkaro shartnomalarida bu tovar va transport vositalarini musodara qilish nazarda tutilmagan bulsa, darxol O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketilishi yoxud O'zbekiston Respublikasi xududiga kaytarilishi shart (BKning 9-moddasi, 2-xatboshi).

Tovarlar va transport vositalari darxol olib chiqib ketilmagan yoki kaytarilmagan takdirda ular O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga qarashli bulgan omborga

vaqtincha saklash rejimi ostida joylashtiriladi. Saklash muddati uch sutkadan oshmasligi kerak. Tovarlar va transport vositalari olib chiqilishi va kaytarilishi bilan bog'liq barcha xujjatlarni tovarlar va transport vositalarini olib utuvchi shaxs yoxud tashuvchi kutaradi (BKning 9-moddasi, 3-qismi).

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tishdagi cheklovlar xalaro majburiyatlardan, ichki bozorni ximoya qilish zarurligidan kelib chiqqan xolda, shuningdek chet davlatlar va ular ittifoqlarining xuquqni kamsituvchi yoki O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini kamsituvchi boshqa xarakatlariga javob chorasi tarikasida qonun xujjatlariga muvofiq belgilanishi mumkin (BKning 10-moddasi).

Transport vositalarini olib o'tishning uziga xosligi BKning 12-moddasida mustaxkamlangan.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan transport vositalari, shu jumladan ana shu chegaradan tovar sifatida olib utiladigan transport vositalari bojxona organlari belgilaydigan joylarda tuxtatiladi. Bu talab bajarilmagan takdirda, bojxona organlari transport vositalarini majburlab tuxtatishga xakli.

Ikkinchidan, transport vositalarini tuxtatib turish muddati va joyi bojxona organlari tomonidan tashuvchi bilan birgalikda belgilanadi. Transport vositalarini tuxtatib turish muddati bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi manfaatlariga zid tarzda qisqartirilishi mumkin emas.

Uchinchidan, transport vositalarini ular turgan joydan junatish O'zbekiston Respublikasi bojxona organining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Bojxona chegarasi orqali valyuta boyliklari va kimmatli kogozlarni olib o'tishning uz tartibi va shartlari mavjud. BKning 13-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi, ushbu valyutadagi kimmatli kogozlari, xorijiy valyuta va boshqa valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tish O'zbekiston Respublikasining valyuta tugrisidagi qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu tartibda BK tomonidan boshqa xech qanday kursatmalar berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi DBK O'zbekiston Respublikasida valyuta nazorati organi xisoblanadi. Uning organlari shaxslar tomonidan milliy valyuta, ushbu valyutadagi kimmatli kogozlari, valyuta boyliklari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utilishi ustidan valyuta nazoratini amalga oshiradi. Erkin savdo zonalar va erkin omborlar tegralari bundan mustasnodir. Nazoratning ushbu turi, shuningdek tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasi orqali utilishi bilan bog'liq valyuta operatsiyalariga nisbatan xam joriy etiladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy shaxslar tomonidan nakd xorijiy valyuta olib utilishi va olib chiqilishini tartibga solish chora-tadbirlari tugrisida» 1998 yil 20 martdagi Farmoni); valyuta nazoratini amalga oshirish davomida bojxona qoidalar va valyuta tugrisidagi qonun xujjatlari buzilganligi aniqlangan takdirda aybdor shaxslar BK, O'zbekiston Respublikasining valyuta tugrisidagi va boshqa qonun xujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

Jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni notijorat maqsadlari uchun olib o'tish xususiyatlari BKning 14-moddasida bayon qilingan. Bunday tovarlar O'zbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan belgilanadigan soddalashtirilgan, imtiyozli tartibda olib utilishi mumkin. Imtiyozli tartib boylar va soliklardan tulik yoki qisman ozod qilishni, boylar va soliklarning yagona stavkalarini belgilashni, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qullamaslikni uz ichiga olishi mumkin.

Tovarlarning vazifasi jismoniy shaxs safarining barcha xolatlari xisobga olingan xolda belgilanadi.

DBK O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishuvi buyicha O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlari uchun tovarlarning ayrim toifalarini soddalashtirilgan, imtiyozli tartibda olib o'tishning miqdoriy yoki qiymat cheklashlarini belgilashga xaklidir.

SHuni ta'kidlash muximki, BKning 14-moddasida belgilangan tartibda jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni olib o'tishga aniq cheklashlarni joriy etishda O'zbekiston Respublikasi xukumati quyidagi omillarni xisobga oladi: tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning ushbu davrga shakllangan tizimi, mamlakat iqtisodiyotidagi axvol, mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini ximoya qilish zaruriyati, eksportni ragbatlantirish va umum tomonidan qabul qilingan jaxon bojxona amaliyotiga yakinlashishga intilish.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Tovarlar tranziti rejimi?
2. Erkin bojxona zonasi rejimi?
3. Ayrim transport vositalarini olib o'tish?
4. Ayrim tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tish tartibi?
5. Erkin ombor rejimi?
6. Boj olinmaydigan savdo dukoni?
7. Bojxona xududida kayta ishlash?
8. Bojxona nazoratida kayta ishlash?
9. Bojxona xududidan tashqaridan kayta ishlash?
10. Yuk qilish rejimi?
11. Davlat foydasiga voz kechish?

MA'RUZA -9 BOJXONA TULOVLARI ULARNING MOXIYATI VA XUQUQIY ASOSLARI

Reja:

- 9.1. Bojxona tulovlarining mohiyati.**
- 9.2. Bojxona ta'rifining xuquqiy asoslari, turlari.**
- 9.3. Boj tulovlarining turlari.**
- 9.4. Bojxona imtiyozlari va preferentsiyalari.**

Adabiyotlar: 1,3,5,7,8,9,12,14.

Tayanch iboralar:

Boj, bojxona tulovlari, boj ta'rfi, tovarning boj qiymati, maxsus va dempinga karshi, kompensatsiya bojlari, bojxona imtiyozlari va preferentsiyalar.

9.1. Bojxona tulovlarining mohiyati. Bojxona tulovlarini undirish masalalariga Bojxona kodeksining V bulimi bagishlangan. U ikki bob va un bir moddadan iborat (10-11-boblar, 103-113-moddalar). 10-bob «Asosiy qoidalar»da bojxona tulovlari turlari sanalgan, ularning eng muximlari kiskacha tavsiflangan. Xususan, 103-moddada tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va Kodeksda nazarda tutilgan boshqa xollarda quyidagi bojxona tulovlari tulanishi kuzda tutilgan:

boj;

kushilgan qiymat soligi;

aktsiz soligi;

litsenziya berganlik uchun yigim;

bojxona rasmiylashtiruvi buyicha mutaxassis degan malaka attestatini berganlik uchun yigim;

bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yigimi;

tovarlar saklanganligi uchun bojxona yigimi;

tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun bojxona yigimi;

dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun xak.

Qonun xujjatlari bilan boshqa bojxona tulovlari xam belgilanishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlarga qonun xujjatlariga muvofiq boj, kushilgan qiymat soligi va aktsiz soligi solinadi.

Tovarlar kaytarib olib chiqilgan takdirda ilgari tulanagan boj, kushilgan qiymat soligi va aktsiz soligi summalari qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda kaytarilishi kerak.

9.2. Boj tarifining xuquqiy asoslari. Boj - tarif choralari deganda davlat organlari tomonidan qonun xujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladigan va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy, xuquqiy chora-tadbirlar tushuniladi. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Boj tarifi tugrisida»gi Qonun boj-tarifli tartibga solishni rivojlantirishda yangi boskich bo'ldi. Ushbu qonunga muvofiq tarifli

chora-tadbirlar savdo siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarishning asosiy vositasi xisoblanadi.

Boj-tarifli tartibga solish bojxona ishining iqtisodiy-moliyaviy blokiga tegishlidir.

Boj-tarif tizimi uziga kuplab unsurlarni jamlaydi. Ular tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona orqali tartibga solishning iqtisodiy va ma'muriy chora-tadbirlari jami sifatida qaralishi mumkin.

Boj-tarifi chora-tadbirlari tartibga solishning iqtisodiy usullariga tegishlidir. Ularning iqtisodiy xususiyati tashqi savdo muomalasiga undagi tovarlarning narxiga tugridan-tugri ta'sir kursatish orqali ta'sir kursatish orqali ta'sir kursatish usulidan kelib chiqadi. Boj-tarif chora tadbirlari tovarlarning iste'molchilar tomoniga xarakat yulida qiymat tusigini yaratadi - tovarlar bojxona chegarasi orqali olib utilganda bojlar undiriladi. Bu bilan ular tovarlarning rakobatbardoshligiga ta'sir kursatadi, bu uz navbatida sarmoya jamlanishi darajasiga, rivojlanish sur'atlariga va ishlab chiqarishning ayrim tarmoklari foyda normalariga ta'sir kursatadi. Olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan qullaniladigan boj-tarif chora-tadbirlari bilan narx belgilash jarayoni urtasidagi tugridan-tugri aloqa ushbu chora-tadbirlarga iqtisodiy mazmun baxsh etadi.

Ma'lum ma'noda, agar ularning bevosita qullanilishi bilan bog'liq tashkiliy-xuquqiy muammolarning tor doirasidan kelib chiqiladigan bulsa, boj-tarif chora-tadbirlarining ma'muriy xususiyati tugrisida gapirish mumkin. Masalan, tovarlarning kelib chiqkan mamlakatini belgilaydigan qoidalar va boshqalar mana shundaydir.

Boj-tarif mexanizmini qullash davomida quyidagi asosiy vazifalar xal etiladi: regulativ, savdo-siyosiy, fiskal vazifalar. Undan foydalanishning samaradorligi kup jixatdan normativ tartibga va tashqi iqtisodiy faoliyatni boj-tarif tartibga solish qoidalariga bog'liq bo'ladi.

Bojxona kodeksi va «Boj tarifi tugrisida»gi Qonun birinchi navbatda bunday tartibga solishning qonunchilik asosi xisoblanadi. «Boj tarifi tugrisida»gi Qonunda boj-tarif chora-tadbirlaridan foydalanish maqsadlari va soxasi belgilangan, O'zbekiston Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni tarifli va notarif tartibga solish xuquqiy mexanizmida foydalanadigan asosiy tushunchalar aniqlashtirilgan, boj-tarif chora-tadbirlarini qullashning umumiy printsiplari va qoidalari mustaxkamlangan. Ushbu qonun normalariga muvofiq mazkur chora-tadbirlarni amalda qullash bilan bog'liq aniq masalalarni tartibga solish Xukumat vakolatiga beriladi. Vazirlar Maxkamasi boj stavkalarini belgilaydi xamda ruyxati qonun xujjatlarida mavjud bulgan tarif imtiyozlarini berish tartibini aniqlaydi.

Kurib chiqilayotgan soxada xuquqiy boshqarish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Xukumati qarorlari bilan tartibga solinadi. Keyingi vaqtlarda ushbu darajada boj-tarif chora-tadbirlaridan amalda foydalanish bilan bog'liq kup miqdordagi qarorlar qabul qilindi. Ularning bojxona organlari faoliyatida bevosita qullanilishining xuquqiy asoslarini belgilab beruvchi qarorlar shular jumlasidandir.

Idoraviy darajada me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish kurib chiqilayotgan soxada munosabatlarni tartibga solish xuquqiy mexanizmining zarur jixati xisoblanadi. DBKning me'yoriy xujjatlari kup jixatdan O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosatini amalga oshirishga qaratilgan yunalishlardan biri sifatida boj-tarif chora-tadbirlarining samarali qullanilishini ta'minlaydi, chunki ularni amaliyotda qullash aynan bojxona organlariga yuklanadi.

Boj-tarif chora-tadbirlaridan foydalanish bojxona organlari tomonidan tovarni bojxonada rasmiylashtirish va ularning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utilishi ustidan bojxona nazorati jarayonida amalga oshiriladi.

Quyidagilar bojxona tarifining asosiy aniq maqsadlari xisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasiga tovarlar olib kirilishining tovar tuzilmasini makbullashtirish;
- tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishining, O'zbekiston Respublikasi xududida valyuta daromadlari va xarajatlarining okilona nisbatini qullab kuvvatlash;
- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish tuzilmasida va tovar iste'molida ilgor uzgarishlar uchun shart-sharoitlar yaratish;
- O'zbekiston iqtisodiyotini xorijiy rakobatning noxush ta'siridan ximoya qilish;
- O'zbekistonning jaxon iqtisodiyotiga samarali integratsiyasi uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining boj tarifi - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlarga nisbatan qullaniladigan va TIF TNga muvofiq tizimlashtirilgan boj stavkalari jamidir.

O'zbekiston Respublikasining TIF tovar nomenklaturasi Xukumat tomonidan xalqaro amaliyotda qabul qilingan tovarlarni tasniflash tizimidan kelib chiqib belgilanadi.

Boj tarifi O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga tovarlar olib kelinishiga va ushbu xududdan tovarlar olib chiqilishiga nisbatan qullaniladi.

Boj - O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga tovarlar tovar olib kelinishida yoki ushbu xududdan tovar olib chiqilishida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan undiriladigan tulovdir xamda bunday olib kirish yoki olib chiqishining majburiy sharti xisoblanadi.

Tovarning boj qiymati - «Boj tarifi tugrisida»gi Qonunga muvofiq belgilanadigan va quyidagi maqsadlar uchun foydalaniladigan tovar qiymatidir: tovardan statistikasi; savdo-iqtisodiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini qullash, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq tashqi savdo bitishuvlari va ular buyicha banklarning xisob-kitoblari valyuta nazoratini amalga oshirish.

9.3. Boj tulovlarning turlari. O'zbekiston Respublikasida import, eksport, mavsumiy va aloxida (maxsus, dempingga karshi, kompensatsiya) bojlar qullanilishi nazarda tutilgan.

Import va eksport bojlar stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda urnatiladi.

Import bojlar xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy munosabatlarga ega bulgan xamda ularga nisbatan eng kup qulaylik rejimi qullaniladigan mamlakatlardan chiquvchi tovarlarga nisbatan qullaniladigan mamlakatlardan chiquvchi tovarlarga nisbatan qullaniladigan import boj stavkalarining eng yuqori darajalari qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

Ular savdo-iqtisodiy munosabatlar eng kup qulaylik rejimini kuzda tutmaydigan mamlakatlardan kelib chiqkan yoki kelib chiqish mamlakati aniqlanmagan tovarlarga nisbatan import boj stavkalari ikki baravar kupaytiriladi, «Boj tarifi tugrisida»gi qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tarif preferentsiyalarini takdim etadigan xollar bundan mustasno.

Vazirlar Maxkamasining «Importni tariflar bilan boshqarish chora-tadbirlari» 1998 yil 24 fevraldagi 80-son qaroriga muvofiq 1998 yil 1 martdan boshlab import bojlarining yangi stavkalari belgilangan.

Eksport bojlar stavkalari va ular qullaniladigan tovarlar ruyxati, shuningdek tashqi iqtisodiy tartibga solishning tarifsiz chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi va mamlakat xududida tashqi iqtisodiy faoliyatni tezkorlik bilan tartibga solishning mutlak chora-tadbirlari xisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, eksport-import operatsiyalarini tartibga solishni takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan maxsulotlar eksporti kupayishini ragbatlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportini ragbatlantirish buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida» 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871-son Farmoniga binoan 1997 yil 1 noyabrdan boshlab tovarlarning barcha turlariga eksport bojlar bekor qilingan.

Eksport va import bojlaridan tashqari, qonun bilan shuningdek mavsumiy va aloxida bojlar nazarda tutilgan.

Mavsumiy bojlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadi va tovarlarni olib kirish va olib chiqishni operativ tartibga solish uchun qullaniladi. Bunda boj tarifi bilan nazarda tutilgan boj stavkalari qullanilmaydi. Mavsumiy bojlarning amal qilish muddati 1 yilda ular belgilangan paytdan boshlab olti oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish maqsadida olib kiriladigan tovarlarga nisbatan bojlarning aloxida turlari: maxsus, dempingga karshi, kompensatsiya bojlari vaqtincha qullanilishi mumkin.

Maxsus bojlar:

agar tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga shunga uxshash yoki bevosita rakobatlashuvchi tovarlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga zarar keltirish xavfini tugdiruvchi miqdorda va shartlarda olib kirilsa ximoya chora-tadbirlari sifatida;

boshqa davlatlar yoki ularning ittifoqlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini kamsituvchi va boshqa xarakatlariga javob chorasi sifatida belgilanadi.

Dempingga karshi bojlar quyidagi xollarda belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi bojxona xududida bunday olib kirish paytida olib kirilayotgan mamlakatdagi ularning normal qiymatiga nisbatan pastrok narx buyicha tovarlar olib kirilishi, basharti bu kabi olib kirish bunday tovarlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga moddiy zarar yetkazsa yoki xavf solsa yoxud bunday tovarlarni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish yoki kengaytirishga tuskilik kilsa;

tovarni bunday olib chiqish paytida ularning O'zbekiston Respublikasidagi xaqiqiy qiymatiga qaraganda past narxda bojxona xududi tashqarisiga olib chiqish, agar bunday olib chiqish bu kabi tovarlarni ishlab chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi ishlab chiqaruvchilariga moddiy zarar yetkazsa yoki shunday xavf tugdirsa yoxud O'zbekiston

Respublikasining ishlab chiqaruvchilari urtasida normal rakobat urnatilishiga tuskinlik kilsa.

Kompensatsiya bojlari quyidagi xollarda belgilanadi:

- O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidagi tovarlarni ishlab chiqarish yoki olib kirishda subsidiyalardan tugridan-tugri yoki bilvosita foydalanilgan takdirda tovarlarni olib kirish, agar bunday olib kirish bu kabi tovarlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilariga moddiy zarar yetkazsa yoki shunday xavf tugdirsa yoxud bunday tovarlarni O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni tashkil etish yoki kengaytirishga tuskinlik kilsa;

- ishlab chiqarilishida yoki olib chiqilishida subsidiyalardantugridan-tugri yoki bilvosita foydalanilgan takdirda tovarlarni bojxona xududi tashqarisiga olib chiqish, agar bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga moddiy zarar yetkazsa yoki shunday xavf solsa.

Aloxida boj stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan xar bir xolat uchun aloxida belgilanadi xamda ularning miqdori surishtiruv orqali belgilangan narxni dumping pasaytirish miqdoriga, subsidiyalarga va aniqlangan zararga muvofiq bo'lishi kerak.

Boj stavkalari respublikaning butun xududi uchun yagona xisoblanadi va tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utuvchi shaxslarga, bitishuvlar turlariga va boshqa omillarga (qonunda nazarda tutilgan xollar bundan mustasno) bog'liq ravishda uzgartirilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qullaniladi:

solik solinadigan tovarlarning boj qiymatiga nisbatan foizlarda xisoblab chiqiladigan advalor boj;

solik solinadigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda xisoblab chiqiladigan maxsus bojar;

aytib utilgan xar ikkala bojni uzida jamlovchi kombinatsiyalashtirilgan bojar.

Boj O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga tulanadi.

9.4. Boj imtiyozlari va preferentsiyalar.

Tarif preferentsiyasi deganda (lotincha preferens - ustun kuruvchi) O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarga boj tulashga nisbatan uzaroviylik yoki bir tomonlama tartibda imtiyozlari va preferentsiyalar «Boj tarifi tugrisida»gi Qonun bilan belgilanadi va ular yakka tartibda bulmasligi kerak, mazkur qonunning 33, 34 va 35-moddalarida nazarda tutilgan xollar bundan mustasno. Ular O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladi.

Boj tarifi buyicha preferentsiyalar quyidagi kurinishda beriladi:

- boj tulashdan majburiy ozod qilish;
- istisno xollarda bojdin ozod qilish;
- ilgari tulanagan bojni kaytarish;
- boj stavkalarini pasaytirish;
- preferentsiyali olib kirish (olib chiqish)ga nisbatan tarif kvotalari belgilash.

a) «Boj tarifi tugrisida»gi Qonunga muvofiq quyidagilar boj solishdan ozod qilinadi:

b) xalqaro yunalishda yuklar, bagaj va yulovchilar tashiydigan transport vositalari, shuningdek ularning yulda, oralik tuxtash joylarida bir maromda ishlashi uchun zarur bulgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barxam berish uchun chet ellarda sotib olingan moddiy-texnika ta'minoti buyumlari va asbob-anjomlari, yokilgi, ozik-ovkat maxsulotlari va boshqa mol-mulk;

c) qonun xujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining valyutasi, chet el valyutasi (numizmatika maqsadlari uchun ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek kimmatli kogozi;

d) dengizda ov bilan band bulgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini xamda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (fraxt qilingan) kemalarni ta'minlash maqsadida bojxona xududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-texnika ta'minoti buyumlari va anjomlar, yokilgi, ozik-ovkat va boshqa mol-mulk, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kiriladigan ov maxsulotlari;

e) qonun xujjatlarida nazarda tutilgan xollarda davlat mulkiga aylantirilishi lozim bulgan tovarlar;

f) chet el davlatlar vakillarining, O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari yoki xalqaro shartnomalariga muvofiq boj tulamasdan bularni olib kirish (olib chiqish) xuquqiga ega bulgan jismoniy shaxslarning rasmiy yoki shaxsiy extiyojlari uchun foydalanishga muljallab bojxona xududiga olib kiriladigan yoki bu xududdan olib chiqiladigan buyumlar;

insonparvarlik yordami sifatida, davlatlar, xukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan begaraz yordam tarikasida yoki xayriya maqsadlarida, shu jumladan, texnik yordam kursatish tarzida avariya va xaloqatlar, tabiiy ofatlarning okibatlarini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlar;

bepul o'quv, davolash va maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari uchun muljallangan o'quv qullanmalari;

uchinchi davlatlar uchun muljallangan va bojxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona xududidan tranzit tartibida olib utiladigan tovarlar;

bojxona qonun xujjatlariga muvofiq jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib utiladigan va ishlab chiqarish yoki boshqa tijorat faoliyatini olib borish uchun muljallangan tovarlar.

O'zbekiston Respublikasi boj tarifi buyicha boj tulashdan ozod qilish, boj stavkalarini pasaytirish yoxud tovarlarga nisbatan preferentsial olib kirish (olib chiqish)ga tarif kvotalarini belgilash kurinishida preferentsiyalar berishga yul kuyiladi:

- O'zbekiston Respublikasi bilan birga erkin savdo zonasi yoki bojxona ittifoqini tashkil kilgan yoxud shunday zona yoki ittifoq tuzish maqsadini kuzlovchi bitimni imzolagan davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilanadigan O'zbekiston Respublikasi milliy preferentsiya tizimidan foydalanuvchi rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan tovarlarga nisbatan.

- Favqulodda xollarda ilgari tulanagan bojni kaytarish, boj stavkasini pasaytirish va bojdani ozod qilish kurinishida tarif imtiyozlari berilishiga yul kuyiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida belgilangan tegishli bojxona rejimlari doirasida bojxona nazorati ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga vaqtincha olib kiriladigan yoki undan vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq chet elda investitsiya soxasidagi xamkorlik ob'ektlarini kurish uchun butlovchi buyumlar tarkibida olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidan davlat extiyojlari uchun eksportga ajratilgan xajmlarda olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan;

- O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va chet el korxonalarining ustav fondlariga ulush sifatida olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek qonun xujjatlariga muvofiq maxsulotni taksimlash tugrisidagi bitimlarda nazarda tutilgan xollarda shunday korxonalar olib chiqib ketadigan uzlari ishlab chiqargan tovarlarning ayrim turlariga nisbatan.

Boj imtiyozlari - boj operatsiyalarini amalga oshiruvchi shaxslarga qonun bilan yuelgilangan afzalliklar bulib, ular tomonidan tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishi jarayonida bojdani ozod qilishdan iboratdir.

Xorijiy shaxslarning ayrim toifalariga boj imtiyozlari berishni xuquqiy tartibga solish bilan bog'liq masalalar turkumiga O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 12, 13-boblari bagishlangan.

Ushbu imtiyozlarni xorijiy davlatlar vakillariga va ularning xodimlariga xamda xorijiy shaxslarga beriladigan imtiyozlarga bo'lish mumkin.

I m t i y o z l a r n i n g b i r i n c h i g u r u x i g a xorijiy davlat diplomatik vakolatxonasi boshligi va diplomatik xodimlar a'zolari uchun boj imtiyozlari tegishlidir.

Boj imtiyozlarining ushbu turlari xaqidagi masalani batafsil kurib chiqamiz.

Diplomatiya vakolatxonalari BKning 117-moddasiga muvofiq chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi xududidagi diplomatiya vakolatxonalari bojxona chegarasidan olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya etgan takdirda vakolatxonalar va muassasalarning rasmiy foydalanishi uchun muljallangan tovarlarni bojxona tulovlaridan ozod etilgan xolda O'zbekiston Respublikasiga olib kirishlari va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishlari mumkin, saklanganlik uchun, belgilangan joylardan tashqariga yoki bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvidan utkazganlik uchun olinadigan tulovlar bundan mustasno.

Diplomatiya vakolatxonasi boshligi va diplomatiya jamoasining a'zolari, shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fukarosi bulmagan oila a'zolari uzlarining shaxsiy foydalanishiga muljallangan tovarlarni, shu jumladan ruzgorni bir kadar butlab olishga kerakli tovarlarni bojxona chegarasidan bojxona tulovlaridan ozod etilgan xolda olib o'tishning belgilangan tartibiga rioya qilib O'zbekiston Respublikasiga olib kirishlari va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishlari mumkin, saklanganlik uchun, belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining

belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvdan utkazganlik uchun olinadigan tulovlar bundan mustasno.

Kursatilgan shaxslarning shaxsiy yuki unda shaxsiy foydalanish uchun muljallanmagan tovarlar yoki olib kirish va olib chiqish qonun xujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarda takiklangan yoxud qarantin va boshqa maxsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar bor deb taxmin qilishga yetarli asoslar mavjud bulgan takdirda bojxona kurigidan o'tkazishdan ozod qilinmaydi. Bunday tekshiruv fakat diplomatiya agenti yoki uning vakolati vaqili ishtirokida utkaziladi.

BKning 119-moddasiga muvofiq chet davlat diplomatiya vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari uchun boj imtiyozlari va chet davlat konsullik muassasalariga boj imtiyozlari berilishi tartibga solinadi. Chet davlat diplomatiya vakolatxonasining ma'muriy-texnik xodimlari va ularning uzlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fukarosi bulmasalar yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasalar, ruzgorni bir kadar butlab olishga kerakli tovarlarni bojxona tulovlaridan ozod qilingan xolda O'zbekiston Respublikasiga olib kirishlari mumkin, saklanganlik uchun, belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvdan utkazganlik uchun olinadigan tulovlar bundan mustasno.

BKning 120-moddasiga muvofiq chet davlat diplomatiya vakolatxonasining ma'muriy-texnik va xizmat kursatuvchi xodimlariga, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasi fukarosi bulmagan xamda O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga ushbu Kodeksning 118-moddasiga muvofiq diplomatiya agentlariga beriladigan boj imtiyozlari xar bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus bitim asosida va ular bilan munosabatlardagi xamjixatlik printsipidan kelib chiqib, tatbik etilishi mumkin.

BKning 121-moddasida chet el davlatning konsullik muassasalarining mansabdor shaxslariga va konsullik muassasalarining mansabdor shaxslariga, shuningdek konsullik muassasasi boshligi, konsul xizmatchilari xamda ularning oila a'zolariga chet davlatning diplomatiya vakolatxonalari yoki diplomatiya vakolatxonalarining diplomatiya agentligi uchun boj imtiyozlari berilishi mustaxkamlangan.

CHet davlat konsullik muassasasining xizmat kursatuvchi xodimlarga, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan oila a'zolariga xar bir chet davlat bilan tuzilgan maxsus bitim asosida va ular bilan munosabatlardagi xamjixatlik printsipidan kelib chiqib, chet davlat diplomatiya vakolatxonasining tegishli xodimlari a'zolariga Bojxona kodeksi bilan beriladigan boj imtiyozlari tatbik etilishi mumkin.

BKning 122-moddasida chet davlatning diplomatiya pochta va konsullik pochta koplarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tish tartibga solinadi. Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utiladigan diplomatiya pochta va konsullik pochta koplari ochilishi xam, ushlab turilishi xam mumkin emas. Konsullik pochta kopida 122-moddaning uchinchi qismida kursatilmagan narsalar (rasmiy yozishmalar va fakat rasmiy foydalanishga muljallangan xujjatlar va ashyolar) bor deb gumon qilish uchun jiddiy asoslar mavjud bulgan takdirda, O'zbekiston Respublikasi bojxona organi O'zbekiston Respublikasi bojxona oraganining mansabdor shaxslari ishtirokida konsullik pochta kopini ochishni talab qilishga xakli. Pochta kopini ochishdan bosh tortilgan takdirda konsullik pochta kopi junatilgan joyiga kaytarib yuboriladi.

Diplomatiya pochtasida fakat diplomatiya xujjatlari va rasmiy foydalanish uchun muljallangan tovarlar bo'lishi lozim.

Xorijiy diplomatiya va konsullik yuklari uchun boj imtiyozlari imtiyozlarning ikkinchi guruxiga tegishlidir. Ular shaxsiy foydalanishga muljallangan tovarlarni, uzaroviyligi asosida bojxona kurigidan, bojxona tulovlaridan ozod qilingan xolda, saklanganlik uchun tulovlar, tovarlar buning uchun belgilangan maydon tashqarisida va O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining ish vaqtidan tashqaribojxona rasmiylashtiruvidan utkazilganligi uchun tulovlar va shunga uxshash xizmatlarga tulovlar bundan mustasno, O'zbekiston Respublikasiga olib kirishlari va olib chiqishlari mumkin.

Xorijiy davlatlar vakillariga, parlament va deklegatsiyalari a'zolariga, shuningdek O'zbekistonga davlatlararo muzoqarolarda, xalqaro konferentsiyalar va kengashlarda qatnashish uchun yoki boshqa rasmiy topshiriklar bilan keluvchi xorijiy davlatlar delegatsiyalari xodimlariga uzaroviylilik asosida xorijiy davlat vakolatxonasi diplomatiya jamoasi a'zolari uchun nazarda tutilgan boj imtiyozlari beriladi. Bunday imtiyozlar kursatib utilgan shaxslarga xamroxlik kiluvchi ularning oila a'zolariga xam beriladi.

CHet davlat vakolatxonasi diplomatiya jamoasi a'zolariga va konsullik muassasasi mansabdor shaxslariga, ularning oila a'zolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi bojxona xududidan usha maqsadda tranzit utayotgan chet davlatlar vakillari va delegatsiyalarining a'zolariga vakolatxonalar diplomatiya jamoasi a'zolari uchun nazarda tutilgan boj imtiyozlari beriladi.

Xalqaro, xukumatlararo va xukumatga qarashli bulmagan tashkilotlar, ular xuzuridagi chet davlatlar vakolatxonalari, shuningdek ushbu tashkilotlar xamda vakolatxonalarning xodimlari va ularning oila a'zolari uchun boj imtiyozlari O'zbekiston Respublikasining tegishli xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Bojxona tulovlari turlari?
2. Boj tarifining asosiy maqsadlari?
3. Boj tarifi?
4. Import va eksport bojlar stavkalari?
5. Mavsumiy va aloxida bojlar stavkalari?
6. Boj tarifi buyicha preferentsiyalar?
7. Boj imtiyozlari?
8. Litsenziya ma'nosi?
9. Aktsiz soligi?
10. Kushilgan qiymat soligi?
11. Dempinga karshi bojlar?

MA'RUZA -10 TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT. TOVAR NOMYENKLATURASI VA UNING QOIDALARI

Reja:

- 10.1. Xalqaro konventsiyaning mohiyati.**
- 10.2. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi tushunchalari.**
- 10.3. TIF TNni sharxlashning asosiy qoidalar.**
- 10.4. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash.**

Adabiyotlar: 1,2,4,5,6,8,11,13,17.

Tayanch iboralar:

Xalqaro konventsiya, TIF TN, tovar nomenklaturasi, tasniflash tizimi, kodlashtirish tizimi, TIF TN ni sharxlash qoidalar, tovar ishlab chiqaradigan mamlakatni aniqlash,

10.1. xalqaro konventsiya. jaxon amaliyotiga muvofiq bulgan tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning yangi printsiplariga o'tish (tarifli boshqarish, litsenziyalash, kvotalash va xokazolar) yuk oborotida bulgan tovarlar ustidan bojxona nazoratini tashkil etishni uzgartirishni takozo etadi. tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimi (ut) negizida ishlab chiqilgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (tif tn) tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarish chora-tadbirlari tizimi bo'ldi.

kuplab mamlakatlarning boj tariflari uchun 1983 yilda bojxonalar xamkorligi kengashi tomonidan ishlab chiqilgan tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimiga asoslanish xarakterlidir. undan bojxona ishidan keng foydalanila boshlandi.

ut paydo bo'lishi mexnatning xalqaro taksimoti rivojlanishi, xalqaro savdo usishining nisbatan tezkor sur'atlari, kuplab yangi tovarlarning paydo bo'lishi va boshqa omillar batafsilrok va birxillashtirilgan tashqi savdo tasnifnomasini ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqarganligi bilan bog'liqdir. u xalqaro savdo statistika ma'lumotlarini tuplash, qiyoslash va taxlil qilishni yengillashtirishi, tijorat xujjatlarining bir xil bo'lishag kumaklashishi, statistika ma'lumotlarining bir tasnif tizimidan boshqasiga o'tishi bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirishi, tashqi savdo, sanoat va transport milliy statistikasi urtasida mustaxkamrok aloqaga erishishga kumaklashishi kerak edi.

ut 10 yil davomida ishlab chiqildi. uni tuzish negiziga asosan bojxonalar xamkorligi kengashining ilgari ggi nomenklaturasi qabul qilindi. u xalqaro amaliyotda bryussel bojxona nomenklaturasi (1950 y.) yoki xalqaro savdo tasnifi sifatida ma'lumdir. bundan tashqari, yana 12 ta turli xalqaro va milliy tasnif tizimlaridan foydalanilgan. utni qabul kilgan davlatlar tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uygunlashtirilgan tizimi

tugrisidagi xalqaro konventsiya - shartnomani tuzdilar. ushbu konventsiyaning muqaddimasida axdlashuvchi tomonlar bitimni asosan xalqaro savdoni rivojlantirishga kumaklashish, statistika ma'lumotlarini tuplash, takkoslash va taxlil qilishni soddalashtirish, bir tizimdan boshqasiga o'tishda tovarlarni takroriy tavsiflash, tasniflash va kodlashtirish tufayli kelib chiqadigan xarajatlarni kamaytirish xamda xalqaro savdo bilan bog'liq turli doiralar foydalanishi uchun yarakli bulgan yagona bojxona - statistika nomenklaturasini qullash vositasida iqtisodiy va ishlab chiqarish extiyojlarini kondirish maqsadida imzolanganliklari kayd etiladi.

ut xalqaro konventsiyasi 20 moddadan iborat. 3-moddada axdlashuvchi taraflarning majburiyati xaqida suz boradi. taraflar bojxona-statistika nomenklaturasi qullanilishiga aniq amal qilish, utning barcha tovar pozitsiyalari va kichiq pozitsiyalaridan, shuningdek biror-bir uzgarish va kushimchalarsiz ularga tegishli bulgan raqamli kodlardan foydalanish majburiyatini uz zimmalariga oladilar. bunda taraflar uz nomenklaturasida utga qaraganda kup xonali miqdor buyicha tovarlarni tasniflash uchun kichiq bulimlarni tashkil etish takiklanmaydi, bunda kichiq bulimlar olti xonali raqam kodidan tashqari kushilishi va kodlashtirilishi shart.

4 va 5-moddalarda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan utning qullanilishi va ularga texnik kumaklashish tugrisida suz boradi. agar axdlashuvchi taraf rivojlanayotgan mamlakat bulsa, u xolda u uzining tashqi savdo tuzilmasini va xujalik imkoniyatlarini xisobga olib talab qilinishi mumkin bulgan muddatga utning barcha yoki bir qism kichiq pozitsiyalari qullanilishini kechiqtirishi mumkin. agar axdlashuvchi taraf rivojlangan mamlakat bulsa, bu xolda u rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning iltimosiga kura uzaro keshilgan shartlarda texnikaviy tomondan kumaklashadi.

6 va 7-moddalar ut buyicha kumita tashkil etishga va uning funksional vazifalariga bagishlangan. konventsiyaga muvofiq ut buyicha kumita tashkil etiladi. kumita xar bir axdlashuvchi taraf vakillaridan iborat bo'ladi. u bir yilda kamida ikki marta tuplanadi. zaruriyat bulganda konventsiyaga istalغان tuzatishlarni taklif etuvchi ushbu ishchi organ utni talkin etishga tegishli bulgan tushuntirishlar va boshqa tavsiyalarni tuzadi, buni qullashga tegishli bulgan axborotni takkoslaydi va tarkatadi.

konventsiyaning 8-moddasida suz yuritiladigan kengash kumita tomonidan ishlab chiqilgan tuzatishlar tugrisidagi takliflarni kurib chiqadi. u bularni puxta urganadi va tasdiklaydi.

konventsiya shuningdek tomonlarning axdlashuvchi taraf sifatida ishtirokining xuquqiy asosini nazarda tutadi (11-modda). ushbu moddaning mazmuni quyidagicha: kengash a'zolari bulgan davlatlar, konventsiya tomonidan tartibga solinadigan barcha yoki ayrim masalalar mavzusi xisoblangan shartnomaga kirish vakolati berilgan bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar, kengashining kurgazmasiga kura bosh kotib taklif yuboradigan istalغان boshqa davlat konventsiyaning axdlashuvchi taraflari bo'lishi mumkin.

konventsiya muddatsiz xisoblanadi (15-modda), biroq, istalغان taraf uni bekor qilishi, ya'ni xaqikiy emas deb e'lon qilishi, uz xarakatini tuxtatishi mumkin. bekor qilish bosh kotib tomonidan bekor qilish tugrisida bildirishnoma olingandan keyin bir yildan sung kuchga kiradi.

16-moddada konventsiyaga tuzatishlar kiritish tartibi nazarda tutilgan. birlashgan millatlar tashkiloti ustavining 102-moddasiga muvofiq konventsiya bmt kotibiyati ruyxatdan utkazilishi kerak.

10.2. tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi tushunchalari. tovar nomenklaturasi deganda tegishli tasnif tizimi buyicha taksimlangan tovarlar ruyxati tushuniladi.

tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (tif tn) uzida tasniflash va kodlashtirish tizimidan iborat puxta tuzilmani ifodalaydi.

tasniflash tizimida tovar nomenklaturasi oltita boskichga egadir: bulimlar, guruxlar, kichiq guruxlar, pozitsiyalar, kichiq pozitsiyalar, subpozitsiyalar.

TIF TN kurilishi asosiga tovarlarning turli belgilari jami asos qilib olingan. Masalan, bulimlarni shakllantirishda quyidagi belgilardan foydalaniladi:

- tovarning kelib chiqishi buyicha - I bulim «Tirik xayvonlar va xayvonlar maxsulotlari»; II bulim «Usimlik maxsulotlari»; V bulim «Mineral maxsulotlar»;

- tovar tayyorlangan material turi buyicha - VIII bulim «CHarm xam ashyosi, charm, muyna, sarrojlilik buyumlari va egar-jabduklar, yul anjomlari va boshqalar»; IX bulim «Ugoch-taxta va ulardan yasalgan buyumlar, poxoldan yasalgan buyumlar, savatlar va chivikdan yasalgan boshqa buyumlar»; X bulim «Taxta kepagi va boshqa tsellyuloza tolasidan yaraimtayyor maxsulotlar, kogoz va boshqalar»; XII bulim «Toshdan, gipsdan yasalgan buyumlar, keramika maxsulotlari»; XVI bulim «Marvarid, kimmatbaxo toshlar, asl metallar»; XV bulim «Kora va rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar»;

- vazifasiga kura - IV bulim «Tayyor ozik-ovkat maxsulotlari, ichimliklar, tamaki»; XI bulim «Gazmol va tukimachmilik buyumlari»; XII bulim «Poyabzal, bosh kiyimlari va boshqalar»; XIII bulim «Transport vositalari va ularga yordamchi asbob-uskunalar»; XVIII bulim «Asbob va apparatlar»; XIX bulim «Xar xil tayyor buyumlar»; XXI bulim «San‘at asarlari, osori atikalar»;

- kimyoviy tarkibiga kura - III bulim «Uglar va moy, mum va boshqalar»; VI bulim «Kimyo sanoati va u bilan bog‘liq sanoat tarmoklari maxsulotlari»; XXI bulim «Plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar, kauchuk va rezina buyumlari».

Guruxlarni tashkil etishga tovarlarga ishlov berishning xom ashyo, yarimtayyor maxsulotdan tortib, tayyor maxsulotgacha ishlov berish izchilligi asos qilib olingan. Bu TIF TNni boj tariflarida qullash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Tovar pozitsiyalari, kichiq pozitsiyalar va subpozitsiyalar tuzilishida xar bir guruxda belgilarning uz izchilligi qullaniladi. Ularning jamidan turtta asosiy belgini ajratib kursatish mumkin: ishlov berish darajasi, vazifasi, material turi va tovarning jaxon savdosidagi axamiyati.

Tovar nomenklaturasida tovarning xech qanday istisnosiz guruxga kiritilishi printsiptiga kat‘iy rioya qilinadi. Bunga xar bir tovarni fakat bir tasniflash guruxiga kiritish imkonini beruvchi uzaro istisno usulini qullash yuli bilan erishiladi. Guruxga yoki tovar pozitsiyasiga kiritiladigan aniq tovarlar ruyxati ob‘ektlarini va xar bir tasniflash guruxlari chegaralarini aniqlashning usullaridan biri xisoblanadi. Masalan, «Ugitlar» guruxiga izoxlarda ugit sifatida tasniflanishi kerak bulgan azot, kaliy va fosforli ugitlar sanalgan. «Kaliyli ugitlar» tovar pozitsiyasiga kaliy tuzi (ishlov berilmagan, natural), xlorli kaliy, magniy sulfatlar, kaliy sulfatlar, shuningdek ularning aralashmalari kiradi.

Kodlashtirish tizimi birmuncha boshqa maqsadlarni kuzlaydi. Tovarlarni kodlashtirish - tasniflanadigan ob‘ektni muayyan tizim buyicha belgilangan qoidalarga kura belgi yoki belgilar guruxi sifatida tasavvur qilish imkonini beruvchi texnik usuldir.

Ushbu xolda axborot uni tuplash, uzatish va EXMda ishlashda operatsiyalarni amalga oshirish mumkin bulgan qulay shaklda beriladi.

Tovar nomenklaturasida kodlashtirishning aralash usulidan foydalaniladi, ya'ni kodlashtirish tizimining kurib chiqilayotgan tasnifnomasida bo'lishning oliy darajasida mustaqil xususiyat (ruyxatdan o'tkazish usuli), qolgan barcha boskichlarda esa qabul qilingan belgilarning jamlanishi asosida tovarlarning dastlabki tasnifiga asoslanadi.

TIF TNda raqamli belgilar qullaniladi, bunda bulimlar va kichiq guruxlar uchun rim raqamlaridan, tovar guruxlari, pozitsiyalar va subpozitsiyalar uchun arab raqamlaridan foydalaniladi. Bulimlar va kichiq guruxlarning kodlari bir-biri bilan, shuningdek guruxlar kodlari, tovar pozitsiyalari va subpozitsiyalar bilan uzaro boglanmagan. Tovar kichiq pozitsiyalari uchun raqamli kod nazarda tutilmagan, ular tire (-) belgisi bilan belgilanadi. UT uz birlashgan tovarlar nomenklaturasini oladi. TIF TNning tukkiz belgili raqamli kodi quyidagi unsurlardan tashkil topadi: dastlabki olti raqam Uygunlashtirilgan tizim buyicha tovar kodini anglatadi, usha olti raqam plyus yettinchi va sakkizinchi belgilar YeII kombinatsiyalashtirilgan tarif-statistika nomenklaturasi buyicha kodni xosil kiladi, tukkizinchi raqam - xozircha barcha xollarda «0» - kelajakda davlatlarning manfaatlarini xisobga olgan u yoki bu tovar pozitsiyalarini batafsil kodlashtirishga muljallangan.

Tovarning tovar nomenklaturasidagi xolatini tugri belgilash (uni tasniflash) ushbu tovar tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning kaysi bir rejimiga tushishini aniqlash uchun xal kiluvchi axamiyatga ega bo'ladi. Tovarni notugri tasniflash yoki bojxona deklaratsiyasida notugri ma'lumotlarni kursatish yuli bilan aniq bir tovar chegara orqali olib utilishining belgilangan tartibidan buyin tovlash bojxona organlari tomonidan uzida amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keluvchi qonun buzilishi sifatida qaraladi.

TIF TNda bulimlar, guruxlar, aniq tovar pozitsiyalariga izoxlarga muvofiq, shuningdek yuridik qoidalariga binoan tovarlarni tasniflash guruxlari buyicha bir xilda kiritish printsipiga kati'y rioya qilinadi.

10.3. TIF TNni sharxlashning asosiy qoidalari. Tovarlarni tasniflashda quyidagi qoidalarga amal qilish zarur.

Bulimlar, guruxlar va kichiq guruxlar nomi fakat ishda nomenklaturadan foydalanish qulayligiga muljallangan. Yuridik maqsadlar uchun tovarlar tasnifi tovar pozitsiyalari nomlariga va bulimlar xamda guruxlarga izoxlarga muvofiq belgilanadi, agar bunday nomlar va izoxlar quyidagi qoidalarga muvofiq boshqacha talkin qilinishini talab etmasa.

2. a) Biror-bir tovarning tovar pozitsiyasi nomiga xar qanday xavola uzida butlanmagan yoki tugallanmagan kurinishda tovarga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak, bunda ushbu tovar butlanmagan yoki tugallanmagan kurinishda tovarga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak, bunda ushbu tovar butlanmagan yoki tugallanmagan kurinishda tovarga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak, bunda ushbu tovar butlanmagan yoki tugallanmagan kurinishda tovarga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak, bunda ushbu tovar butlanmagan yoki tugallanmagan kurinishda ifodalangani xolda komplekt yoki tugallagan tovarning asosiy tavsiflarga ega bo'lishi shart. Bu shuningdek yigilmagan yoki qismlar kurinishida takdim etilgan tugallanmagan tovar (yoki mazkur qoidaga kura komplekt yoki tugallangan sifatida tavsiflanadigan)ning tegishli tovar pozitsiyasiga kiritilishi tushunilishi kerak.

b) Tovar pozitsiyasida biror-bir materialga yoki moddaga xar qanday xavola ushbu material yoki moddaning aralashmasiga yoki ularning boshqa materiallar yoki moddalar bilan birikuviga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak. Muayyan material yoki moddadan tayyorlangan tovarlarga xar qanday xavola tulik yoki qisman bunday material yoki moddadan iborat bulgan tovarlarga xavolani uz ichiga oluvchi sifatida tushunilishi kerak. Bittadan ortiq material yoki moddadan iborat bulgan tovarlar tasnifi 3-Qoidada kursatilgan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

2(b)-Qoida qullanilganda yoki boshqa biror sabab bilan tovarlarni ikki yoki undan ortiq tovar pozitsiyalariga kiritish mumkin bulganda tasniflash quyidagi tarzda amalga oshirilishi zarur:

a) Ustunlik umumiyrok tavsifli tovar pozitsiyasiga qaraganda tovarning eng aniq bayoni mavjud bulgan tovar pozitsiyasiga beriladi. Biroq, ikki yoki undan ortiq tovar pozitsiyalarining xar biri buyumlar aralashmasi tarkibiga kiruvchi materiallar yoki moddalarning atigi bir qismiga yoki chakana savdo uchun takdim etilgan tovarlarni fakat ayrim elementlariga tegishli bulganda, tovar pozitsiyasi ma'lumotlari, xatto agar ulardan biri tovarga tulik yoki aniq tavsif bersa xam, bunday tovarlarga nisbatan teng darajada uziga xos deb qaralishi kerak.

b) Aralashmalar, turli materiallardan iborat bulgan yoki xar xil komponentlardan tayyorlangan kup komponentli buyumlar va chakana savdo uchun takdim etilgan tuplamdagi tovarlar, agar ushbu printsiptni qullash mumkin bulsa, ularga asosiy belgilarni baxsh etadigan materiallar yoki tarkibiy qismlar buyicha tasnif qilinadi.

v) 3(a) va 3(b)-Qoidalariga muvofiq tasnif qilinmaydigan tovarlar qarab chiqilayotgan tovar pozitsiyalarining sungisida (eng kup tartib raqamlarga ega bulganida) tasnif qilinadi.

Tasnifi yuqorida eslatib utilgan Qoidalarga muvofiq belgilanishi mumkin bulmagan tovarlar tasnif qilinayotgan tovarlarga eng uxshash bulgan tegishli tovarlarning tovar pozitsiyasida tasnif qilinadi.

Esatib utilgan qoidalarga kushimcha ravishda quyida nomma-nom keltiriladigan tovarlarga nisbatan quyidagi qoidalar qullanilishi zarur:

Aloxida shaklga ega bulgan va uzoq muddat foydalanishga yarakli bulgan tegishli buyumlarni yoki buyumlar tuplamini saklashga muljallangan buyumlar bilan birgalikda takdim etilgan fotoapparatlar, muzika asboblari, qirol-yarog, chizmachilik anjomlari, marjonlar uchun giloflar va shunga uxshash idish (urash)lar uralgan buyumlar bilan birgalikda tasnif qilinishi kerak. Biroq, mazkur qoida uralgan buyumlar bilan birgalikda yaxlit bir butunlikni xosil etib, uralgan buyumga jiddiy ravishda boshqacha tus beradigan idishga nisbatan qullanilmaydi.

5(a)-Qoidaga muvofiq tovarlar bilan birgalikda yetkazib beriladigan urash materiali va urash konteynerlari, agar odatda foydalaniladigan kurinishda mazkur tovarni urash uchun foydalanilsa, birgalikda tasnif qilinishi kerak. Biroq, mazkur qoida, agar bunday urash materiali yoki urash konteynerlari takroriy foydalanishga yarakli bulsa, majburiy xisoblanmaydi.

Yuridik maqsadlar uchun istalgantovar pozitsiyasi subpozitsiyalarida tovarlarni tasnif qilish bunday subpozitsiyalar nomlariga va istalgan ular bilan bog'liq izoxlarga, shuningdek fakat bir darajadagi subpozitsiya qiyosiy xisoblanishi sharti bilan belgilanadi. Mazkur Qoida maqsadlari uchun, agar matnda uzgacha xol kayd etilmagan bulsa, bulimlar va guruxlarga nisbatan tegishli tushuntirish va izoxlar qullanilishi mumkin.

Tasnif guruxlanishini bir xil ma'noda tushunish TIF TNning ustunligigina bulib kolmasdan, balki boj stavkalarini boshqa tulovlarni, u yoki bu tovarlarning eksport-import rejimlarini aniqlashda, turli mamlakatlar tashqi savdosi buyicha ma'lumotlarni qiyoslashda va iqtisodiy-statistika taxlilini amalga oshirishda zarur shart xisoblanadi.

10.4. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash. «Boj tarifi tugrisida»gi qonunda tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlashning xuquqiy asoslari berilgan. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakat tovarning O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga olib kirilishi va tovarning ushbu xududdan olib chiqilishini tartibga solishning tarifli va notarif chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadida aniqlanadi. Qonunda kursatilgan tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash printsiplari mavjud xalqaro amaliyotga asoslanadi.

Tovar tulik ishlab chiqarilgan yoki qonun bilan belgilangan mezonlarga muvofiq yetarlicha kayta ishlangan mamlakat tovarishlab chiqarilgan mamlakat xisoblanadi. Bunda agar tovarni ishlab chiqargan mamlakatni aniqlash maqsadlari uchun ularni ajratib kursatish zarur bulsa, mamlakatlar guruxi, mamlakatlarni bojxona ittifoqlari, mamlakat mintaqasi yoki uning bir qismi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat sifatida tushunilishi mumkin. Quyidagilar muayyan mamlakatda tulik ishlab chiqarilgan tovarlar xisoblanadi:

uning xududidan yoki xududiy suvlaridan yoxud kontinental shelfidan va dengiz ostidan olingan foydali kazilmalar, agar mamlakat dengiz ostini kazish uchun mutlak xuquqqa ega bulsa;

mamlakat xududida ustirilgan yoki yigib olingan usimlik maxsulotlari;

mamlakatda tugilgan va parvarish qilingan tirik xayvonlar;

mamlakatda yetishtirilgan xayvonlardan olingan maxsulot;

mamlakatda tayyorlangan ovchilik, balikchilik va dengiz ovi maxsuloti;

mamlakat kemalarida yoki u ijaraga olgan (fraxt kilgan) kemalarda Jaxon okeanida ovlangan va (yoki) tayyorlangan dengiz ovi maxsulotlari va boshqalar.

Agar tovarni ishlab chiqarishda ikki yoki undan ortiq mamlakat ishtirok etayotgan bulsa, uning ishlab chiqarilgan joyi shu tovarning yetarli darajada kayta ishlanganligi mezoniga muvofiq aniqlanadi. Muayyan mamlakatda tovarning yetarli darajada kayta ishlanganligi mezonlari quyidagilardan iborat:

tovarni kayta ishlash natijasida uning Tovar nomenklaturasidagi urnining (tovarning tasniflovchi kodining) dastlabki turtta kod belgisining istalgan biri darajasida uzgarishi;

tovar ushbu operatsiya yuz bergan joydagi mamlakatda ishlab chiqildi deb xisoblash uchun yetarli yoki yetarli bulmagan ishlab chiqarish yoki texnologik operatsiyalar bajarilishi va boshqalar.

Tovarning ushbu mamlakatda ishlab chiqarilganligini tasdiklash uchun O'zbekiston Respublikasi bojxona organi tovarning kelib chiqishi tugrisidagi sertifikat takdim etilishini talab qilishga xaklidir. Tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona xududidan olib chiqishda tovarning kelib chiqishiga doir sertifikat zarur bulganda va u tegishli kontraktlar, olib kirilayotgan mamlakatning milliy qoidalarida yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarida kayd etilgan xollarda takdim etiladi xamda bunga vakolatli organga topshiriladi. Tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona xududiga olib kirishda tovarning kelib chiqishiga doir sertifikat quyidagi xollarda majburiy tartibda takdim etiladi:

- boj tarifi buyicha O'zbekiston Respublikasi tomonidan preferentsiya berilgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga;

- muayyan mamlakatdan olib kirilishi miqdoriy cheklovlar (kvotalash) orqali yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning boshqa choralari orqali boshqarib turiladigan tovarlarga;

- agar bu O'zbekiston Respublikasi qatnashchi bulgan xalqaro bitimlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining atrof muxitni muxofaza qilish, axoli sogligini muxofaza qilish, iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish, ijtimoiy tartib, davlatt xavfsizligi va O'zbekiston Respublikasining boshqa xayotiy muxim manfaatlari soxasidagi qonun xujjatlarida nazarda tutilgan bulsa;

- bojxona rasmiylashtiruvi uchun takdim etiladigan xujjatlarda tovar ishlab chiqarilgan mamlakat tugrisidagi ma'lumotlar mavjud bulmagan yoxud O'zbekiston Respublikasi bojxona organida tovarning kelib chiqishi tugrisidagi ishonchsiz ma'lumotlar deklaratsiyada kayd etilayotganligi tugrisida asos mavjud bulgan xollarda.

Tovar kelib chiqishiga doir sertifikat mazkur tovarning muayyan mamlakatda ishlab chiqarilganligidan aniq dalolat berishi va unda:

junatilgan tovarning tegishli kelib chiqish mezonlariga mosligi xaqida tovar junatuvchi tomonidan berilgan yozma ariza;

sertifikatda keltirilgan ma'lumotlarning xaqikiyligi tugrisida tovar olib chiqib ketilayotgan mamlakatning sertifikat bergan vakolati organining yozma guvoxnomasi bo'lishi lozim. Tovarning kelib chiqishiga doir sertifikat bojxonada rasmiylashtirish uchun zarur bulgan bojxona deklaratsiyasi va boshqa xujjatlar bilan birga takdim etiladi. Sertifikat yukotilgan takdirda, uning rasmiy ravishda tasdiklangan dublikati qabul qilinadi.

Mavzu buyicha nazorat savollari:

1. Xalqaro konventsia moddalari?
2. TIF TN tushunchalari?
3. Tasniflash tizimi?
4. Kodlashtirish tizimi?
5. TIF TNni sharxlashni asosiy qoidalari?
6. Tovar ishlab chiqarilgan mamlakatni aniqlash?
7. TIF TN ni tasniflashning birinchi qoidasi?
8. TIF TN ni tasniflashning ikkinchi qoidasi?
9. TIF TN ni tasniflashning uchinchi qoidasi?
10. TIF TN ni tasniflashning turtinchi qoidasi?
11. TIF TN ni tasniflashning beshinchi qoidasi?
12. TIF TN ni tasniflashning oltinchi qoidasi?

**MA‘RUZA -11 BOJXONA XAQIDAGI QONUN
XUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN
JAVOBGARLIK**

Reja:

- 11.1. Bojxona xaqidagi qonunlar buzilishi tushunchasi.
- 11.2. Javobgarliklar mohiyati va sub‘ektlar.
- 11.3. Bojxona qoidolari buzilganda beriladigan jazo turlari.
- 11.4. Kontrabanda va unga qarshi kurashish

Adabiyotlar: 1,3,5,7,9,11,12,14.

Tayanch iboralar:

«Boj ta‘rifi tugrisida» gi qonun, javobgarlik sub‘ektlar, jismoniy va yuridik shaxslar javobgarligi, jarima, musodara, kontrabanda.

11.1. bojxona xaqidagi qonun xujjatlar. kontrabandaga, bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzishlarga va O‘zbekiston respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utiladigan tovarlarga tegishli soliklar va boshqa majburiy boj tulovlarini tulashtan bosh tortishga qarshi kurash funktsiyasi O‘zbekiston respublikasi bojxona organlarining asosiy funktsiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustaxkamlangan. yuqorida aytib utilgan funktsiya bilan bog‘liq qonun xujjatlari tomonidan xuquqni muxofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavkei xam belgilab berilgan, bu, shubxasiz, uz funktsional vazifalarini xal etishda bojxona organlarining xuquqini kengaytadi.

bojxona organlari bojxona bilan bog‘liq xuquqbuzarliklarga qarshi kurash vazifasini xal etib, bojxona xaqidagi qonun xujjatlari buzilishiga barxam berish maqsadida xuquqiy majburlash sanksiya usullarini qullaydilar.

bojxona bilan bog‘liq xuquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlikka tortish soxasida O‘zbekiston respublikasi bojxona organlarining xuquqni qullash amaliyoti O‘zbekiston respublikasi bojxona kodeksining ix va x bulimlari qoidolari bilan qonuniy tartiga solinadi. ushbu qoidalar asosida bojxona xaqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta‘sir kursatish choralariga tegishli masalalar buyicha normativ baza shakllanadi.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilishi tushunchasi. bojxona kodeksida bojxona xaqidagi qonun xujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izox berilgan. u 129-moddada keltirilgan. ushbu moddaga muvofiq bojxona kodeksida va O‘zbekiston respublikasining boshqa qonun xujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga aybli gayrixuquqiy rioya etmalik bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilishi xisoblanadi.

aytib utilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi deb xisoblanadi.

aytib utilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi - bojxona kodeksi, «boj tarifi tugrisida»gi O‘zbekiston respublikasi qonuni, O‘zbekiston respublikasining bojxona ishi tugrisidagi boshqa qonun xujjatlari va O‘zbekiston respublikasining xalqaro

shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utiladigantovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona tulovlarini tulashga, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalanishga tajovuz kiluvchi shaxslarning xuquqka zid tusdagi xatti-xarakati yoxud xarakatsizligidir. buning uchun (ya'ni, ularning xuquqka zid xarakati yoki xarakatsizligi uchun) bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

11.2. javobgarlik sub'ektlari. bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik sub'ektlarini aniqlashda shuni nazarda to'tish kerakki, quyidagi O'zbekiston respublikasi shaxslari xam, xorijiy shaxslar xam ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

fukarolar (ular xuquqbuzarlik sodir etilgan paytda un olti yoshga tulganda);

mansabdor shaxslar (agar ular xuquqbuzarlik sodir etgan paytda ularning xizmat vazifalariga bojxona kodeksi va O'zbekiston respublikasining bojxona ishi buyicha qonun xujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsas);

yuridik shaxslar (mulkchilik shallaridan kat'i nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);

yuridik shaxs etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston respublikasi bojxona kodeksining 15-bulimi 134-172 moddalarida bojxona xaqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

fukarolar va mansabdor shaxslarning javobgarligi. bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzgan fukarolar va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning kilmishlarida jinoyat alomatlari bulgan takdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

xuquqni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi (yuridik shaxs) urtasida uzaro munosabatlar paydo bulganda, xuquq buzish mavzusi esa fukaroga tegishli tovar bulganda bojxona qoidalarining buzilishi fukaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chakirib olinishi mumkin.

mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan xuquqni buzish sodir etilishi paytida bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun xujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning xizmat majburiyatlariga kirsas, bojxona qoidalari buzilganligi uchun javob beradi.

yuridik shaxslarning javobgarligi. yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan xolda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanayotgan shaxslarga nisbatan bojxona kodeksining 134-172-moddalarida nazarda tutilgan bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chakirib olish, bojxona xaqidagi qonun xujjatlarining buzilishi qiroli yoki bevosita ashyosi xisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qullaniladi.

korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan ular uz xizmat vazifalarini bajarishi chogida sodir etilgan bojxonaga oid qonun xujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fukaro (yukni oluvchi, junatuvchi, tashuvchi, saklovchi)ning ishi bilan oglik xamda ularning manfaatlari yulida va tovarlari bilan sodir etilgan xatti-xarakat korxona va

tashkilot (yuridik shaxs) tomonidan sodir etilgan bojxona qoidalarining buzilishi sifatida tavsiflanadi. ushbu xolda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot urtasida uzaro munosabat paydo bo'ladi.

korxona, tashkilot yoki fukaroga qarashli bulgan tovar qonunni buzish ashyosi xisoblanadi.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bulmagan takdirda qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

yuridik shaxslarning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun xamda bojxona ishi soxasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun xujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun beriladigan jazo turlari. bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi (bkning 132-moddasiga muvofiq):

jarima. jarima ma'muriy xuquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat xisobiga pul undirishdir.

jarimaning miqdori ma'muriy xuquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy xuquqbuzarlik uchun esa xuquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab kuyilgan eng kam oylik ish xaqidan kelib chiqkan xolda belgilanadi.

tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib xisoblanadigan jarima kurinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda xuquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.

bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan litsenziyani yoki malaka attestatini chakirib olish. litsenziya yoki malaka attestatini chakirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo dukonlari, erkin omborlar, vaqtincha saklash omborlariga, shuningdek bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga yoki bojxona rasmiylatiruvimutaxassisiga ular tomonidan bojxona qoidalari buzilganligi uchun, agar ushbu xuquqbuzarliklar kursatib utilgan shaxslar tomonidan litsenziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bulsa, qullanilishi mumkin.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlari buzulishini sodir etish qiroli yoki bevosita ashyosi xisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish.

musodara qilish - bojxona qoidalari buzilishi ob'ekti xisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib kuyilishi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

jarima asosiy jazo sifatida qullaniladi, bkning 132-moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan jazolar esa, xam asosiy, xam kushimcha jazo sifatida qullanilishi mumkin.

yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan xolda tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi shaxs tomonidan bojxona xaqidagi qonun xujjatlari bir necha marta buzilsa, xar bir xuquqbuzarlik uchun aloxida jazo beriladi.

bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj tulovlarini tulash va bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

11.3. bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun jazo belgilash muddatlari. bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini kaytarib olish xamda jarima kurinishida jazo belgilash bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzish xolati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiqtirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiqtirmay, byudjetga bojxona tulovlarini tulaslik bilan bog'liq ishlar buyicha - besh yildan kechiqtirmay qullanishi mumkin.

tovarlar va transport vositalarini musodara qilish kurinishidagi jazo bojxona xaqidagi qonun xujjatlarini buzish sodir etilgan yoki aniqlangan vaqtdan xamda u asosiy yoki kushimcha jazo ekanligidan kat'i nazar qullaniladi.

tovarlar va transport vositalarini gayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston respublikasi bojxona chegarasi orqali xaqikatda olib utilgan kun xisoblanadi.

11.4. kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun javobgarlik. kontrabanda (lotincha contra - karshi, bando - xukumat farmoni suzlaridan olingan) tovarlar, valyuta va boshqa kimmatliklarni bojxona xaqidagi qonunlarni buzgan xolda davlat chegarasi orqali yashirishncha olib o'tish. O'zbekiston respublikasi qonun xujjatlariga muvofiq kontrabanda - ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona xujjatlari yoki vositalariga uxshatib yasalgan xujjatlardan aldash yuli bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir kiluvchi zaxarli, zaxarlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlash kurilmalari, qirol-yarog, ukotar qirol yoki uk-dorilarni, shuningdek, giyoxvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va akidaparastlik targib kiluvchi materiallarni O'zbekiston respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish; u mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay besh yildan un yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi.

